

T.JO'RAYEV

IQTISODIYOT NAZARIYASI

(ko'rgazmali qo'llanmalar va test savollari)

1-qism

TOSHKENT—«FAN VA TEXNOLOGIYA»—2005

T.T. Jo'rayev. Iqtisodiyot nazariyasi (ko'rgazmali qo'llanmalar va test savollari) 1-qism. Toshkent, «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005, 184 bet.

Taqrizchilar:

T.T. Jumaqulov – iqtisod fanlari doktori, professor,

S.A. Abdullayev – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

«Iqtisodiyot nazariyasi» bo'yicha mazkur qo'llanma oliy o'quv yurtlarida bakalavrlar tayyorlash uchun mo'ljallangan fan dasturi talablari asosida tuzilgan.

Qo'llanmani tayyorlashda Respublika Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, respublika qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlardan hamda mamlakat iqtisodiy hayotiga tegishli rasmiy statistik ma'lumotlardan o'z o'rnida foydalanilgan.


Ko'rgazmali qo'llanma iqtisodiyot nazariyasi fani dasturining tuzilishidan kelib chiqib, mantiqan bir-biri bilan bog'langan to'rt qismdan iborat qilib tuzilgan. Bular iqtisodiyotning umumiy asoslari, bozor iqtisodiyoti, makroiqtisodiyot va jahon xo'jaligiga oid bo'lgan ko'rgazmali material va test savollaridir.

Qo'llanma oliy o'quv yurti bakalavrlariga mo'ljallangan bo'lib, undan magistrlar, aspirantlar va iqtisodiyot nazariyasiga qiziquvchi barcha kitobxonlar foydalanishi mumkin.

O'quv-qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Fan va texnologiyalar Markazi granti asosida yozilgan

Qo'llanma Toshkent Moliya instituti qoshidagi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy kengashi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

10-32/58/2/I



«Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005 y.

I BO'LIM

IQTISODIY TARAQQIYOTNING UMUMIY ASOSLARI

1-MAVZU. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA BILISH USLUBI

1-§. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi

Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi jamiyat ehtiyojlarining cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir.

Iqtisodiyot

Turli-tuman iqtisodiy faoliyatlarni, ishlab chiqarishning muayyan usulini hamda infratuzilmaviy muassasalarini yaxlit qilib birlashtiruvchi iqtisodiy tizim.

Iqtisodiy faoliyat

Insonlarning moddiy va ma'naviy ne'matlarini ishlab chiqarish, iste'molchiga yetkazib berish hamda xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan, bir-biriga bog'liqlikda amalga oshiriladigan faoliyatlar.

Takror ishlab chiqarish – ishlab chiqarishning yangidan boshlanib va qaytadan to'xtovsiz takrorlanib turishi.

Takror ishlab chiqarish turlari

Qisqarib boruvchi


Ishlab chiqarish hajmi kamayib borish tartibida takrorlanadi

Oddiy

Ishlab chiqarish hajmi bir me'yorda, o'zgarmasdan takrorlanadi.

Kengaytirilgan

Ishlab chiqarish kengayib borish tartibida takrorlanadi.




Infratuzilma – bu ishlab chiqarish va ayriboshlashning me'yorida ro'y berishi hamda kishilar turmush kechirishining umumiy shart- sharoitini tashkil qiluvchi sohalar.

Infratuzilma turlari


- ishlab chiqarish infratuzilmasi
- ijtimoiy infratuzilma
- bozor infratuzilmasi

Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi jamiyat ehtiyojlarining cheksizligi hamda iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir.

Iqtisodiyotning asosiy muammasi – bu iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qanday qilib to'laroq qondirib borish mumkinligi to'g'risidagi masaladir.



2-§. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi



• Milloddan keyingi dastlabki ming yillikdagi iqtisodiy qarashlar. Bu davrda iqtisodiy bilimlarning rivojlanishida muqaddas kitoblar («Qur'on», «Hadis») hamda O'rta Osiyo va Sharqning buyuk allomalari qarashlari alohida o'rin tutgan.

Ular inson ehtiyojlari (Farobiy), daromadlar va xarajatlar muvozanati (Ibn Sino), pulning kelib chiqish sabablari (Abu Rayhon Beruniy), jamiyatdagi mehnatning roli, moddiy ne'matlarning xususiyatlari, pul va uning vazifalari (Yusuf Xos Hojib) jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, davlat moliyasi, soliqlarni belgilash tartibi (A. Navoiy), insonlarning ishlab chiqarish faoliyati, mehnat va uning jamiyatdagi roli, tovar qiymati va iste'mol qiymati, ayriboshlash jarayoni, tarixiy-ijtimoiy taraqqiyot prinsiplari (Ibn Xoldun) kabi masalalarga o'z munosabatlarini bildirishgan.

Iqtisodiyot nazariyasi ko'pgina mamlakatlarda milliy bozorlarning qaror topishi va jahon bozorining vujudga kelishi sharoitida (XVI-XVII asr) iqtisodiy bilim va qarashlarning yaxlit tizimi sifatida «siyosiy iqtisod» nomi bilan mustaqil fan sifatida shakllana boshladi.

«Siyosiy iqtisod» grekcha so'zdan olingan bo'lib, «politikos» – ijtimoiy, «oykos» – uy, uy ho'jaligi, «nomos» - qonun degan ma'noni anglatadi. Fransuz iqtisodchisi Antuan Monkreten (1575-1621y.) birinchi marta «Siyosiy iqtisod trakti» (1615 y.) asarida bu fanni ilmiy jihatdan asosladi va u 300 yildan ortiq vaqt davomida shu nom bilan rivojlandi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fan sifatida shakllanish jarayonida vujudga kelgan asosiy g'oyaviy oqimlar.

Merkantelizm – jamiyatning boyligi puldan, oltindan iborat bo'lib, u savdoda, «asosan tashqi savdoda paydo bo'ladi va ko'payadi», deb tushuntiradi. Merkantelizm – italyanча «mercante» so'zidan olingan bo'lib, «savdogar» ma'nosini anglatadi. Bu oqimning namondalari: Vil Stafford, Tomas Men, Antuan Monkreten, Jon Lou, Gaspar Skaruffi va boshqalar.

Fiziokratlar – jamiyatning boyligi qishloq xo'jaligida vujudga keladi degan g'oyani ilgari suradilar. Bu ta'limotning asoschisi Fransua Kene (1694-1774 y.y.) hisoblanadi.

Klassik siyosiy iqtisod – boyluk faqat qishloq xo'jaligida emas, balki sanoat, transport, qurilish va boshqa sohalarda ham yaratilishini isbotlab berdi.

U. Petti (1623-1686 y.y.) boylukning manbai yer va mehnat ekanligini e'tirof etgan. «Mehnat boylukning otasi, yer uning onasi», degan ibora unga tegishlidir.

A. Smit «Odamlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» (1776 y.) asarida talab va taklif asosida shakllanadigan erkin narxlar asosida bozor o'z-o'zini tartibga solishi («ko'rinmas qo'l») g'oyasini ilgari suradi. Insonni faollashtiradigan asosiy rag'bat shaxsiy manfaatdir, deb ko'rsatadi.

D. Rikardo qiymatning, turli sinflar daromadlari va foydaning yagona manbai mehnat ekanligini ko'rsatadi.

Sismondi (Jon Sharl Leonard Simon de Sismondi) kapitalistik iqtisodiy mexanizmni tanqid qilib, siyosiy iqtisod inson baxti yo'lida ijtimoiy mexanizmni takomillashtirishga qaratilgan fan bo'lmog'i lozim, deb ko'rsatadi.

Sotsial-utopistlar (A. Sen-Simon, Sharl Fure, Robert Ouen) kapitalizmni tanqid qilib, xususiy mulkchilikni yo'q qilish, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'molni qayta tashkil etish va adolatli tuzum (industrial jamiyat, garmonik jamiyat, kommunizm) o'rnatish talabi bilan chiqadilar.

Marksizm jamiyat taraqqiyotiga tabiiy tarixiy jarayon deb qarab, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, ularning vujudga kelishi, rivojlanishi va boshqasi bilan almashinishi sabablari to'g'risidagi ta'limotni hamda qo'shimcha qiymat nazariyasini yaratadi.

Iqtisodiyot nazariyasidagi yangi oqimlar
(XIX asr oxiri va XX asr boshlari)

Marjinalizm vakillari (marginal-keyingi, qo'shilgan) – keyingi tovar nafilligi, qo'shilgan mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borishi nazariyalarini ishlab chiqqan. Keyingi tovar nafilligining kamayib borish qonuni bu oqimning asosiy prinsipi hisoblanadi. Shunga ko'ra, narx xarajatga bog'liq bo'lmay, keyingi nafillik asosida belgilanadi. Marjinalizm asoschilari Karl Menger, Fridrix fon Vizer, Eygen fon Bem-Baverk, Uilyam Stenli Jevons hisoblanadi.

Neoklassik maktab (asoschisi Alfred Marshall) bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning aralashuvini cheklash g'oyasini ilgari suradi. Bozor mexanizmining buzilishi monopoliyalar vujudga kelganda ham yuz berishini ko'rsatadi. Funktsional bog'lanish g'oyasini asoslaydi, bozor bahosini belgilovchi omillar talab va taklifdan iborat deb hisoblaydi. Bu maktab vakillaridan L.Valras umumiy iqtisodiy muvozanatlik modelini ishlab chiqishga, I.Shumpetter esa iqtisodiy tizimlar o'zgarishning ichki kuchlarini ko'rsatib berishga harakat qilgan hamda iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch tadbirkorlik degan xulosaga kelgan.

Keynschilik–rivojlangan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solib turish zarurligini asoslashga qaratiladi. Jon Meynard Keyns «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936 y.) nomli kitobida bunday tartibga solish yalpi talabga hamda shu orqali inflyatsiya va bandlikka ta'sir ko'rsatishini asoslaydi.

Neoklassik yo'nalishda yangidan vujudga kelgan oqimlar
(XX asrning 50-60-yillaridan boshlab)

Neoliberalizm (F.Xayek, Shumpeter, L.Erkard)–asosiy e'tiborni davlatning iqtisodiyotga aralashuvini eng kam darajaga keltirishga, xususi tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratish lozimligini uqtiradi.

Monetarizm – (M. Fridman) iqtisodiyotni boshqarishni pul muomalasini tartibga solish orqali amaiga oshirish mumkinligini asoslab beradi.

Institutsionalizm tarafdorlari (T.Veblen, J.Gelbreyt) fikriga ko'ra, xo'jalik yurituvchilar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat iqtisodiy balki noiqtisodiy omillar ta'sirida vujudga keladi. Shu sababli, iqtisodiyotga muassasaviy o'zgarishlar orqali ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3-§. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari

Fanning predmeti

Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini o'rganadi.

Iqtisodiy munosabatlar –bu moddiy va ma'naviy ne'matlarni takror ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida vujudga keladigan turli xil munosabatlardir.

Iqtisodiy munosabatlar-ning aniq namoyon bo'lish shakllari.

Iqtisodiy hodisalar: ishsizlik, inqiroz, inflyatsiya, bandlik va hokazo.

Iqtisodiy jarayonlar: ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, taqsimlash, ayriboshlash, iste'mol va h.k

Iqtisodiyot nazariyasi fanining maqsadi

Cheklangan iqtisodiy resurslardan foydalanishning turli muqobil variantlaridan eng samaralisini topish orqali jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini to'laroq qondirib borishning nazariy va amaliy muammolarini tadqiq qilishdan iborat.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari

Ilmiy bilish vazifasi–iqtisodiy hodisa va jarayonlarning tub mazmunini, ular o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlarni, shakl va mazmun o'zgarishlarini o'rganishga qaratiladi.

Uslubiy vazifasi–boshqa iqtisodiy fanlar iqtisodiyot nazariyasi asoslab bergan qonun va kategoriyalarga tayangan holda o'z predmetlarini o'rganadi. Ayni vaqtda bu fan boshqa fanlar chiqargan xulosalarni nazariy jihatdan umumlashtiradi.

Amaliy vazifasi–xo'jalik yuritishning oqilona usullari, asosiy qoidalarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy qiladi.

Bashorat qilish vazifasi–jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning istiqbollarini ilmiy asoslab beradi.

«Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirishi, ularning dunyoqarashlari o'zgarishi»¹ vazifasi iqtisodiyotni isloh qilish sohasidagi strategik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat etadi.

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., "O'zbekiston", 1999, 87-bet.

4-§. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunchalar)

Iqtisodiy qonunlar – iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi ichki, barqaror, doimiy takrorlanib turadigan sabab-oqibat bog'liqliklarini va aloqadorliklarini ifodalaydi. Bu to'g'ridan-to'g'ri yoki teskari bog'liqlik bo'lishi mumkin. Masalan, talab qonuni narx bilan sotib olinadigan mahsulot miqdori o'rtasidagi teskari, taklif qonuni esa mahsulot narxi bilan uning chiqariladigan miqdori o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni ifodalaydi.

Iqtisodiy qonunlarning obyektiv xarakteri

Ularning amal qilishi kishilarning xohish-irodasiga bog'liq emasligini bildiradi. Shu bilan birga, ular insoniyat jamiyati mavjud bo'lganda va takror ishlab chiqarish ro'y berganda amal qiladi hamda kishilarning maqsadli iqtisodiy faoliyati orqali namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy qonunlar tizimi

Maxsus iqtisodiy qonunlar – alohida olingan iqtisodiy tizim sharoitida amal qiladi. Masalan, quldorlik, feodal, «kapitalistik», «sotsialistik» taqsimot qonunlari, qo'shimcha qiymat qonunlari va h.k.

Oraliq yoki davriy iqtisodiy qonunlar – ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga bog'liq bo'lmagan holda, insoniyat jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichlarida amal qiladi. Masalan, bozor iqtisodiyotiga xos qonunlar (talab qonuni, taklif qonuni va h.k.)

Umumiy iqtisodiy qonunlar – kishilik jamiyati rivojlanishining barcha bosqichlarida amal qiladi. Masalan, ehtiyojlarning o'sib borish qonuni, vaqtni tejash qonuni va h.k.

Ilmiy kategoriyalar (ilmiy tushunchalar)

Iqtisodiy voqealikning ilmiy ifodasi bo'lib, iqtisodiy hodisa va jarayonlarning tub mohiyatini aks ettiradi. Masalan, talab, taklif, baho, raqobat, bozor, pul va h.k.

Iqtisodiy kategoriyalar amal qilish davriga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Maxsus – alohida iqtisodiy tizim sharoitida amal qiladi.

Oraliq – jamiyat taraqqiyotining alohida bosqichlarida mavjud bo'ladi.

Umumiy – jamiyat taraqqiyotining bosqichlarida amal qiladi.

5-§. Iqtisodiy tahlil uslubi va usullari

Iqtisodiy tahlil uslubi – bu ilmiy bilishga yondashish yo'llari, tamoyillari, qonun-qoidali va aniq hadislar tizimi.

Ilmiy bilish
usullari

Dialektik
usul



Iqtisodiyotga bir-biri bilan chambarchas bog'liq va o'zaro aloqada bo'lgan turli bo'g'inlardan iborat yaxlit bir tizim sifatida qarab, unda ro'y beradigan jarayonlar doimiy o'zgarishda (oddiydan murakkablikka, quyidan yuqoriga) va rivojlanishda deb hisoblaydi.

Ilmiy
abstraksiya

Mantiqiy tahlil paytida hodisa va jarayonlarning ikkinchi darajali belgilari fikridan chetlashtirilib hamda eng asosiy belgilarini ajratib olish orqali ularning mohiyatini ochib berishga harakat qilish.

Tahlil va sintez
usuli

Tahlil – bu o'rganilayotgan voqea-hodisalarni alohida qismlarga ajratib, sintez esa ularni yaxlit bir butun qilib birlashtirish orqali mohiyatini ochib berish.



1-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLARI

1. Qur'oni Karimda aks etgan asosiy iqtisodiy g'oya nimadan iborat?

a) insonlar dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishi ta'kidlangan;

b) "ehtiyoj" tushunchasi ta'riflangan va jamiyat hayotida moddiy ehtiyojlar ahamiyati ko'rsatib berilgan;

v) musulmonlar qardoshligi g'oyasi ilgari surilgan, mulk muqaddasligi qayd qilingan, savdoga katta o'rin berilgan va jamiyat tengsizligi azaldan deb tan olingan;

g) moddiy boylik yaratishda mehnat va mehnat qurollari o'rni belgilab berilgan;

d) "zaruriy" va "qo'shimcha" mehnat tushunchalari farqlanadi.

2. Markaziy Osiyoda yashab o'tgan qaysi mutafakkirlar asarlarida iqtisodiy g'oyalar o'z aksini topgan?

a) Farobiy, Ibn Sino;

b) A. Navoiy, A. Temur;

v) A. Beruniy, X. Yusuf;

g) M. Ulug'bek, Z. Bobur;

d) yuqoridagilarning barchasini asarlarida.

3. Iqtisodiy nazariyaning qaysi oqimida savdo-soliq va asosan tashqi savdo barcha boyliklarning manbai deb hisoblanadi?

a) merkentalizm;

b) fiziokratlar;

v) klassik burjua iqtisodiy maktabi;

g) marksistik nazariya;

d) marjinalizm.

4. Hozirgi zamon iqtisodiy nazariyasining qaysi oqimida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning va taritbga solishning asosiy vositasi pul deb hisoblanadi?

a) keynschilar;

b) monitarizm;

v) institutsionalizm;

g) liberalizm;

d) barcha oqimlarda.

5. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat?

a) ijtimoiy munosabatlarni o'rganish;

b) siyosiy munosabatlarni o'rganish;

v) iqtisodiy munosabatlarni va ijtimoiy xo'jaliklarni samarali yuritishning iqtisodiy qonun-qoidalarini o'rganish;


- g) huquqiy munosabatlarni o'rganish;**
d) tabiiy jarayon va hodisalarni o'rganish.
6. Quyidagilardan qaysi biri umumiy iqtisodiy qonunlar jumlasiga kiradi?
a) qiymat qonuni;
b) talab qonuni;
v) taklif qonuni;
g) ehtiyojlarning yuksalish qonuni;
d) foyda kelishining kamayib borish qonuni.
7. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning qaysi usuli dalillardan asosiy qonun-qoidalar ishlab chiqishni yoki amaliyotdan nazariya tomon borishni bildiradi?
a) ilmiy abstraksiya;
b) deduksiya;
v) induksiya;
g) empirik;
d) gipoteza.
8. Quyidagilardan qaysi biri iqtisodiy resurslar tarkibini to'liq aks ettiradi?
a) mehnat vositalari va ishchi kuchi;
b) kapital, yer, ishchi kuchi va tadbirkorlik layoqati;
v) tabiiy va inson resurslari;
g) ishlab chiqarishning moddiy omillari;
d) kapital va ishchi kuchi.
9. Iqtisodiy resurslarning barcha turi uchun umumiy bo'lgan xususiyat nimadan iborat?
a) mutlaq cheklangan;
b) inson mehnatining natijasi;
v) nisbatan cheklangan yoki kamyob;
g) qiymatga ega;
d) ishlab chiqarish jarayonida jismoniy eskirish.
10. Iqtisodiyot nazariyasi fani fanlarning qanday guruhiga kiradi?
a) iqtisodiy fanlar;
b) siyosiy fanlar;
v) ijtimoiy fanlar;
g) ijtimoiy-gumanetar fanlar;
d) tabiiy fanlar.
11. Iqtisodiyot nazariyasi fani nimani o'rgatadi?
a) ijtimoiy tuzumlarni;
b) kishilik jamiyati rivojlanishining iqtisodiy qonun va qonuniyatlarini;

- v) ishlab chiqarish kuchlarini;
 - g) moddiy ne'matlar ishlab chiqarishni;
 - d) ishlab chiqarishning texnologik usullarini.
12. Iqtisodiyot nazariyasi fanining asoschilari kimlar?
- a) A.Smit, D.Rikardo;
 - b) F.Kene;
 - v) U.Stafford, T.Men, A.Serra, F.Kene, V.Petti, A.Smit;
 - g) P.Samuelson, K.R.Makkenell, S.L.Bryu;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
13. Takror ishlab chiqarish nazariyasini birinchi bo'lib kimlar yaratganlar?
- a) merkenelistlar;
 - b) fiziokratlar;
 - v) klassik siyosiy iqtisodchilar;
 - g) yeynschilar;
 - d) monetaristlar.
14. So'nggi naflilik nazariyasini kim yaratdi?
- a) K.Menger, E.Bem-Bevarklar;
 - b) Dj.Klark;
 - v) M.Keyns;
 - g) P.Samuelson;
 - d) F.Kene.
15. "Tadqiqot uslublari majmui" deganda nimani tushunasiz?
- a) makroiqtisodiy tahlilni;
 - b) mikroiqtisodiy tahlilni;
 - v) makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlilni;
 - g) ilmiy bilishning qoidalari, shakllari va usullarini;
 - d) iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishni.
16. Iqtisodiy qonunlar qanday xususiyatga ega?
- a) obeyktiv;
 - b) subyektiv;
 - v) ham obyektiv va ham subyektiv;
 - g) tabiiy qonunlarga o'xshash;
 - d) yuqoridagilarning barchasi to'g'ri.

2-MAVZU. IJTIMOIIY- IQTISODIIY EHTIYOJLAR VA UNING QONDIRILISHI

1-§. IJTIMOIIY-IQTISODIIY EHTIYOJLARNING MAZMUNI VA SHAKLLARI

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar – bu jamiyat a'zolarining yashashi va kamol topishi uchun kerakli, hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyatidir.



Jamiyat ehtiyojlarining barcha tarkibiy qismlariga xos bo'lgan umumiy xususiyat – ular cheksiz va chegarasizdir.

Jamiyat ehtiyojlari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar:

Mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasi.

Jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizim.

Tabiiy-geografik va iqlim sharoitlari.

Tarixiy, milliy an'analar va urf-odatlar.

Aholi sonining o'sishi va uning ijtimoiy tarkibining o'zgarishi.

Hududiy, milliy va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish darajasi.

Xalqaro aloqa va kommunikatsiya tizimlarining rivojlanish holati.

Ehtiyojlarning o'sib borish qonuni

Jamiyat ehtiyojlarining miqdoran ortib va sifat jihatdan takomillashib borishini bildiradi.

Ehtiyojlarning o'sib borishini taqozo qiluvchi omillar:

- aholining tabiiy o'sishi – buning natijasida ehtiyojlar miqdoran ortib boradi;
- fan-texnika taraqqiyoti va reklama. Uning ta'sirida kishilarda yangi tovarlarga ehtiyoj paydo bo'lib, u sifat jihatdan takomillashib boradi.

Ehtiyojlarning o'sib borish qonuni ishlab chiqarish bilan ehtiyojlar o'rnatidagi uzviy va o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi. Ishlab chiqarish ehtiyojlarni qondirishga qaratiladi, o'z navbatida uning rivojlanishi yangi ehtiyojlarni vujudga keltiradi.

Ehtiyojlarning o'sib borishiga qarshi ta'sir qiluvchi omillar:

Ishlab chiqarishning rivojlanish holati.

Iqtisodiy faollikning siklik ro'y berishi.

Jamiyatdagi mavjud hukmron munosabatlar.

Favqulodda holatlar (urushlar, iqtisodiy tizimlar almashishi).

Tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini va h.k.)

Ehtiyojlarga xos bo'lgan muhim xususiyat – turli ehtiyojlarning bir- birini taqozo qilishidir. Bu bir ehtiyojning boshqa bir ehtiyojni keltirib chiqarishini anglatadi. Masalan, kompyuterlarga paydo bo'lgan ehtiyoj o'z navbatida uni ishlatishni o'rganish, xizmat ko'rsatish, dastur tuzish kabilarga ehtiyojlarni keltirib chiqaradi.

2-§. Ehtiyojlarning turlari va tarkibi, ularning qondirilish darajasi

Ehtiyojlar bir qator mezonlar bo'yicha turkumlanib tahlil qilinadi.

Qondirilish xarakteri va darajasiga ko'ra:

Yakka yoki individual tarzda qondiriladigan ehtiyojlar

Jamoa yoki guruhlar darajasida qondiriladigan ehtiyojlar.

Umumjamiyat miqyosida qondiriladigan ehtiyojlar

Ehtiyojlarni qondirish vositalarining ashyoviy-buyum shakliga ko'ra:

Moddiy ehtiyojlar – moddiy ko'rinishga ega bo'lib, kishilarning ular bilan ta'minlanishi hayot kechirishining birlamchi shartidir. Bular hayotiy zarur vositalarni (oziq-ovqat, turar-joy) va zebuziynat buyumlari (mebel, avtomobil, xolodilnik, televizor, dala hovli)ni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy ma'naviy va madaniy-maishiy ehtiyojlar – asosan xizmatlar shaklida qondirilib, insonning ahloqiy, ma'naviy, madaniy va jismoniy kamol topishiga xizmat qiladi. Mehnat qilishga bo'lgan ehtiyoj ham ijtimoiy ehtiyojning tarkibiy qismidir.

Qondirish usuliga qarab:

Bevosita qondiriladigan ehtiyojlar – kishilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilinadigan tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlar.

Bilvosita qondiriladigan ehtiyojlar – bu ishlab chiqarish maqsadlari uchun iqtisodiy resurslarga bo'lgan ehtiyojlar.

Iqtisodiy adabiyotlarda mutlaq va nisbiy, minimal va maksimal, qondirilishi muqarrar zarur bo'lgan va keyinchalik qondirsa bo'ladigan, joriy davrda va istiqbolda qondiriladigan, birlamchi va ikkilamchi ehtiyojlar ham ajratib ko'rsatiladi.

Ehtiyojlarni qondirilish darajasi (EQD) har bir davrda haqiqiy iste'mol (HI)ni ehtiyojlarning umumiy darajasi (EUD)ga taqqoslash orqali aniqlanadi, ya'ni

$$EQD = \frac{HI}{EUD} \cdot 100$$

EQD tovar (xizmat)larning alohida turlari va guruhlarini bo'yicha aniqlanadi.

2-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Quyidagilarni qaysi biri birgalikda qondiriladigan ehtiyoj hisoblanadi?

- a) moddiy ehtiyoj;
- b) madaniy-maishiy ehtiyoj;
- v) ijtimoiy ehtiyoj;
- g) ma'naviy ehtiyoj;
- d) mehnat qilishga ehtiyoj.

2. Jamiyat ehtiyojlarining miqdoran o'sib va tarkiban yangilanib borishiga nima ta'sir ko'rsatadi?

- a) aholi sonining o'sishi;
- b) fan-texnika taraqqiyoti;
- v) reklama va aloqa kommunikatsiyasining rivojlanishi;
- g) milliy va xalqaro bozorlarning rivojlanishi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

3. Cheklangan resurslar bilan cheksiz ehtiyojlarni to'laroq qondirib borishga qanday erishiladi?

- a) ehtiyojlarni qondirishning maqbul darajasini aniqlash;
- b) muqobil mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- v) resurslardan foydalanishning turli muqobil variantlaridan eng ko'p mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydiganini tanlab olish;
- g) resurslarni samarali taqsimlash;
- d) yuqoridagi barcha yo'llar bilan.

4. Aholi ehtiyojlarining qondirilish darajasi qanday aniqlanadi?

- a) ularning talabi va ehtiyojlari taqqoslanadi;
- b) aholining haqiqiy iste'mol darajasi va ehtiyojlari taqqoslanadi;
- v) aholi pul daromadlari va talablari taqqoslanadi;
- g) aholi real daromadlari va ehtiyojlari taqqoslanadi;
- d) yuqoridagi barcha usullardan foydalaniladi.



5. Alohida kishilar, korxonalar va davlat ehtiyojlarining umumiy xususiyatlari nimadan iborat?

- a) tarkiban bir xil;
- b) cheksiz va chegarasiz;
- v) miqdoriy o'lchamga ega;
- g) nisbatan cheklangan;
- d) yuqoridagilarning barchasi to'g'ri.

3-MAVZU. IQTISODIY FAOLIYAT VA ISHLAB CHIQRISH

1-§. Iqtisodiy faoliyat va uning turlari

Iqtisodiy faoliyat kishilar hayotining asosini tashkil qilib, hayotiy ne'matlar va boyliklarni takror ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladi.



Yaratilgan mahsulotning iste'mol qilinish xususiyatiga ko'ra moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari ham ikkiga ajratiladi:

- ishlab chiqarish vositalari, ya'ni investitsion tovarlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar.

- iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar.

O'zbekistonda YAMMning ashyoviy-buyum tarkibi (joriy bozor baholarida) ¹

Ko'rsatkichlar	1999		2000		2001		2002	
	Mird. so'm	%	Mird. so'm	%	Mird. so'm	%	Mird. so'm	%
YAMM shu jumladan:	2128.7	100.0	3194.5	100.0	4925.3	100.0	7469.3	100.0
• tovarlar	1070.5	50.2	1614.2	50.5	2467.5	50.1	3719.7	49.8
• xizmatlar	772.4	36.4	1173.9	36.8	1871.6	38.0	2875.7	38.5

Ishlab chiqarish bir tomondan qiymatning vujudga kelishi va boshqa tomondan nafilikning yaratilish jarayonidir.

Ayriboshlash jarayonida mahsulotlar va iqtisodiy resurslar tovar shaklini olib, ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga o'tadi. Ayriboshlash ishlab chiqarish va iste'molni bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi.

Ayriboshlash shakllari:

- mahsulot ayriboshlash-bunda bir mahsulot boshqasiga ma'lum miqdoriy nisbatlarda ayriboshlanib, u barter ayriboshlash deyiladi.

- tovar ayriboshlash-bunda mahsulot (xizmat)-lar pul vositasida, oldi-sotdi yo'li bilan ayriboshlash qilinadi.

¹ Sotsialno-ekonomicheskoe polojenie Respubliki Uzbekistan za 2002 god. Toshkent, 2003. 8-bet.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar va iqtisodiy resurslar taqsimlash jarayonidan o'tadi. Mahsulot taqsimlanishi natijasida undagi ishlab chiqaruvchilar, mulk va resurs egalari hamda davlat ulushi aniqlanadi. Iqtisodiy resurslar mamlakat hududlari va korxonalar o'rtasida ularga bo'lgan talabni hisobga olgan holda taqsimlanadi.

Iste'mol ishlab chiqarish natijalaridan foydalanish jarayonini anglatadi. Iste'mol o'z xususiyatlariga ko'ra ikki turga ajratiladi:

- shaxsiy iste'mol – bunda iste'mol tovarlari va xizmatlar bevosita iste'mol qilinadi.
- ishlab chiqarish iste'moli – bunda investitsion tovarlar bilvosita iste'mol qilinadi, ya'ni ular ishlab chiqarish jarayonida foydalanilib, kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalar yaratiladi.



Iqtisodiy resurslar ishlab chiqarish jarayonida uning omillariga aylanadi.

Ishlab chiqarish omillari mahsulot yaratish (xizmat ko'rsatish)dagi o'rni ga ko'ra uch guruhga ajratiladi.

- ishchi kuchi – insonning mehnat qilish layoqati bo'lib, ishlab chiqarishning asosiy va zaruriy shartidir. Shu sababli, u ishlab chiqarishning shaxsiy omili deb ham ataladi. Ishchi kuchi ishlab chiqarishning boshqa omillarini o'zaro birlashtirib, ularni harakatga keltiradi.
- mehnat vositalari – inson mehnat predmetlariga ta'sir qiladigan barcha vositalardir (mashina, mexanizmlar, asbob- uskunalar va h.k.)
- mehnat predmetlari – insonning maqsadga muvofiq faoliyati o'zlashtirishga qaratilgan barcha narsalardir. Mehnat predmetlari tabiatda tayyor holda yoki oldingi davrdagi mehnat mahsulati (xom ashyo shaklida) bo'lishi mumkin.

Mehnat vositalari va mehnat predmetlari birgalikda ishlab chiqarish vositalari deyiladi.

2-§. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi



3-§. Ishlab chiqarish natijalari. Ishlab chiqarish funksiyasi

Ishlab chiqarish natijalari – turli darajada ishlab chiqarish hajmini tavsiflovchi ko'rsatkichlardir:

- korxonada (firma) darajasida: yalpi mahsulot, yalpi daromad, foyda.
- milliy iqtisodiyot darajasida: yalpi ichki mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad.

Ishlab chiqarish natijalarini tahlil qilishda umumiy, o'rtacha va qo'shilgan (keyingi) mahsulot tushunchalaridan foydalaniladi.

Umumiy mahsulot—resurslarning mavjud darajasida ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy hajmi.

O'rtacha mahsulot—iqtisodiy resurslarning har birligiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori. Bu ko'rsatkich mahsulotning umumiy hajmini alohida resurslar miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi.

Qo'shilgan mahsulot—qo'shimcha jalb qilingan iqtisodiy resurs, ya'ni ishchi kuchi va kapital hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

Ishlab chiqarish funksiyasi.

Ishlab chiqarish omillari va uning natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Bu bog'liqlikni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

$$M = \Sigma (K; U_k; E), \text{ bu yerda.}$$

M — mahsulot hajmi;

K; U_k ; E — qo'llanilgan kapital, ishchi kuchi va yer miqdori.

Ishlab chiqarish funksiyasi bir yoki bir necha omil miqdori o'zgariganda ishlab chiqarish hajmi qanday o'zgarishini ko'rsatadi.

4-§. Ishlab chiqarish samaradorligi, uning ko'rsatkichlari va omillari

Samaradorlik — bu «natija» va «xarajat»lar nisbatidir. Samaradorlik ishlab chiqarish pirovard natijasining qilingan resurs xarajatlarga nisbatining foizdagi ifodasi sifatida aniqlanadi.

Samaradorlikni asosiy ko'rsatkichlari.

Foyda normasi (P'), ya'ni olingan foydaning (P) iqtisodiy resurs xarajatlarga (U_x) nisbati

$$P' = \frac{P}{U_x} \cdot 100$$

Samaradorlik iqtisodiy resurslarning alohida turlari bo'yicha ham aniqlanadi.

Ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi – mehnat unumdorligi ko'rsatkichini xususiyatlaydi. Bu ko'rsatkich vaqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (M) bilan yoki mahsulot birligini ishlab chiqarishga ketgan vaqt (B) bilan aniqlanadi.

$$Y_* = \frac{M}{B} \text{ yoki } Y_* = \frac{B}{M}$$

Kapital samaradorligi – kapital unumdorligi (Uk) ko'rsatkichida aniqlanadi. U kapital birligi (K) hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (M) yoki bajarilgan ish (I) hajmini ko'rsatadi.

$$Y_* = \frac{M}{K} \text{ yoki } Y_* = \frac{U}{K}$$

Yerdan foydalanish samaradorligi – ekin maydonlari birligi hisobiga ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi ko'rsatkichida ifodalanadi. Alohida ekin turlari hosildorligi ham yerlardan foydalanish unumdorligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish samaradorligiga baho berishda mahsulotning **mehnat sig'imi**, **material sig'imi**, **energiya sig'imi** kabi ko'rsatkichlar ham tahlil qilinadi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari:

- • fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy qilish;
- • ishlab chiqarish intensivligini ta'minlaydigan texnologiyalarni qo'llash;
- • ishlab chiqarishni to'g'ri joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash;
- • iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini importning o'rini bosadigan va eksportga layoqatli tovarlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan tarzda o'zgartirish;
- • ishlab chiqaruvchilarning o'z mehnatlari natijalaridan manfaatdorligini ta'minlash;
- • tabiiy, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona, tejab-tergab foydalanish;
- • xodimlar malakasini oshirish va yetuk mutaxassislar tayyorlash.

3-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Iqtisodiy faoliyat turlaridan qaysi birining natijasi bo'lib moddiy-ashyoviy ko'rinishdagi ne'matlar chiqadi?

- a) xizmat ko'rsatishda;
- b) iste'molda;
- v) iqtisodiy nafli ish bajarishda;
- g) ishlab chiqarishda;
- d) ayriboshlashda.

2. Quyidagilarni qaysi biri ishlab chiqarishning moddiy omili hisoblanadi.

- a) xom ashyo;
- b) materiallar;
- v) bino va inshootlar, mashinalar, asbob va uskunalar;
- g) tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan qismi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

3. Iqtisodiy resurslar hisobiga olinadigan daromad turini aniqlang?

- a) ish haqi;
- b) foiz;
- v) renta;
- g) me'yoriy foyda;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

4. Mehnat unumdorligining oshishiga olib keladigan omillarni aniqlang.

- a) mehnat intensivligining oshishi;
- b) vaqtni tejash;
- v) yangi texnologiyani qo'llash;
- g) ishlab chiqarishga mexanik, avtomatik va kompyuter vositalarini qo'llash;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

5. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi?

- a) ishlab chiqarish natijalari sarf-xarajatlar bilan taqqoslanadi;
- b) ishlab chiqarish natijalari jonli mehnat sarflari bilan taqqoslanadi;
- v) ishlab chiqarish natijalari kapital sarflari bilan taqqoslanadi;
- g) ishlab chiqarish natijalari aylanma mablag'lar qiymati bilan taqqoslanadi;
- d) yuqoridagi barcha usuldan foydalanib.

6. Quyidagilardan qaysi biri mehnat kooperatsiyasini xususiyatlaydi?

- a) mehnatning alohida faoliyat turlariga ajralishi;

b) xodimlar iqtisodiy faoliyatining biron turini bajarishga yoki mahsulotning alohida turlarini ishlab chiqarishga moslashuvi;
v) mehnatning alohida va bir-biriga bog'liq turlarining uyushishi;
g) iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining bir-biriga bog'liqligini kuchayishi;

d) yuqoridagilarning barchasi.

7. Mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi?

a) mahsulot miqdorini uni ishlab chiqarishga ketgan ish vaqtiga nisbati bilan;

b) mahsulot miqdorini qilingan sarf-xarajatlarga nisbati bilan;

v) mahsulot miqdorini asosiy kapitalga taqqoslash yo'li bilan;

g) mahsulot miqdorini aylanma kapitalga taqqoslash yo'li bilan;

d) yuqoridagi barcha usullarda.

8. Iqtisodiy rivojlanish nima?

a) moddiy ne'matlar ishlab chiqarish;

b) ehtiyojlarni qondirish;

v) bozorga tovarlar yetkazib berish;

g) ishlab chiqarish jarayonining doimiy ravishda takrorlanishi;

d) ishlab chiqarish natijalarining to'xtovsiz ortib borishi.

9. Iqtisodiy resurslar nima?

a) tovar;

b) pul;

v) insonlar;

g) yer, yer osti va yer usti boyliklari, mehnat bilan yaratilgan barcha tovarlar va tadbirkorlik layoqati;

d) kapital, yer, ishchi kuchi, tadbirkorlik layoqati.

10. Samaradorlik nima?

a) iqtisodiyotning o'sishi;

b) sarflangan resurslarni tejash;

v) ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi;

g) iqtisodiy resurslarni tejash;

d) "natija" va "xarajat" nisbati.

11. Ijtimoiy ishlab chiqarish nima?

a) ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarish jarayoni;

b) iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish jarayoni;

v) ishchi kuchi ishlab chiqarish jarayoni;

g) jamiyat miqyosida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish jarayoni;

d) ijtimoiy munosabatlar ishlab chiqarish jarayoni.

4-MAVZU. TOVAR - PUL MUNOSABATLARI

1-§. Ijtimoiy xo'jalik shakllari va ularning belgilari

Ijtimoiy xo'jalik – insoniyat jamiyati taraqqiyotining alohida uzoq davrlari davomida ishlab chiqarishning maqsadini ancha to'liq ifodalab qoladigan, barqaror umumiy belgilarga ega bo'lgan va rivojlanishida ma'lum bir qonuniyatlarga asoslangan xo'jalik yuritishning barqaror turlaridir.

Ijtimoiy xo'jalik shakllari

→ **Natural xo'jalik** – bunda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning o'z iste'molini qondirish va ichki xo'jalik ehtiyojlari uchun ishlab chiqariladi.

→ **Tovar xo'jaligi** – bunda mahsulot bozor uchun, ayriboshlash orqali o'tib, boshqalarning ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko'zlab ishlab chiqariladi.

Natural xo'jalik belgilari:

- mehnat taqsimoti yetarlicha rivojlanmagan;
- ishlab chiqarish biqiq xususiyatga ega bo'lib, ishlab chiqaruvchilarning o'z ehtiyojlarini qondirishga bo'ysindirilgan;
- ishlab chiqarish bilan iste'mol o'zaro mos kelib, bevosita xo'jalik ichida bir-biri bilan bog'langan;
- mehnat tor doirada ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan;
- ishchi kuchining harakatchanligi cheklangan.

Tovar xo'jaligining belgilari:

- ijtimoiy mehnat taqsimotining mavjud bo'lishi;
- ishlab chiqaruvchilarning mulk egasi sifatida bir-biridan alohidalashuvi;
- mahsulotlarning bozor uchun erkin ayriboshlash maqsadida ishlab chiqarilishi.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti – bu mehnatning bir turidan boshqa turlarining ajralib chiqishi, ya'ni ishlab chiqaruvchilarning biron - bir mahsulot turini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

Xususiy mulkning paydo bo'lishi ishlab chiqaruvchilarning alohidalashuvini taqozo qilib qo'ygan.

2-§. Tovar va uning xususiyatlari

Tovar deb, ayirboshlash uchun yaratilgan va ma'lum bir nafillikka ega bo'lgan mahsulotga aytiladi.

Mahsulotning zaxiralarda turgan, ichki iste'mol uchun foydalaniladigan va qaytadan ishlab chiqarishga jalb qilinadigan qismi tovarga aylanmaydi.


Tovarning xususiyatlari

- **Almashuv qiymatiga ega** – bu bir tovar boshqasiga muayyan miqdoriy nisbatlarda ayirboshlanishida namoyon bo'ladi
- **Nafillikka ega** – bu tovarlarning kishilarning biror - bir ehtiyojini qondirishida ko'rinadi.

Tovarlarning almashuv qiymatini asoslashga qaratilgan nazariyalar

- **Qiymatning mehnat nazariyasi** – tovarlar ayirboshlanishi asosida ularning qiymati yotadi, qiymatning miqdori esa ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari, ya'ni ijtimoiy zaruriy ish vaqti bilan aniqlanadi deb hisoblaydi.
- **Qo'shimcha iste'mol qilingan tovarlar nafilligi nazariyasi** tarafdorlari G.Gossen (nemis iqtisodchisi)ning «nafillikning pasayib borish qonuni»ga asoslanib, ne'matlarning qiymati ularning naf keltirishi darajasiga qarab aniqlanadi deb hisoblaydi. Boshqacha qilib aytganda, bu yondashuvda bir turdagi tovar qiymati, uning eng zaruriy ehtiyojini qondiradigan keyingi birligining nafilligi bilan aniqlanadi.
- **A.Marshallning sintezlashtirilgan nazariyasiga** ko'ra, tovar qiymati teng darajada keyingi qo'shilgan tovar nafilligi, ishlab chiqarish xarajatlari hamda talab va taklif nisbati bilan aniqlanadi

3-§. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari



O'z qiymatini boshqa tovarda ifodalagan tovar **qiymatning nisbiy shaklini**, boshqa tovarlar qiymatini ifodalashga hizmat qiluvchi tovarlar esa **qiymatning ekvivalent shaklini** tashkil qiladi.

Qiymat shakllarining rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar:

- mehnat taqsimotining rivojlanishi va chuqurlashuvi;
- ishlab chiqarishning o'sishi;
- mahalliy va milliy bozorlarning vujudga kelishi.

Umumiy ekvivalentlik rolining olinga yuklatilish sabablari:

- sifat jihatdan bir xil o'lchamga keltirish mumkinligi;
- zanglamasligi va uzoq muddat saqlash mumkinligi;
- bo'linuvchanligi va yaxlit holatga keltirish mumkinligi;
- tabiatda nisbatan kamyoqligi;
- oz miqdordagi nodir metal qiymatining ancha yuqoriligi

Oltin pul – hamma tovarlar uchun umumiy ekvivalent rolini o'ynovchi maxsus tovardir.

Hozirgi zamon puli – umumko'pchilik tomonidan tan olingan va davlat tomonidan qonuniylashtirilgan ekvivalentlikning umumiy vositasidir.

Pulning vazifalari:

→ **Qiyamat o'lchovi vazifasi** – bunda tovar (xizmat)ning almashuv qiymati pul vositasida hisoblanadi va baholanadi. Shuningdek, iqtisodiy resurs sarf-xarajatlari va daromadlarni hisoblashning yagona o'lchov birligi ham puldir.

→ **Muomala vositasi vazifasi** – bunda pul tovarlar muomalasi jarayonida vositachi sifatida maydonga chiqadi.

→ **To'lov vositasi vazifasi** – tovarlar nasiyaga to'lov muddati kechiktirib sotilganda va turli xil to'lov majburiyatlari amalga oshirilganda pul bu vazifani bajaradi.

→ **Jamg'arish vazifasi** – pul muomaladan chiqarib olinganda bu vazifani bajaradi. Real ravishda oltin pul va oltin buyumlar boylik to'plash vazifasini bajaradi.

→ **Jahon puli vazifasi** – oltin pulga tegishli. Ba'zi nufuzli valyutalar ham ideal ravishda bu vazifani bajarishi mumkin.

Hozirgi zamon pul nazariyasida pul tushunchasi ikki ma'noda ishlatiladi:

→ • **Tez almashadigan (likvidli) pul** bu turli xil milliy valyutalarning tez almashadigan vosita sifatida har qanday sharoitda sotib olish layoqatiga ega ekanligini bildiradi.

→ • **Dekret (qonunchilik asosida belgilangan) pullar** tez almashinish layoqatiga ega emas.

4-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Tovar xo'jaligining vujudga kelish va rivojlanish shart-sharoitlari nimadan iborat?

- a) ijtimoiy mehnat taqsimoti;
- b) mulk egalarning alohidalashuvi;
- v) mahsulotning ayriboshlash uchun ishlab chiqarilishi;
- g) bozorlarning vujudga kelishi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

2. Tovar qiymati qanday mehnat sarflarini ifodalaydi?

- a) individual;
- b) zaruriy;
- v) qo'shimcha;
- g) ijtimoiy-zaruriy;
- d) umumiy.

3. Mehnat intensivligi nima?

- a) mehnatning aniq turi mahsuldorligi;
- b) mehnatning sarflanish tezligi va jadalligi;
- v) qo'llaniladigan mehnat hajmining ortishi;
- g) qo'llaniladigan mehnat hajmining qisqarishi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

4. Pulning qaysi vazifasi narxning shakllanishi bilan bog'liq?

- a) muomala vositasi;
- b) to'lov vositasi;
- v) qiymat o'lchovi;
- g) jamg'arma vositasi;
- d) jahon puli.

5. Natural xo'jaligi nima?

- a) jamiyat uchun mahsulotni natural holda ishlab chiqaruvchi xo'jalik;
- b) ishlab chiqarishni tashkil etish mashina va texnikalarga emas, qo'l mehnatiga asoslangan xo'jalik;
- v) bozorda sotish uchun emas, balki xo'jalikning o'z xodimlari va ishlab chiqaruvchilarning iste'moli uchun mahsulotlar ishlab chiqaradigan xo'jalik;
- g) aholi va tashkilotlarga sotish uchun iste'mol buyumlari ishlab chiqaruvchi xo'jalik;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

5. Pulning vazifasi nimadan iborat?

- a) pul iste'mol bilan ijtimoiy talabga bo'lgan investitsiya omili;

- b) ijtimoiy taklif va almashuv uchun zarur bo'lgan miqdorni belgilaydigan kapital qo'yilmalar omili;**
- v) daromadlar va xarajatlarni hisobga olish tizimi;**
- g) yagona hisob-kitob yurgazish, almashuv, jamg'arma, muomala, to'lov vositasi vazifasini bajaradi;**
- d) iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi.**

7. Pulning kutilmagan qadrsizlanishi (inflyatsiyasi)dan aholining qaysi qismi ko'proq jabr ko'radi?

- a) obligatsiya egalari;**
- b) ishlab chiqaruvchilar;**
- v) qarz oluvchilar;**
- g) dehqon (fermer) xo'jaligi;**
- d) doimiy daromad oluvchilar.**

8. Inflyatsiyadan kimlar yutishi mumkin?

- a) qat'iy belgilangan daromad (pensiya, nafaqa, stipendiya, ish haqi kabi)lar hisobiga yashovchi insonlar;**
- b) sug'urta egalari, o'z hayotlarini sug'urta qilganlar;**
- v) omonat kassalariga pul qo'yganlar;**
- g) qarz olganlar;**
- d) yuqoridagilarning barchasi.**

9. Pulning vazifalaridan qaysi biri uning muomaladan chiqarilishini taqozo qiladi?

- a) muomala vositasi;**
- b) qiymat o'lchov vositasi;**
- v) jahon puli;**
- g) to'lov vositasi;**
- d) boylik to'plash vositasi.**

10. Pulning aylanish tezligi nimaga ta'sir qiladi?

- a) tovarlar bahosiga;**
- b) muomala uchun zarur pul miqdoriga;**
- v) ayirboshlash kurslariga;**
- g) foiz stavkasiga;**
- d) sof eksport hajmiga.**

5-MAVZU. MULKCHILIK MUNOSABATLARI

1-§. Mulkchilik munosabatlarining mohiyati. Mulk obyektlari va subyektlari

Mulkchilik munosabatlari – bu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

→ **Mulkka egalik qilish** – mulkdorlik huquqining uning egasi qo'lida saqlanib turishini bildiradi va yaratilgan boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shaklini ifodalaydi.

→ **Mulkdan foydalanish** – bu mol - mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanishidir. Bundan daromad olish yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish maqsadi ko'zda tutiladi.

→ **Mulkni tasarruf etish** – bu mol - mulkning taqdirini mustaqil hal qilishdir. Bu mulk obyektlarini sotish, meros qoldirish, hadya qilish, ijaraga berish kabi yo'llar bilan ro'y beradi.

Mulkchilik ham iqtisodiy va ham huquqiy kategoriya hisoblanadi.

→ **Mol - mulk** ishlab chiqarish jarayonida foydalanilsa va o'z egasiga daromad keltirsa, yoki uning iste'molini qondirishga xizmat qilsa, u iqtisodiy munosabatlarni ifodalab, iqtisodiy kategoriya sifatida chiqadi.

→ **Mulk tadbirkorlik faoliyatining** biror-bir turi orqali ro'yobga chiqarilmasa, ya'ni iqtisodiy faoliyatda foydalanilmasa, bunda u «huquqiy» kategoriya sifatida qoladi.

Mulkchilikning huquqiy me'yorlarini quyidagilar belgilab beradi:

- ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan moddiy ne'matlarning muayyan shaxslarga tegishli ekanligi;
- mulk egalaringning qonun bilan himoyalnadigan vakolatlari;
- mol - mulkni himoya qilish usullari.

Mulkchilik munosabatlarning iqtisodiy mazmuni (egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish) bitta mulk shakli doirasida ham ro'yobga chiqarilish usullariga qarab farq qilishi mumkin:

• mulkchilik mehnatga majbur qilish yo'li bilan ro'yobga chiqarilsa quldor yoki feodal xususiy mulki vujudga keladi;

• mulkchilikni ro'yobga chiqarish mulkdorning o'z mehnati yordamida amalga oshirilsa, mayda tovar ishlab chiqarish uchun xarakterli xususiy mulk paydo bo'ladi;

• mulk ob'ekti yollanma mehnatga asoslanib harakatga keltirilsa, korporativ (kapitalistik) xususiy mulk paydo bo'ladi.

Mulk ob'ektlari – bu mulkka aylangan barcha boylik turlaridir. Bular :

- ishlab chiqarish vositalari;
- inson yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar;
- tabiiy boyliklar;
- intellektual boyliklar;
- insonning mehnat qilish qobiliyati bo'lgan ishchi kuchi va h.k.

Mulk sub'ekti – bu mulkiy munosabatlarning ishtiroklari, ya'ni mulk ob'ekti va ishlab chiqarish natijalarini o'zlashtirishda qatnashuvchilardir. Ular:

- • davlat (turli darajadagi hukumat va boshqaruv organlari);
- • korxonalar, xo'jalik birlashma (uyushma)lari, jamoat va boshqa tashkilotlar;
- • alohida kishilar va oilalar;
- • chet elliklar (xorijiy fuqaro, tashkilot va davlatlar).

2-§. Mulk shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni

“Bozor munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma xil shakllardagi mulk tashkil etadi”¹

Davlat mulki – bunda mulkka egalik qilish va uni tasarruf etish davlat ixtiyorida bo'ladi. Davlat mulkidan foydalanish huquqi ko'pincha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga beriladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2003, 11-bet.

Davlat mulki ikki darajada mavjud bo'ladi:

Respublika mulki – bular yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, respublika hukumati va boshqaruv tuzilmalari mol-mulki, davlatga qarashli madaniy va tarixiy boyliklar, byudjet mablag'lari, oltin zaxirasi, valyuta fondi va boshqa davlat fondlari.

Ma'muriy - hududiy tuzilmalar mulki – bular davlat hokimiyati mahalliy organlari mol-mulki, mahalliy byudjet mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo'jaligi korxonalari hamda boshqa mulkiy majmualar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari kabilar mol - mulki.

Davlat mulki quyidagi yo'llar bilan hosil bo'ladi:

- boshqa mulklarni milliyalashtirib, davlat qo'lga olish;
- davlat mablag'lari hisobidan korxonalar va boshqa obyektlar qurish;
- davlat korxonalar va tashkilotlarida investitsiyalarni amalga oshirish

Jamoa mulki

Bunda ishlab chiqarish vositalari va uning natijalarini o'zlashtirish jamoa - guruh holatiga ega bo'ladi.

Jamoa mulki turlari:

- kooperativlar mulki;
- ijara va jamoa korxonalari mulki;
- Aksionerlik jamiyatlari mulki;
- Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlar mulki;
- Jamoat va diniy tashkilotlar mulki.

Shaxsiy mulk

Fuqarolar mulki bo'lib, ularning shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Shaxsiy mulk manbalari:

- ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ishtirokidan oladigan daromadlari;
- o'z xo'jaligi (oilasi, dehqon)ni yuritish hisobiga oladigan daromadlari;
- aksiyadan keladigan dividend;
- foizli daromadlar;
- shaxsiy tadbirkorlikdan olinadigan daromad;
- transfert to'lovlari hisobiga kelib tushadigan mablag'lar.

Shaxsiy mulk obyektlari:

- uy va turar joylar;
- bog' va dala hovli;
- transport vositalari;
- uy-ro'zg'or va shaxsiy iste'mol buyumlari;
- xo'jalik faoliyati uchun kerakli ishlab chiqarish vositalari;
- xo'jalik faoliyati hisobiga olingan mahsulotlar;
- pul jamg'armalari.

Xususiy mulk

Ayrim tadbirkorlarga qarashli, yollanma mehnatga asoslangan va o'z egasiga foyda keltiruvchi mulkdir. Bunda mulkka egalik qilish va uni tasarruf etish huquqi xususiy shaxslarga tegishli bo'ladi.

Aralash mulk

Alohida olingan mulk obyektlari va uning natijalarini turli mulkdorlar tomonidan o'zlashtirishni bildiradi.

3-§. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish hamda uning O'zbekistondagi xususiyatlari

Mulkchilik masalasini hal qilish "... bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi"¹.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish – bu davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarini vujudga keltirishdir.

Xususiylashtirish – bu davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan alohida shaxslarga o'tishidir.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish yo'llari:

- davlat korxonasini hissadorlik jamiyatlariga aylantirish;
- davlat korxonasini jamoa mulkiga aylantirish;
- davlat mulkini cheklar (vaucher) bo'yicha fuqarolarga bepul berish;
- mulkni ayrim tadbirkor va ish boshqaruvchilarga ma'lum shartlar bo'yicha berish;
- chet elliklarga sotish yoki qarz hisobiga berish;
- davlat mol-mulkini kimoshdi savdosi orqali sotish.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish usullari:

- • pulli yoki haqini to'lash orqali;
- • pulsiz yoki tekin;
- • imtiyozli.

O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga bo'lgan yondashuvning xususiyatlari:

- dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi;
- maqsadli va manzilli (adresli) yo'naltirilganligi;
- to'loviligi.

O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning o'ziga xos jihatlari²:

- xususiylashtirish amalga oshirilayotgan islohotlarning ichki mantiqiga bo'ysundiriladi;
- xususiylashtirish jarayoni davlat tomonidan boshqariladi;
- xususiylashtirishni huquqiy-me'yoriy jihatda ta'minlashda qonunlarga rioya etiladi.

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.Z.T.: «O'zbekiston», 1996, 202-bet.

² Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: "O'zbekiston", 1999, 210-225-betlar.


O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish bosqichlari

- ➔ **1-bosqich. Kichik xususiyashtirish bosqichi (1992-1993 yillar)**
 - uy-joy fondi, savdo, umumiy ovqatlanish, mahalliy sanoat va xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik korxonalar xususiyashtirildi;
 - sanoat (yengil, mahalliy), transport, qurilish va boshqa tarmoqlardagi ayrim o'rta va yirik korxonalar ijara hamda jamoa korxonalariga, yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlariga aylantirildi.
- ➔ **2-bosqich (1994-1995 yillar):**
 - davlat mulkchiligidagi o'rta va yirik korxonalar hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi;
 - ochiq turdagi aksionerlik jamiyatlari vujudga keltirish va davlat mulkini tanlov asosida sotish amaliyoti joriy qilindi;
 - turli mulkchilikka asoslangan kichik va o'rta xususiy biznes korxonalari tashkil qilina boshlandi.
- ➔ **3-bosqich (yakunlovchi bosqich, 1996 yildan boshlab):**
 - davlat ro'yxatiga kirmagan barcha ob'ekt va korxonalar davlat tasarrufidan chiqarila boshlandi;
 - yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlari keng aholi qatlami, shu jumladan, chet el kapitali ishtirokini ta'minlaydigan ochiq turdagi jamiyatlarga aylantirilib borildi.

Hozirgi bosqichda iqtisodiyotni erkinlashtirish bilan birgalikda: "Xususiyashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, bu borada haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, bu jarayonga tarmoqning asosini tashkil qiluvchi korxonalarni jalb etish"¹ islohotlarni chuqurlashtirishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimlanishi (yil boshiga, % hisobida)

2000	2001	2002
89,6	87,7	90
10,4	12,3	10



¹ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «Yangi asr avlodi», 2001, 63-bet.

5-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Mulkiy munosabatlarning qaysi jihati to'liq mulkdorlik mavqeini ta'minlaydi?

- a) mulkka egalik qilish;
- b) mulkdan foydalanish;
- v) mulkni tasarruf qilish;
- g) iqtisodiy faoliyat natijasini tasarruf qilish;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

2. Iqtisodiy munosabatlar tizimida mulkchilikning o'rne qanday?

- a) boylik manbai;
- b) mulkchilik-ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xarakterini belgilaydi;
- v) mulkchilik–mulkka egalik munosabatini ifodalaydi;
- g) iste'molchi talabini qondirish vazifasini bajaradi;
- d) taqsimotning holatini belgilaydi.

3. Manfaatlar tizimi nima?

- a) ishlab chiqaruvchining manfaati;
- b) iste'molchining manfaati;
- v) shaxsiy, jamoa va davlat manfaati;
- g) iqtisodiy manfaat;
- d) resurs egalari manfaati.

4. Mulkning qaysi obyekti bevosita shaxsiy iste'mol qilinishi mumkin?

- a) ishlab chiqarish vositalari;
- b) tabiiy boyliklar;
- v) insonning mehnat qilish qobiliyati-ishchi kuchi;
- g) iste'mol tovarlari va xizmatlar;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

5. Quyidagilardan qaysi biri mulk subyekti tushunchasining mazmunini to'laroq ifodalaydi?

- a) mulk obyektini o'zlashtiruvchilar;
- b) mulkdan foydalanuvchilar;
- v) mulkiy munosabat ishtirokchilari;
- g) ishlab chiqaruvchilar;
- d) iste'molchilar.

6. Bozor munosabatlariga o'tish davrida Respublika iqtisodiyotining negizini qanday mulk tashkil qiladi?

- a) davlat mulki;
- b) jamoa mulki;

- v) aralash mulk;
- g) xususiy va shaxsiy mulk;
- d) xilma-xil mulk.

7. Mulkning quyidagi shakllaridan qaysi biri alohida olingan mulk obyektini va uning natijalari turli mulkdorlar ishtirokida o'zlashtirilishini bildiradi?

- a) xususiy;
- b) shaxsiy;
- v) jamoa;
- g) davlat;
- d) aralash.

8. Mulkning davlat tasarrufidan chiqarishning qaysi yo'li erkin tadbirkorlikka keng imkoniyatlar ochib berishni ko'zda tutadi?

- a) hissadorlik jamiyatiga aylantirish;
- b) jamoa mulkiga aylantirish;
- v) ijaraga berish;
- g) xususiyashtirish;
- d) chiqarilgan cheklar bo'yicha fuqarolarga bepul berish.


9. O'zbekistonda xususiyashtirishga yondashishning muhim xususiyati nimadan iborat?

- a) dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi;
- b) adresli yo'naltirilganligi;
- v) to'lovligi;
- g) aholi va mulkdor uchun kuchli ijtimoiy himoyalar hamda kafolatlar tizimining yaratilishi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

6-MAVZU. SOTSIAL-IQTISODIY TIZIMLAR VA ULARNI O'ZGARISHI


1-§. Sotsial-iqtisodiy tizim va uning tuzilishi

Iqtisodiy tizim – bu har bir davr va makonda amal qilinadigan iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari xo'jalik yuritish mexanizmi va iqtisodiy muassasalarning o'zaro uzviy bog'liqlik asosida tarkib topgan yaxlit iqtisodiy tuzilmasidir.



Ishlab chiqaruvchi kuchlar – ishlab chiqarish vositalari va ularni harakatga keltiruvchi kishilar birligidan iborat.

Kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni takror ishlab-chiqarish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy aloqa va munosabatlar iqtisodiy munosabatlar deyiladi.



Jamiyat taraqqiyotning har bir bosqichida ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy munosabatlar mavjud turining birligi **ishlab chiqarish usulini** tashkil qiladi.


Klassik yondashuvga ko'ra iqtisodiy munosabatlar bir vaqtda bazis ham hisoblanadi. Uning ustida mazkur iqtisodiy tizimga xos bo'lgan alohida siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, milliy, ahloqiy, oilaviy va boshqa ijtimoiy munosabatlar hamda tartibotlarning alohida turlari vujudga keladi. Ularning barchasi jamiyatning ustqumasini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish usuli bilan, jamiyat ustqurmasi **Ijtimoiy - Iqtisodiy formatsiya** deyiladi.


Texnologiya – bu ishlab chiqarish omillarini uyg'unlashtirishning ma'lum bir usullari

Iqtisodiy siyosati – bu davlatning iqtisodiyot, iqtisodiy munosabatlar va takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan chora-tadbirlari.

2-§. Jamiyat taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli hil yondashuvlar







Mehnat vositalari, materiallar, texnologiya, energiya, axborotlar va ishlab chiqarishni tashkil etish birgalikda ishlab chiqarishning texnologik usuli deyiladi.

Oddiy kooperatsiya – bu bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki bir xil ishni bajaruvchilar mehnatining oddiy shaklda (bir joyda) uyushtirilishi.

Manifaktura – oddiy kooperatsiyaga uyushgan ishlab chiqaruvchilar o'rtasida mehnat taqsimotining joriy qilinishi. Manifaktura qo'l mehnatiga va oddiy mehnat qurollariga asoslanadi.

Mashinalashgan ishlab chiqarish – monifakturaga uyushgan xodimlar mehnatiga mashinalarning joriy qilinishi natijasida vujudga keladi.

Industriyalashgan davrgacha bo'lgan (noindustrial) jamiyatning asosiy belgilari:

- aholining asosan qishloq xo'jaligi bilan bandligi;
- qo'l mehnatining ustuvorligi;
- mehnat taqsimotining juda sayozligi;
- natural xo'jalikning hukmronligi.


Industriyalashgan jamiyatning belgilari:

- ishlab chiqarishning mashinalarga asoslanganligi.
- sanoat, fan-texnika yutuqlari asosida rivojlanishi.
- shahar aholisining qishloq aholisiga nisbatan tezroq ko'payishi.

Yuqori darajada industriyalashgan (postindustrial) jamiyatning belgilari:

- xizmat ko'rsatish sohasining yuksak darajada rivojlanganligi;
- aholi asosiy qismi (60-70%) ning xizmat ko'rsatish sohasida bandligi;
- fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishi;
- iqtisodiyotning hamma sohasida axborot va hisoblash texnikalarining keng qo'llanilishi;
- iqtisodiy resurslarning barcha turlarini tejash imkonini beradigan yangi texnika va texnologiyalarning keng qo'llanilishi.

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bosqichlarining belgilari (Amerikalik iqtisodchi U.ROSTOning «Iqtisodiy o'sish bosqichlari» kitobiga asosan)



Ommaviy iste'mol jamiyati.

Keng iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ustuvorlikka ega bo'ladi.
Xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanadi.
Uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish yetakchi o'rin egallab boradi.

Mono va poliiqtisodiy tizimlarning belgilari.

Monoiqtisodiyot

Bir mulk shakli hukmron bo'lgan iqtisodiy tizim:

Davlat mulki hukmronlik qilgan jamiyatlar. Masalan, qadim sharqdagi «osiyocha» ishlab chiqarish usuli va sobiq sotsialistik mamlakatlar iqtisodiyoti.


Xususiy mulk monopoliyasiga asoslangan jamiyatlar. Masalan, bunday jamiyatlar quldorlik, feodalizm va sof kapitalizm sharoitida mavjud bo'lgan.

Poliiqtisodiyot

Alohida mulk shaklining ustuvorligini inkor qiladigan, asosini turli-tuman mulkchilik tashkil qiladigan iqtisodiy tizim. Masalan, aralash iqtisodiyot.

3-§. Iqtisodiy tizim modellari

Iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va uyg'unlashtirish mexanizmi hamda mulkchilikning ustuvor shakllariga ko'ra, iqtisodiy tizimning bir qator modellari ajratiladi.



Bozor iqtisodiyoti bosqichlari:

- I. Erkin raqobatga asoslangan klassik bozor iqtisodiyoti yoki sof kapitalizm.
- II. Hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti.

6-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Iqtisodiy tizim nima?

- a) jamiyatning asosiy yo'nalishidir;
- b) ishlab chiqarishni tashkil etish shaklidir;
- v) sotsial-iqtisodiy munosabatlar asosidir;
- g) ijtimoiy ishlab chiqarish shaklidir.
- d) yuqoridagilarning barchasi.

2. Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot qanday tizim?

- a) ishlab chiqarishni reja asosida yurgazishga asoslangan;
- b) yakka hokimlik asosida ishlab chiqarishni tashkil etishga asoslangan;
- v) davlat tomonidan ishlab chiqarish, taqsimot, almashuv va iste'mol ustidan to'liq nazorat o'rnatishga asoslangan;
- g) ishlab chiqarishni ijtimoiy mulk va ijtimoiy mehnat asosida tashkil etishga qaratilgan;
- d) bozor mexanizmi bilan boshqariladigan.

3. Aralash iqtisodiyot nima?

- a) turli mulk shakllariga va ularning teng huquqligiga asoslangan iqtisodiyot;
- b) ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot;
- v) xususiy va jamoa mulkiga asoslangan iqtisodiyot;
- g) shaxsiy va xususiy mulkka asoslangan iqtisodiyot;
- d) buyruqli va bozor iqtisodiyoti qo'shilish natijasida vujudga kelgan iqtisodiyot.

4. Iqtisodiy tizimning qaysi nusxasi (modeli)da xususiy mulkning ustunligi va boshqarishning bozor mexanizmi ta'minlanadi?

- a) buyruqli iqtisodiyot;
- b) sof kapitalizm;
- v) aralash iqtisodiyot;
- g) an'anaviy iqtisodiyot;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

5. Nima, qanday, kim uchun ishlab chiqarish muammolari qaysi tizimga aloqador?


- a) faqat totalitar tizimlarga yoki markazlashgan rejalashtirish hukmron bo'lgan jamiyatlarga;
- b) faqat bozor iqtisodiyotiga;
- v) faqat an'anaviy iqtisodiyotga;
- g) sotsial-iqtisodiy va siyosiy tashkil qilinishidan qat'i nazar har qanday jamiyatga;
- d) faqat aralash iqtisodiyotga.

II BO'LIM BOZOR IQTISODIYOTI


7-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTINING MOHIYATI VA BELGILARI

1-§. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari

Bozor iqtisodiyoti – bu xususiy mulk ustunligiga asoslangan hamda iqtisodiy jarayonlar bozor mexanizmi yordamida boshqariladigan va tartibga solinadigan iqtisodiyotdir.



Bozor mexanizmi – bozor iqtisodiyotining tabiati taqozo qiladigan, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va uyg'unlashtirishga qaratilgan iqtisodiy dastak hamda vositalardir.



Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari

- Xususiy mulk ustuvorligi.
- Tadbirkorlik va tanlash erkinligi.
- Iqtisodiy manfaatlarning rag'batlantirilishi.
- Davlatning cheklangan roli.

Barcha iqtisodiy tizimlarga xos va bozor iqtisodiyotida ham mavjud bo'lgan belgilar

- Ilg'or texnologiya va yangi texnikadan keng miqyosda foydalanish.
- Ishlab chiqarishning ixtisoslashishi va kooperatsiyasi.
- Pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy vositalarning qo'llanilishi.

2-§. Bozor iqtisodiyotining asosiy muammolari

muammolar
(5 savol)

Yechimlar
(5 javob)

1. Nima ishlab chiqarish zarur?

Foyda keltiradigan tovarlar ishlab chiqariladi, zarar keltiradiganlari ishlab chiqarilmaydi.

2. Qanday ishlab chiqarish zarur?

Yangi texnika va texnologiyaga asoslangan korxonalarda ishlab chiqarish zarur.

3. Qancha ishlab chiqarish zarur?

Yangi texnika va texnologiyaga asoslangan korxonalarda ishlab chiqarish zarur.

4. Kim uchun ishlab chiqarish zarur?

Aholining alohida tabaqalari (yuqori, o'rta va kam ta'minlanganlar) talabini hisobga olib ishlab chiqarish tashkil qilinadi.

5. Iqtisodiy tizim ro'y beradigan o'zgarishlarga moslasha oladimi?

Bunda mavjud iqtisodiy tizim bozor iqtisodiyoti muhitiga moslasha olishlik darajasi hisobga olinadi.

Foyda olish yoki zarar ko'rish mumkinligi korxonada umumiy daromadlarini barcha xarajatlari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

korxonada umumiy pul daromadi (tovar birligi bahosi sotiladigan tovar miqdori) ishlab chiqarishga

qilingan barcha xarajat (resurs birligi bahosi foydalanadigan miqdori.)

Foyda yoki zarar miqdori

3-§. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari

Afzalliklari

- Resurslarni samarali taqsimlaydi.
- Erkinlikni ta'minlaydi.
- Iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi.
- Xo'jasizlik va isrofgarchilikka barham beradi.

Kamchiliklari

- Raqobatning kuchsizlanishiga yo'l qo'yadi (korxonalarining qo'shilib ketishi, monopol tizimlarning vujudga kelishi, xufyona kelishuv, shafqatsiz raqobat va iqtisodiyotga davlat aralashuvi kuchayishi hamda texnika taraqqiyoti natijasida)
- Ijtimoiy iste'mol turidagi tovarlar bilan ta'minlash layoqatiga ega emas.
- Daromadlar tengsizligining kuchayishiga va aholining mulkiy tabaqalanishiga olib keladi.
- Tovarlarning hajmi va pul massasi o'rtasidagi ro'y berib turadigan nomuvofiqliklarni bartaraf eta olmaydi.
- Qayta tiklanmaydigan resurslarni asrash, tabiatni va atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni ta'minlashga layoqatli emas.
- Ish haqi bilan narxlar darajasi muqobilligini ta'minlay olmaydi.
- Tezda foyda keltirmaydigan yoki jamiyat va kelajak uchun muhim bo'lgan fundamental tadqiqotlar olib borish imkoniyatini cheklaydi.

7-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Quyidagi ta'riflardan qaysi biri bozor iqtisodiyotining mohiyatini to'laroq xarakterlaydi?

- a) mehnat taqsimoti mavjud bo'lgan va tovar ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyot;
- b) iqtisodiy subyektlar faoliyati erkin amalga oshiriladigan iqtisodiyot;
- v) tovar ishlab chiqarishga va uning bozor orqali pul vositasida ayirboshlashiga asoslangan, iqtisodiy subyektlarning erkin xatti-harakati bozor mexanizmi orqali muvofiqlashtiriladigan iqtisodiyot;
- g) urf-odat, udumlar va an'analariga asoslangan iqtisodiyot;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

2. Bozor iqtisodiyotining qaysi subyekti jamiyat a'zolarining ijtimoiy iste'mol xarakteridagi ne'matlar bilan ta'minlaydi?

- a) uy xo'jaliklari;
- b) tadbirkorlik sektori;
- v) davlat;
- g) chet ellik jismoniy va huquqiy shaxslar;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

3. Bozor iqtisodiyotining qaysi subyekti iqtisodiy resurslarni yetkazib beruvchi va pirovard mahsulotlar iste'molchisi hisoblanadi?

- a) uy xo'jaliklari;
- b) korxonalar;
- v) davlat tashkilotlari;
- g) davlat muassasalari;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

4. Quyidagilardan qaysi biri bozor iqtisodiyotini tartibga soluvchi mexanizmning tarkibiy qismini xarakterlaydi?

- a) narx, talab va taklif;
- b) raqobat, talab va taklif;
- v) narx, raqobat, talab va taklif;
- g) narx, soliq, raqobat, davlat ijtimoiy dasturlari;
- d) soliq, davlat ijtimoiy dasturlari, patent va litsenziyalash tizimi.

5. Bozor iqtisodiyotining muhim belgilarini nimalar tashkil qiladi?

- a) xususiy mulkchilik;
- b) tadbirkorlik va tanlash erkinligi;
- v) shaxsiy manfaatni rag'batlantirish;
- g) davlatning cheklangan roli;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

6. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning qaysi yo'lida oddiy tovar xo'jaligidan raqobatga asoslangan kapitalizm va undan madaniylashgan bozor iqtisodiyoti tomon boriladi?

- a) rivojlangan mamlakatlar (g'arbcha model) yo'li;
- b) sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'li;
- v) rivojlanayotgan mamlakatlar yo'li;
- g) an'anaviy iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar yo'li;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

7. Bozorning qaysi nusxasida iste'molchilar monopoli mavqega ega bo'ladi?

- a) sof raqobatli yoki erkin bozor;
- b) monopollashgan raqobatli bozor;
- v) monopoli raqobatli bozor;
- g) oligopolistik bozor;
- d) monopsonistik bozor.

8. Bozor mexanizmining tarkibiy qismlaridan qaysi biri tadbirkorlarga ishlab chiqarish hajmini o'zgartirish zarurligini, uy xo'jaliklariga esa mavjud daromadlariga qancha mahsulot iste'mol qilishi mumkinligini ko'rsatib beradi?

- a) raqobat;
- b) baholar;
- v) talab;
- g) taklif;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

9. Bozor iqtisodiyotida tanlash erkinliklaridan qaysi biri yuqori o'rinda turadi?

- a) ishlab chiqaruvchilarning;
- b) iste'molchining;
- v) resurslarni yetkazib beruvchilarning;
- g) xizmat ko'rsatuvchilarning;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

10. Bozor iqtisodiyotida "qancha ishlab chiqarish zarur"ligini nima belgilab beradi?

- a) iste'molchi;
- b) iqtisodiy resurslarning cheklanganligidan kelib chiquvchi ishlab chiqarish imkoniyati;
- v) ehtiyoj;
- g) davlat;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

11. Bozor iqtisodiyotida "nima ishlab chiqarish zarur?"

- a) ehtiyojni qondiradigan tovarlar;

- b) foyda keltirish mumkin bo'lgan tovarlar;**
- v) ijtimoiy iste'mol turidagi ne'matlar;**
- g) xizmatlar;**
- d) yuqoridagilarning barchasi.**

12. Quyidagi omillardan qaysi biri resurslarning mavjud hajmida ishlab chiqarish hajmini ko'paytirib borish imkonini beradi?

- a) texnika taraqqiyoti;**
- b) texnologiyaning takomillashishi;**
- v) resurslar sifatining ijobiy o'zgarishi;**
- g) mehnat unumdorligining o'sishi;**
- d) yuqoridagilarning barchasi.**

13. Bozor iqtisodiyotining salbiy tomoni nimada namoyon bo'ladi?

- a) resurslarni taqsimlashda;**
- b) erkinlikni ta'minlashda;**
- v) pul daromadlarining notekis taqsimlanishida;**
- g) davlatning iqtisodiyotda cheklangan rol o'ynashida;**
- d) yuqoridagilarning barchasi.**

14. Quyidagilardan qaysi biri bozor munosabatlarning mohiyatini to'laroq ifodalaydi?

- a) takror ishlab chiqarish munosabati;**
- b) moddiy ne'matlarini taqsimlash jarayonidagi munosabatlar;**
- v) tovar (xizmat)larni ayriboshlash jarayonida bozor subyektlari o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar;**
- g) ijtimoiy va siyosiy munosabatlar;**
- d) yuqoridagilarning barchasi.**

15. Bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuch nima?

- a) talab;**
- b) baho;**
- v) taklif;**
- g) raqobat;**
- d) yuqoridagilarning barchasi.**

16. Bozor iqtisodiyotida amal qilishning asosiy sharti (tamoyili) nima?

- a) tadbirkorlik va tanlash erkinligi;**
- b) daromadlarni bir tekis taqsimlash;**
- v) ishlab chiqarish vositalaridan keng foydalanish;**
- g) iqtisodiyot rivojlanishini barqarorlashtirish;**
- d) yuqoridagilarning barchasi.**

17. Quyidagi javoblarning qaysi biri ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni ifodalovchi bozorni bildiradi?

- a) tovarlar bozori;**

- b) xizmatlar bozori;**
- v) ishlab chiqarish omillari bozori;**
- g) yashirin bozor;**
- d) yuqoridagilarning barchasi.**

18. Bozor iqtisodiyotining asosiy afzalligi nimadan iborat?

- a) ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash;**
- b) aholini ijtimoiy himoyalash;**
- v) ishlab chiqarishning iqtisodiy resurslarini samarali taqsimlash;**
- g) iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlash;**
- d) ishlab chiqaruvchi va iste'molchini bog'lash.**

19. Qanday ishlab chiqarish lozimligi muammosi qaysi sharoitlarda bo'lmaydi?

- a) ishlab chiqarish resurslari hajmi qat'iy chegaralangan va aniq tovar ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan sharoitda;**
- b) iqtisodiyot ishlab chiqarish omillari unumdorligining pasayib borishi qonuni ta'sirida bo'lmasa;**
- v) ish kuchiga nisbatan ishlab chiqarish resurs zaxiralari cheklangan bo'lsa;**
- g) texnikaviy jihatdan rivojlanish past bo'lgan sharoitda;**
- d) yuqoridagilarning barchasida.**

20. Bozor xo'jaligi subyektlari:


- a) uy xo'jaliklari;**
- b) ishlab chiqarish korxonalarini;**
- v) chet elliklar;**
- g) davlat tashkilot va muassasalar;**
- d) barcha javoblar to'g'ri.**

21. Bozor iqtisodiyoti quyidagilarga kafolat beradi:

- a) tavarlarning yetarli ishlab chiqarilishiga;**
- b) resurslarning samarali taqsimlanishiga;**
- v) pulning qadrsizlanmasligiga;**
- g) inflyatsiyaning mavjud bo'lmasligiga;**
- d) ishsizlik darajasining oshmasligiga.**

8-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH DAVRI VA UNING O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIYATLARI

1-§. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari va uning O'zbekistondagi xususiyatlari



«Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar va turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tmishdagi iqtisodiyotni bir yoqlama beso'naqay rivojlantirishning muthish me'rosiga barham berishga asoslanadi»¹.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdan ko'zlanagn asosiy maqsad.

Ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi butunlay yangi iqtisodiy tizimning huquqiy negizlarini yaratishga, davlatchilikni shakllantirish va mustahkamlashga, eskicha fikrlash tarzlarini ongimizdan chiqarib tashlashga qaratiladi.

Ikkinchi bosqich bozor tizimlarining shakllanishi tugallanadigan davr bo'lib, soliq, moliya va pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirishni, butun tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishni ko'zda tutadi.²

¹I.A. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston», 1998, 101-102-betlar.

²I.A. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston», 1998, 185-331-betlar.

O'zbekistonda iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan beshta muhim tamoyil asos qilib olinadi.

• Iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish, uning ustunligini ta'minlash.

• O'tish davrida davlatning o'zi bosh islohatchi bo'lishi.

• Butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog'i, qonunlarning ustuvorligi ta'minlanishi.

• Bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

• Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida quyidagi ikki vazifani birdaniga hal etishni maqsad qilib qo'ydi.

• Tatalitar tizimning og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish.

• Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish¹.

¹Qarang: I.A. Karimov. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». T.: «O'zbekiston», 1998, 118-bet.

Iqtisodiy islohotlarning **birinchi bosqichida** isloh qilishning muhim yo'nalishlari:

- Iqtisodiy islohotlar huquqiy negizini barpo etish.
- Davlat mulkini xususiyashtirish va ko'p ukladli iqtisodiyot asoslarini shakllantirish.
- Qishloq xo'jaligini isloh qilishda agrar munosabatlarning yangi turini shakllantirish.
- Institutsional o'zgarishlar va boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimini tugatish.
- Narxlarni erkinlashtirish va bozor infratuzilmasini shakllantirish.
- Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va jahon iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilish.
- Ishonchli ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash.
- Xalqning ma'naviy-ruhiy tiklanishi.
- Iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy barqarorlikni ta'minlash.

Iqtisodiy islohatlar **ikkinchi bosqichining** ustuvor yo'nalishlari:

- Xususiyashtirish jarayonini chuqurlashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish.
- Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish.
- Milliy valyuta qadrini oshirish.
- Chuqur tarkibiy o'zgarishlarga erishish.

2-§. Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari

Iqtisodiy islohotlar – bu iqtisodiyotda bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari:

- Agrar islohotlar.
- Moliya-kredit va narx-navo islohoti.
- Boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish.
- Tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti.
- Ijtimoiy islohotlar.

Respublikada iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning asosiy yo'nalishlari:

- Davlat va iqtisodiy mustaqillikning huquqiy negizlarini yaratish, davlatning boshqarish qoidalarini tartibga soluvchi qonunlarni qabul qilish.
- Tizimdagi o'zgarishlarga, yangi iqtisodiy munosabatlarga va shu jumladan, mulkchilik munosabatlariga asos bo'ladigan qonunlar tizimini yaratish.
- Xo'jalik yuritishning va institutsional o'zgarishlarning bozor sharoitlariga mos keladigan yangi mexanizmini yaratishga qaratadigan qonunlar.

- Kishilarning konstitutsion va yuridik huquqlarini, ijtimoiy kafolatlarini va aholini ijtimoiy himoyalashni ta'minlaydigan qonunlar.
- O'zbekistonni xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida ta'riflovchi huquqiy me'yorlarni yaratish.

O'zbekiston qishloq xo'jaligini isloh qilishga ustuvorlik berilishining asosiy sabablari:

- Respublika iqtisodiyotida agrar soha ustunlikka egaligi, aholining ko'pchiligi qishloq xo'jaligida bandligi, iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan shu tarmoq ahvoriga bog'liqligi.
- Respublika sanoat potensialining yarmiga yaqinini tashkil qiladigan ko'pgina sanoat tarmoqlarini (paxta tozalash, to'qimachilik, yengil, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mashinasozligi va boshqalar) rivojlantirish istiqbollari bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liqligi.
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari (asosan paxta) valyuta resurslari respublika uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, texnika va texnologiya uskunalarini chetdan sotib olishni moliyaviy ta'minlashning asosiy manbaidir.
- Mustaqillik sharoitida qishloq xo'jaligining oziq-ovqat muammosini hal etishdagi ahamiyati ortib boradi.

Respublikada agrar islohotlarning asosiy yo'nalishlari:	→	• Yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarini isloh qilish.
	→	• Barcha davlat qishloq xo'jalik korxonalarini jamoa va mulkchilikning boshqa shakllariga asoslangan xo'jaliklarga aylantirish.
	→	• Shaxsiy tomorqalarni kengaytirish, yangi sug'oriladigan yerlarni shaxsiy xo'jaliklar va bog'-dala hovli, uchastkalarga ajratib berish.
	→	• Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish.
	→	• Qishloq xo'jaligida band bo'lgan ortiqcha ishchi kuchini bo'shatib olish va ularni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga jalb qilish
	→	• Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish.

Respublikada fermer xo'jaliklarining rivojlanish dinamikasi (har yilning yanvar oyi ma'lumotlari)

Ko'rsatkichlar	Yillar									
	1993	1994	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2002	2003
Soni, (ming)	1,9	5,9	7,5	14,2	18,1	21,4	23,0	43,8	55,4	72,4
Umumiy maydoni, (mingga)	14	45	71	193	265	413	447	889,9	1054,7	1591,5
Ekin maydonlari ulushi, (%)	0,3	1,1	1,7	4,6	6,6	9,7	11,3	23,6	19,0	22

<p>Moliya kredit sohasini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari.</p>	→	• Davlat byudjeti taqchilligini kamaytirib borish.
	→	• Byudjetdan beriladigan dotatsiyalar va subsidiyalarni bosqichma-bosqich qisqartirish.
	→	• O'ta muhim umumdavlat ehtiyojlari uchun byudjetdan mablag' ajratish.
	→	• Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya kreditlaridan keng foydalanish.
	→	• Banklarning mustaqilligini va pul muomalasi uchun javobgarligini oshirish.
	→	• Markaziy bank va keng tarmoqli tijorat banklaridan iborat ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish.

<p>Narx-navo islohotining asosiy yo'nalishlari.</p>	→	• Narxlarni erkinlashtirish.
	→	• Davlat xarid narhlarining amal qilish doirasini qisqartirish.
	→	• Ichki narxlarni jahon narxlariga muvofiqlashtirib borish.
	→	• Xom ashyo va mahsulot ayrim turlari narxi bilan aholi va korxonalar daromadlari o'rtasidagi mutanosiblikka erishish.
	→	• Xom ashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari narxlarini ishlab beruvchi va qayta ishlovchi tarmoqlar tovarlari narxlarini o'rtasidagi nomutanosiblikka barham berish.

Narxlarni erkinlashtirish bosqichlari

- I. 1992 yil – keng doiradagi ishlab chiqarish - texnik vositalari, ayrim turdagi xalq iste'mol mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning kelishilgan narxlari (tariflari)ga o'tildi.
Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doirada oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo'yildi
- II. 1993 yil – kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'lig'icha to'xtatildi.
- III. 1994 yil oktyabr-noyabr – xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxlari erkin qo'yib yuborildi.

Respublikada boshqarish tizimini isloh qilishning xususiyatlari

- Ko'plab markaziy iqtisodiy organlar va vazirliklar tugatildi yoki ularning faoliyati qayta qurildi hamda tugatilgan ma'muriy apparatlar o'miga yangi boshqarish bo'g'inlari shakllantirildi.
- Moliya vazirligi va markaziy bankning tarkibiy tuzilishi hamda vazifalari o'zgartirildi.
- Yagona soliq va bojxona siyosatini o'tkazish maqsadida Davlat Soliq va Bojxona qo'mitalari tuzildi.
- Amalga oshiriladigan iqtisodiy islohotlar natijalarini muvofiqlashtirib turish uchun Prezident huzurida iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha idoralararo kengash tashkil qilindi.
- Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqish hamda bu jarayonni amalga oshirish uchun Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tuzildi.
- Tashqi iqtisodiy aloqalarni muvofiqlashtirib turish uchun Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tuzildi.
- Tarmoq vazirliklari uyushmalarga, konsernlarga, korporatsiyalar va boshqa xo'jalik birlashmalariga aylantirildi.

- Faoliyatning ayrim sohalari (transport, turizm) da milliy kompaniyalar tuzildi;
- Boshqarishning mahalliy darajasida (viloyat, tuman, shahar) ijroiya - boshqaruv vazifalarini bajarish uchun hokimliklar tashkil qilindi.

Respublikada bozor infratuzilmasini vujudga keltirishning asosiy yo'nalishlari.

- **Tovar-xom ashyo birjasi tizimini rivojlantirish.** Bu o'z navbatida brokerlik va dilerlik idoralari, savdo uylari, vositachi firmalar paydo bo'lishga olib keldi.
- **Kapital bozorining ishini ta'minlaydigan tuzilmalarini vujudga keltirish.** Bu yo'nalishda kredit resurslari bozori, valyuta bozori va davlatga qarashli bo'lmagan sug'urta kompaniyalari paydo bo'ldi.
- **Mehnat bozorini shakllantirish.** Bu sohada 240 dan ortiq mehnat birjasini o'z ichiga oluvchi katta tizim vujudga keldi.
- **Auditorlik, yuridik va konsalting firmalari tizimini qaror toptirish.**

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan tadbirlar va ularning asosiy yo'nalishlari.

- Narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish.
- Respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish.
- Islohotlarning dastlabki bosqichida aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va keyingi bosqichlarida ularning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlash.

3-§. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish vazifalari

Makroiqtisodiy barqarorlik – bu eng avvalo, makroiqtisodiyot darajasida muvozanatlikni ta'minlash, ishlab chiqarishning keskin pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslik, pul qadrsizlanishining oldini olish hamda to'lov balansini bir me'yorda saqlashga qaratilgan siyosatdir.

Barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirishga qaratilgan yondashuvlar.

I. Monetar yondashuv – pulning qadrsizlanish darajasini pasaytirib turishga, pul massasini hamda to'lovga qodir bo'lgan jami talabni keskin kamaytirish hisobiga pul muomalasini barqarorlashtirishga asoslanadi. **Kamchiligi:** ishlab chiqarishning jismoniy hajmi kamayishiga va investitsion faollikning susayishiga olib keladi.

II. Ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yordamlashish, iqtisodiyotda nomutanosibliklarga barham berishga asoslangan siyosat. **Kamchiligi:** qattiq moliyaviy va pul-kredit siyosatini tovar bilan qoplashning iloji bo'lmagan ortiqcha talablarni cheklash bo'yicha tadbirlar bilan bog'lab olib boriladi.¹

¹ O'zbekistonda o'tish davrida makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda ikkinchi yondashuvga ustuvorlik beriladi va u monetar siyosat bilan qo'shib olib boriladi.

O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy mezonlari:

- ishlab chiqarish hajmini qisqarishiga yo'l qo'ymaslik;
- ustuvor tarmoqlarda ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirish va rag'batlantirish;
- davlat byudjeti va korxonalar moliyaviy ahvolining barqarorligini ta'minlash;
- pulning qadrsizlanishini to'xtatish;
- to'lov balansi va davlat valyuta zaxiralarining holatini yaxshilash;
- muvozanatlashtirilgan ijtimoiy siyosat asosida aholi turmush darajasini yaxshilash.

Respublikada o'tish davrida milliy valyuta barqarorligini ta'minlash vazifalari:

- I. Milliy valyutaning tovarlar bilan barqaror ta'minlashiga erishish.
- II. Yetarlicha barqaror valyuta zaxiralariga ega bo'lish.
- III. Ishlab topilgan har bir so'mni qadrlash va halq xo'jaligiga sarflangan har bir so'mning foyda bilan qaytishiga erishish.
- IV. Pul qadrsizlanishiga, inflyatsiyaga qarshi puxta o'ylangan siyosat o'tkazish.

4-§. O'zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish vazifalari

Iqtisodiyot sohasida erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish vazifalari.

- Xo'jalik yurituvchi subyektlar erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirish:
 - davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini qisqartirish;
 - xususiy biznesga ko'proq erkinlik berish;
 - muassasaviy o'zgarishlarni amalga oshirish, moliya-bank tizimini isloh etishni chuqurlashtirish va rivojlangan bozor infratuzilmasini yaratish.

- Xususiylashtirish jarayonini chuqurlashtirish va amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish.

- Iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb qilish uchun shart-sharoitlar, kafolat va iqtisodiy omillarni kuchaytirish.

- Kichik va o'rta biznesning iqtisodiy taraqqiyotda ustuvor o'rin olishiga erishish;

- Mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirish va iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyasini ta'minlash.

- Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish.

O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari:

- **Birinchi ustuvor yo'nalish** – mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlab borish.
- **Ikkinchi ustuvor yo'nalish** –mamlakatda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatning huquqiy yahlitligini, tinchlik va osoyishtaligini ta'minlash.
- **Uchinchi ustuvor yo'nalish** –bozor islohatlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish va erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etib borish.
- **To'rtinchi ustuvor yo'nalish** –inson huquqlari va erkinliklarini, shuningdek, oshkoralikni amaliy hayotga joriy qilish.
- **Beshinchi ustuvor yo'nalish** –nodavlat va jamoat tashkilotlarning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirish.
- **Oltinchi ustuvor yo'nalish** –sud-huquq sohasini isloh qilishni davom ettirish.
- **Yettinchi ustuvor yo'nalish** –kuchli ijtimoiy siyosat olib borish.

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy natijalari (Oldingi yilga nisbatan o'sish % hisobida)

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	1999	2000	2001	2002	2003
1. YIM	4,3	4,0	4,5	4,2	4,4
2. Sanoat mahsuloti	6,1	6,4	8,1	8,5	6,2
3. Qishloq xo'jalik mahsulotlari	5,9	3,2	4,5	6,1	...
4. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	...	7,7	10,9	11,8	...

8-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga asos qilib olingan tamoyillardan qaysi biri ijtimoiy muammolar keskinlashuvining oldini olishga qaratilgan?

- a) iqtisodiyotni mafkuradan holi qilish;
- b) davlatning bosh islohotchi bo'lishi;
- v) qonunlarning ustuvorligi;
- g) ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarini oldindan amalga oshirish;
- d) bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish.

2. O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishni nima taqozo qiladi?

- a) huquqiy negizni shakllantirish;
- b) bozor infratuzilmasini yaratish;
- v) yangi sharoitda ishlay oladigan kadrlarni tayyorlash;
- g) barqarorlikni ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishga erishish;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

3. Respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida isloh qilishning muhim yo'nalishini aniqlang:

- a) o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy bazasini mustahkamlash;
- b) iqtisodiyotning barcha sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;
- v) ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish;
- g) moliyaviy ahvolning barqarorligini ta'minlash;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

4. Respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tishning ikkinchi bosqichida amalga oshirish ko'zda tutilgan qaysi vazifa raqobatchilik muhitida vujudga keltirishga qaratiladi?

- a) ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;
- b) davlat mulkini xususiylashtirish asosida nodavlat sektorining ulushini oshirish;
- v) iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirish;
- g) milliy valyuta qadrini oshirish;
- d) yuqoridagilarning barchasi;

5. Iqtisodiy islohotlar nima?

- a) ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar;

- b) iqtisodiyotda bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar;**
v) siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar;
g) ma'naviy va maishiy o'zgarishlarga qaratilgan tadbirlar;
d) yuqoridagilarning barchasi.
6. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlaridan qaysi biri bozor iqtisodiyotiga o'tishning shart-sharoitini vujudga keltiradi?
a) mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
b) boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
v) moliya-kredit va narx-navo islohoti;
g) agrar islohotlar;
d) yuqoridagilarning barchasi.
7. Respublikada agrar islohotlarning negizini nima tashkil qiladi?
a) yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarini isloh qilish;
b) davlat korxonalarini jamoa xo'jaliklariga va mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish;
v) shaxsiy tomorqalarni kengaytirish;
g) ishlab chiqarish tuzilishini takomillashtirish;
d) yuqoridagilarning barchasi.
8. Respublikada bozor infratuzilmasini vujudga keltirishning qaysi yo'nlashi brokerlik va dilerlik idoralari, vositachi firmalar paydo bo'lishiga olib keladi?
a) tovar birjasi tizimini rivojlantirish;
b) fond birjalari tizimini rivojlantirish;
v) xom ashyo birjasi tizimini rivojlantirish;
g) valyuta birjasi tizimini rivojlantirish;
d) yuqoridagilarning barchasi.
9. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishda nimaga ustunlik beriladi?
a) iste'molga;
b) raqobatga;
v) chetdan qarz olishga;
g) investitsiyalarni ko'paytirishga;
d) iqtisodiy erkinlikni kengaytirishga.
10. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda islohotlar qachon sezilarli samara beradi?
a) milliy valyuta muomalaga kiritilganda;
b) chinakam mulkdorlar sinfi shakllanganda;
v) mulk davlat tasarrufidan chiqarilganda;
g) ijtimoiy himoya tizimi yaratilganda;
d) makroiqtisodiy barqarorlikka erishilganda.

11. Respublikada bozor munosabatlari qaror topishining asosiy belgisi nimada namoyon bo'ladi?

- a) inson manfaatlarining muhofaza qilinishida;
- b) ko'p ukladli iqtisodiy tizim va mulkdorlar sinfining shakllanishida;
- v) bozor infratuzilmasi shakllanishida
- g) a) va b) to'g'ri;
- d) b) va v) to'g'ri.

12. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning qaysi tamoyilli bozor munosabatlariga o'tishni izchilligini ta'minlaydi?

- a) iqtisodiyotning mavfuradan ustunligi;
- b) davlatning bosh islohatchi bo'lishi;
- v) qonunlarga asoslanish;
- g) aholini ijtimoiy himoyalash;
- d) bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish.

13. Davlat mulkini xususiyashtirishning dastlabki bosqichida qanday vazifa amalga oshirildi?

- a) ommaviy xususiyashtirish amalga oshirildi;
- b) kichik xususiyashtirish amalga oshirildi;
- v) chek vositasida xususiyashtirish amalga oshirildi;
- g) ko'p ukladli iqtisodiyot real shakllandi;
- d) xususiy mulk hukmron shaklga aylandi.

14. Agar islohotlarning negizini nima tashkil qiladi?

- a) qishloqda boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- b) yerga mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirish;
- v) ishsizlikni bartaraf etish;
- g) xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish;
- d) qishloq aholisining ijtimoiy kafolatlarini mustahkamlash.

15. Respublikada narxlar qaysi davrdan boshlab erkinlashtirila boshladi?

- a) 1991 yildan;
- b) 1992 yildan;
- v) 1993 yildan;
- g) 1994 yildan;
- d) 1995 yildan.

16. Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichidagi asosiy iqtisodiy vazifani aniqlang:

- a) davlat mulkini xususiyashtirishni oxiriga yetkazish;
- b) makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;
- v) milliy valyutani mustahkamlash;
- g) iqtisodiyot tuzilishining tubdan o'zgarishi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

9-MAVZU. BOZOR VA UNING TUZILISHI

1-§. Bozor va uning vazifalari

Bozor– bu ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) bilan iste'molchi (xaridor) ni bir-biri bilan bog'laydigan, ayirboshlash jarayoniga xizmat qiladigan tartiblar, mexanizmlar va muassasaviy tuzilmalardir.

Bozorning vazifalari

- Ishlab chiqaruvchi, resurs egalari va iste'molchilarni bog'lash asosida tovarlar, xizmatlar hamda iqtisodiy resurslarning ayirboshlanishini ta'minlash.

- Ishlab chiqarishning uzluksiz takrorlanib turishiga yordam berish.

- Iqtisodiy resurslarni tarmoqlar, sohalar va korxonalar o'rtasida taqsimlash hamda qayta taqsimlash.

- Iqtisodiyotni tartibga solib turish.

Bozor turli tuman ko'rinishlarga ega bo'lib, uning eng oddiy turlari tijorat do'konlari, avtomobillarga yog' quyish shaxobchalari, qishoq xo'jalik mahsulotlari bozori kabilar bo'lsa, yuqori darajada tashkil qilingan hamda ancha murakkab shakllari birjalar, auksionlar va chet el valyutalari bozori hisoblanadi.

2-§. Bozorning turlari va tarkibi

Bozorning turkumlanish mezonlari

I. Ayriboshlashga chiqarilgan oldi-soldi obyektining turiga ko'ra

- Iste'mol tovarlari va xizmatlari bozori (oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari hamda xizmatlar bozori).
- Ishlab chiqarish omillari bozori (ishlab chiqarish vositalari, xom ashyo va materiallar hamda ishchi kuchi bozori).
- Ko'chmas mulk bozori (yer va uy-joy bozori).
- Moliya bozori (qarz majburiyatlari, kapital va valyuta bozori).
- Intellektual tovarlar va nou xau bozori.

II. Raqobatning yetuklilik darajasi yoki bozor subyektlarining mavqeiga ko'ra

- Sof raqobatli bozor
- Sof monopolistik bozor
- Monopolistik raqobatli bozor.
- Oligopolistik bozor.

III. Hududiy qamrov darajasiga ko'ra

- Mahalliy bozorlar.
- Milliy bozorlar.
- Jahon bozori.

IV. Savdo bitimlarini amalga oshirish tartibiga ko'ra

- Chakana savdo bozorlari.
- Ulgurji savdo bozorlari.


V. Mulk shakllariga ko'ra

- Davlat savdosi.
- Kooperativ savdo.
- Dehqon bozori.

VI. Bozor aloqalarining qonuniylik darajasiga ko'ra

- Qonuniy amal qiladigan bozor
- Xufyona amal qiladigan bozor.


Moliya bozorining tuzilishi
(Moliyaviy bitimlarning xususiyatiga ko'ra)



Qarz majburiyatlari bozorida olingan pul shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladi.

Kapital bozorida qo'yilgan puldan daromad olishi huquqi sotiladi va sotib olinadi.

Qimmatli qog'ozlarning **birlamchi bozorida** ularning yangidan chiqarilgan nusxalari sotiladi va sotib olinadi, **ikkilamchi bozorida** oldin chiqarilganlari harakatda bo'ladi.



Bozor segmenti – bu bozorni alohida belgilariga qarab bo'g'inlarga ajratish. Unga ikkita sabab asos bo'ladi:

→ • Iste'molchilarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatidan tabaqalanishi natijasida ular talabining o'zaro farqlanishi.

→ • Alohida tovar ishlab chiqarishning tabaqalashishi.

Bozorni segmentlarga ajratish mezonlari:

I. Aholining xarid qilish layoqati darajasi, ya'ni to'lovga layoqatligi.

II. Hududiy va ijtimoiy demografik mezonlar (aholining soni, uning yosh tarkibi, jinsi, zichligi, tabiiy iqlim sharoiti va h.k.).

3-§. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari

Bozor infratuzilmasi – bu bozor aloqalarini o'rnatish va ularning bir maromda amal qilishini ta'minlashga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar.

Bozor infratuzilmasining turkumlanishi

I. **Ishlab chiqarish tipidagi muassasalar:** ombor xo'jaligi, saqlash va uzatish moslamalari, transport hamda aloqa xizmati.

II. **Ayirboshlash jarayoniga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar:** tijorat do'konlari, savdo uylari, supermarketlar, savdo agentliklari, birjalar, auksionlar va boshqa savdo-sotiq muassasalari.

III. **Moliya kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasalar:** kredit-bank muassasalari, sug'urta va moliya kompaniyalari, soliq idoralari.

IV. Ijtimoiy sohaga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar: uy-joy va kommunal xizmati idoralari, mehnat birjasi va agentliklari.

V. Axborot xizmati idoralari: auditorlik firmalari, huquqiy maslahatxonalar, axborot agentliklari.

Tovar birjasi – namuna yoki andozalar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo-sotiq ishlarini o'tkazuvchi tijorat muassasasi.

Universal birjalar – har xil tovarlar bilan savdo-sotiq qiladi.

Ixtisoslashgan birjalarda – ayrim turdagi yoki bir guruhga kiruvchi tovarlar sotiladi.

Broker (makler)lar – bu tovar, fond va valyuta birjalarida oldi-sotdi bitimlarini tuzishda vositachilik qiladigan shaxs yoki maxsus firmalar.

Auksionlar – alohida xususiyatlarga ega bo'lgan tovarlarni sotish uchun muayyan joylarda tashkil qilingan maxsus kim oshdi savdo muassasasi.

Savdo firmalari – tijorat ishini yurituvchi ulgurji va chakana savdo korxonalaridir. Ulgurji savdo firmalari tovarlarni o'z mulkiga sotib olib, keyin iste'molchilarga sotadi. Chakana savdo korxonalari mustaqil do'konlar, maxsus savdo shaxobchalari va supermarketlardan iborat bo'ladi.

Supermarket – bu xaridorlarning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tartibiga asoslangan keng tarmoqli savdo korxonalarini.

Auditorlik firmalar – korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirib va ular hisobotini ekspertizadan o'tkazib beruvchi mustaqil axborot xizmati muassasalaridir.

9-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Sof iqtisodiy ma'noda "bozor" tushunchasi nimani anglatadi?
 - a) sotuvchi va xaridorlar to'planib, ayrboshlashni amalga oshiradigan joyini;
 - b) bozor subyektlari iqtisodiy natijalarining amalga oshirishni;
 - v) ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) va iste'molchi (xaridor)larning tovarlarini ayrboshlash xususida harakatini o'zaro kelishtiruvchi mexanizmlar, tartiblar va infrastrukturaviy tuzilmalar tizimini;
 - g) alohida tovarlar taklifi va ularga bo'lgan talablarni muvofiqlashtiruvchi mexanizmlarni;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
2. Bozor qanday ko'rinishlarda chiqadi?
 - a) oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlari do'koni;
 - b) sanoat tovarlari magazini va tijoratchilar savdo shahobchalarini;
 - v) fond, xom-ashyo va tovarlar birjalari;
 - g) auksionlar va chet el valyutalari bozori;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
3. Bozorning quyidagi turlaridan qaysi birida sotuvchi va xaridorlar bevosita ayrboshlash orqali bog'lanmaydi?
 - a) oziq-ovqat mahsulotlari bozorida;
 - b) sanoat tovarlari magazinida;
 - v) tovar va xom-ashyo auksionlarida;
 - g) avtomobillarga yog' quyish shahobchalarida;
 - d) yuqoridagilarning barchasida.
4. Bozorning qaysi turida sotuvchi va xaridorlar bir-biri bilan aksiya, obligatsiya kabi qimmatli qog'ozlar orqali bog'lanadi?
 - a) chet el valyutalari bozorida;
 - b) xom ashyo birjalarida;
 - v) kapital (fond) bozorida;
 - g) resurslar bozorida;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
5. Bozorning qaysi vazifasida uning vositachilik roli nisbatan to'laroq namoyon bo'ladi?
 - a) ishlab chiqarishning takrorlanib turishiga yordam berish vazifasi;
 - b) resurslarni tarmoqlar va korxonlar o'rtasida taqsimlash vazifasi;
 - v) ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchini bog'lash vazifasi;
 - g) iqtisodiyotni tartibga solish vazifasi;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
6. Bozorni turkumlashda qanday mezon asos qilib olinadi?

- a) ayirboshlashga chiqariladigan tovar va xizmatlar turi (bozor obyektlari);
b) bozorli vaziyatning yetuklik darajasi (bozor subyektlari mavqei);
v) ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchini bog'lash vazifasi;
g) iqtisodiyotni tartibga solish vazifasi;
d) yuqoridagilarning barchasi.
7. Quyidagilardan qaysi biri moliya bozorining tarkibiy qismi hisoblanadi?
a) qarz majburiyatlari bozori;
b) kapital bozori;
v) ssuda kapital bozori;
g) qimmatli qog'ozlar bozori;
d) yuqoridagilarning barchasi.
8. Bozorning qaysi turida ishlab chiqarishning pirovard natijalari ayirboshlash qilindi?
a) iste'molchilik tovarlari bozori;
b) ishchi kuchi (mehnat) bozori;
v) kapital bozori;
g) tabiiy resurslar (yer) bozori;
d) yuqoridagilarning barchasi.
9. Quyidagilarning qaysi biri chakana savdo shahobchalarining tarkibiy qismi hisoblanadi?
a) ixtisoslashgan va universal magazinlar;
b) supermarketlar;
v) xizmat ko'rsatish uylari;
g) dehqon bozori;
d) yuqoridagilarning barchasi.
10. Aqliy mehnat mahsuli hisoblangan intellektual tovarlar bozorida ayirboshlash obyekti bo'lib nima chiqadi?
a) ilmiy g'oyalar;
b) san'at va adabiyot asarlari;
v) ilmiy axborotlar;
g) ilmiy-texnikaviy ishlamalar;
d) yuqoridagilarning barchasi.
11. Qaysi bozorda tovarlar ishlab chiqarish iste'moli, ya'ni unumli iste'mol uchun ayirboshlash qilinadi?
a) iste'molchilik tovarlari bozorida;
b) intellektual tovarlar bozorida;
v) ishlab chiqarish vositalari bozorida;
g) moliya bozorida;
d) yuqoridagilarning barchasi.

12. Mehnat birjasi (ishchi kuchi bozori) qanday vazifani bajaradi?

- a) **ishsizlarning ishga joylashishida vositachilik xizmatini ko'rsatadi;**
- b) **ishchi kuchiga talab va uning taklifini o'rganadi;**
- v) **turli xil kasblar to'g'risida ma'lumotlar beradi;**
- g) **ishsizlarni va ish joyini o'zgartirishni xohlovchilarni yangi kasbga yo'naltiradi;**
- d) **yuqoridagilarning barchasi.**

13. Bozorda juda ko'p sotuvchilar va xaridorlar mavjud bo'lib, ulardan hech biri bozor baholariga o'z ta'sirini o'tkaza olmasa hamda bozorga kirish uchun hech qanday to'siqlar bo'lmasa, bu qanday bozorni ifodalaydi?

- a) **sof raqobatli bozor;**
- b) **sof monopolistik bozor;**
- v) **monopolistik raqobatli bozor;**
- g) **oligopolistik bozor;**
- d) **yuqoridagilarning barasi.**

14. Moliya bozorining qaysi turida qo'yilgan puldan daromad olish huquqi sotilmaydi va sotib olinmaydi?

- a) **kapital bozorida;**
- b) **ssuda kapital bozorida;**
- v) **qarz majburiyatlari bozorida;**
- g) **qimmatli qog'ozlar bozorida;**
- d) **yuqoridagilarning barchasi.**

15. Qaysi bozorda broker va dilerlar vositachilik qiladi?

- a) **qarz majburiyatlari bozorida;**
- b) **ishlab chiqarish vositalari bozorida;**
- v) **qimmatli qog'ozlar bozorida;**
- g) **ishchi kuchi (mehnat) bozorida;**
- d) **yuqoridagilarning barchasi.**

16. Moliyaviy vositachilardan qaysi biri qimmatli qog'ozlarni o'z mulkchiligiga sotib olib, keyin ularni qayta sotadi?

- a) **brokerlar;**
- b) **treyderlar;**
- v) **dilerlar;**
- g) **birja a'zolari;**
- d) **yuqoridagilarning barchasi.**

17. Uyushgan moliyaviy bozorlar (birja)da qimmatli qog'ozlarning qanday turlari muomalada bo'ladi?

- a) **barcha turlar;**

b) aniq turlari;

v) ro'yxatga kirgan yirik va ishonchli kompaniyalarning cheklangan miqdoridagi qimmatli qog'ozlari (aksiyalari);

g) obligatsiyalarning barcha turlari;

d) yuqoridagilarning barchasi.

18. Korxonalar tomonidan yetkazib beruvchilarga tovarlar uchun aniq vaqtlarda haq to'lash shartlari ko'rsatib yozilgan chek qanday nom bilan ataladi?

a) tijorat qog'ozlari;

b) qo'yimalarning muomaladagi sertifikatlari;

v) bank veksellari;

g) xazina majburiyatlari;

d) yuqoridagilarning barchasi.

19. Quyidagilardan qaysi biri bozor infrastrukturasi bevosita tovarlarni ayirboshlash jarayoniga xizmat qiluvchi muassasalariga kiradi?

a) ombor xo'jaligi, transport va aloqa tarmoqlari;

b) bank tipidagi muassasalar, sug'urta va moliya kompaniyalari, soliq idoralari;

v) birjalar, auksionlar, savdo uylari va agentliklari;

g) axborot xizmati va auditorlik idoralari, mehnat birjalari;

d) yuqoridagilarning barchasi.

20. Alohida xususiyatlarga ega bo'lgan tovarlarni sotish uchun muayyan joylarda tashkil qilingan maxsus kim oshdi savdo muassasalari qanday nom bilan ataladi?

a) birjalar;

b) savdo yarmarkalari;

v) auksionlar;

g) supermarketlar;

d) yuqoridagi barcha nomlar bilan..

21. Tovar, fond va valyuta birjalarida oldi-sotdi bitmlarni tuzishda vositachilik qiyadigan shaxs yoki maxsus firmalar qanday nom bilan ataladi?

a) auksion;

b) treyder;

v) broker;

g) diler;

d) yuqoridagi barcha nomlar bilan.

22. Xaridorlarning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishiga asoslangan keng tarmoqli savdo korxonasi qanday nom bilan ataladi?

a) savdo yarmarkasi;

b) savdo agentliklari;

v) savdo uylari;

g) supermarketlar;

d) yuqoridagi barcha nom bilan.

23. Chekli, jamg'armali va muddatli hisoblar ochish yo'li bilan mablag'larni jalb qiluvchi moliyaviy muassasalar qanday nom bilan ataladi?

a) shartnomali;

b) jamg'armali;

v) depozitli;

g) investitsion;

d) yuqoridagi barcha nom bilan.

24. Alohida jismoniy shaxslar va korxonalar mol-mulkini ishonch qog'ozi bo'yicha boshqaradigan muassasalar qanday nom bilan ataladi?

a) investitsion kompaniyalar;

b) konsalting firmalar;

v) trust-fondlar;

g) sug'urta kompaniyalar;

d) yuqoridagi barcha nom bilan.

25. Korxonaga, muassasaga va kompaniyalarga moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirib, taftish qiluvchi va ular hisobotini ekspertizadan o'tkazuvchi muassasalar qanday nom bilan ataladi?

a) konsalting firmalar;

b) sug'urta kompaniyalar;

v) trust-fondlar;

g) auditorlik firmalari;

d) yuqoridagi barcha nom bilan.

26. Korxonaga (firma)larga ularga o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olib maslahat beruvchi, kompleks dasturlarini taklif qiluvchi firmalar qanday nom bilan ataladi?

a) auditorlik firmalar;

b) sug'urta kompaniyalar;

v) trust-fondlar;

g) konsalting firmalar;

d) yuqoridagi barcha nom bilan.

27. Kapital (moliya) bozorida ayirboshlash obyektlari bo'lib nima chiqadi?

a) aksiyalar;

b) obligatsiyalar;

v) garovli kreditlar;

g) xazina majburiyatlari;

d) yuqoridagilarning barchasi.

28. Bozor infrastrukturasi moliya-kredit tipidagi muassasalarga nima kiradi?

- a) birjalar, auksionlar, savdo uylari;**
- b) tijorat banklari, investitsion kompaniyalar, sug'urta va moliya kompaniyalari;**
- v) konsalting va auditorlik firmalar;**
- g) aholini ishga joylashtirish byurolari va mehnat birjalari;**
- d) ombor xo'jaligi, transport va aloqa.**

29. Doiraviy aylanishlarning oddiy modeliga bozorning qaysi turlari kiritilgan?

- a) pul bozori;**
- b) tovar va xizmatlar bozori;**
- v) pul va resurslar bozori;**
- g) tovarlar, xizmatlar va resurslar bozori;**
- d) yuqoridagilarning barchasi.**

10-MAVZU. TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI. BOZOR MUVOZANATI

1-§. Talab tushunchasi. Talab qonuni. Talabga ta'sir qiluvchi omillar

Talab – bu narxlarning mavjud darajasida sotib olinadigan tovar (xizmat)lar miqdori.

Talab turlari:

- **Individual (yoki yakka) talab** – alohida shaxs, oila va boshqa subyektning tovar (xizmat) larning muayyan to'plamiga bo'lgan talabi.
- **Bozor talabi**–alohida iste'molchilarning talablari yig'indisi.

Talab darajasini belgilab beruvchi asosiy omil narx hisoblanadi. Boshqa sharoitlar o'zgarib qolganda narxning o'zgarishi (pasayishi yoki ko'tarilishi) sotib olinadigan tovarlar miqdorining o'zgarishiga (ortishi yoki kamayishi) ga olib keladi.

Narx darajasi va sotib olinadigan tovarlar miqdori o'rtasidagi teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik **talab qonuni** deyiladi.


Agar oila oylik pul daromadining 5000 so'mini har oyda un sotib olishga sarflasa, un narxi o'zgarishi talab bildirilgan mahsulot miqdorining quyidagicha o'zgarishiga olib keladi.

	A	B	B	Г	Д	Е
Un narxi, (so'm)P	500	400	250	200	100	50
Talab qilinadigan un miqdori, (kg)Q	10	12,5	20	25	50	100

Jadval ma'lumotlari narxning pasayishi sotib olinadigan tovar miqdorining ko'payishi bilan birga borishini, aksincha, narxning o'sishi esa xarid miqdorining kamayishiga olib kelishini ko'rsatadi. Bu yerda

narx iste'molchi uchun to'siq vazifasini bajaradi, ya'ni yuqori narx ularning xarid qilish istagini so'ndiradi, past narx esa bu istakni rag'batlantiradi.

Tovar narxi va uning xarid qilinadigan miqdori o'rtasidagi teskari bog'liqlikni grafikda tasvirlab, talab egri chizig'ini hosil qilish mumkin.



Grafikda har bir nuqta tovarning narxi va iste'molchi shu narxda sotib olishi mumkin bo'lgan mahsulot miqdorini ko'rsatadi.

Real iqtisodiy hayotda shunday holat ham yuz berishi mumkin, ya'ni ayrim tovarlarga narxlar o'sishi bilan ularga bo'lgan talab kamaymasdan balki ortib boradi. Bu holat **Giffen samarasi** deb ataladi (ingliz iqtisodchisi Robert Giffen nomi bilan).

R.Giffen kambag'al oilalar kartoshka qimmatlashishiga qaramasdan uni iste'mol qilish hajmi ortib borishini kuzatib, bu samarani izohlab beradi. Uning sababi oddiy, narx o'sganda kambag'al oilalar go'sht sotib olishdan umuman voz kechib, ko'p bo'lmagan daromadlarning barchasini kartoshka sotib olishga sarflaydi.

Talabga narxdan tashqari ta'sir etuvchi omillar:

- iste'molchi pul daromadlari;
- iste'molchi didi;
- o'rinni bosuvchi tovarlar narxi;
- bozordagi iste'molchilar soni;
- narx va daromadlar o'zgarishining kutilishi;
- iste'molchidan olinadigan soliqlar darajasi.

Daromadlar o'zgarishi bilan talab to'g'ri mutanosiblikda o'zgaradigan tovarlar **oliy toifali tovarlar** deyiladi.

Daromadlar kamayganda talab oshadigan tovarlar **past toifali tovarlar** deyiladi.

Narx darajasi va taklif miqdori o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni jadval ma'lumotlari hamda ularning grafik tasviri ham aniq ko'rsatadi.


2-§. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni.

Taklifga ta'sir etuvchi omillar

Taklif – bu narxlarning mavjud darajasida ishlab chiqaruvchilar tomonidan bozorga sotishga chiqariladigan tovarlar miqdori.

Narx o'sishi bilan sotishga chiqariladigan tovarlar miqdori ham ko'payadi, narx tushganda esa kamayadi. Bu o'zaro **to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik taklif qonuni** deyiladi.

	A	Б	B	Г	Д	Е
Un narxi (so'm) P	500	400	250	200	100	50
Talab qilinadigan un miqdori (kg) Q	100	60	40	20	10	5



Taklifga narxdan tashqari ta'sir qiluvchi omillar:

- • resurslar narxi;
- • ishlab chiqarish texnologiyasi;
- • soliq va dotatsiyalar;
- • bir-biriga bog'liq tovarlar narxi;
- • inflyatsion kutilish;
- • bozordagi sotuvchilar soni.

3-§. Talab va taklif egiluvchanligi. Talab funksiyasi

Talab va taklif miqdorining ortishi yoki kamayishi ularning egiluvchanligini ko'rsatadi.

Egiluvchanlik – talab yoki taklif omillaridan birining o'zgarishi natijasida ular miqdorining o'zgarishini bildiradi.

Masalan, talabning baholi egiluvchanligi bahoning o'zgarishi hisobiga talab qilinadigan tovar miqdorining o'zgarishi.

Agar talab miqdorini Q ; bahoni R deb olsak, bahoning 1% ga o'sishi talabning qanday foizli o'zgarishiga olib kelishini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$E = (\% \Delta Q) / (\% \Delta R)$$

Egiluvchanlik farqlanadi:

- • qisqa va uzoq davrda;
- • tovarlarning alohida turkumlari bo'yicha.

Masalan, kundalik iste'mol tovarlari va uzoq muddat foydalanadigan tovarlarga talab egiluvchanligi bir xil emas.

Talab egiluvchanligini belgilab beruvchi omillar

- mahsulotning o'rnini bosuvchanligi;
- mahsulot narxining iste'molchi daromadidagi salmog'i;
- mahsulotning iste'mol xususiyatlari;
- vaqt omillari (qaror qabul qilish uchun talab qilinadigan vaqt).

Talab hajmi—qandaydir vaqt davomida ma'lum bir tovarning sotib olinishi mumkin bo'lgan miqdori.

Talab funksiyasi – talab hajmining uning miqdorini belgilovchi omillariga bog'liqligi.

Talab funksiyasi

$$Q_i^T = P \dots P_k; i; T; \dots$$


Bu yerda,

Q_i^T - i chi tovarlarga talab hajmi;

$P \dots P_k$ – barcha tovarlar bahosi;

i – pul daromadlari;

T – iste'molchi didi va afzal ko'rishi.



4-§. Talab va taklif nisbati. Bozor muvozanati


Narxning muayyan darajasida talab va taklif miqdori nisbatan bir-biriga mos kelgan holat **bozor muvozanati** deyiladi.

Bozor muvozanatiga erishganda shakllangan narx muvozanatli narx, shu narxda sotilishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori **ishlab chiqarishning muvozanatili hajmi** deyiladi.

Muvozanatlik turlari

- **Lahzalik yoki bir zumlik muvozanatlik** – taklif qilingan tovarlar doimiy miqdorni tashkil qilganda, asosan, narx o'lishi hisobiga ro'y beradi.
- **Qisqa muddatli muvozanatlikka** ishlab chiqarish hajmi (taklif)ni vaqtinchalik amal qiluvchi omillardan foydalanish asosida ko'paytirish orqali erishiladi. Bunday omillarga ish vaqtidan tashqari dam olish va bayram kunlari ishlash, ish smenasini ko'paytirish kabilarni kiritish mumkin.
- **Uzoq davrli muvozanatlik.** Ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, yangilash va qo'shimcha quvvatlarni vujudga keltirish kabi o'zgarishlar uzoq vaqtni tashkil qiladigan omillardan foydalanishni taqozo qiladi. Bu davrda yangi korxonalar ham vujudga kelib, faoliyat qila boshlaydi. Natijada taklif ko'payadi va narx pasayadi.

Bozor muvozanatining hosil bo'lishi



10-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Quyidagilardan qaysi bir talab tushunchasining mazmunini to'laroq xarakterlaydi?

- a) ehtiyoj, xohish, istak;
- b) ehtiyojning pul bilan ta'minlangan qismi;
- v) bahoning mavjud darajasida sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar miqdori;
- g) sotishga chiqarilgan tovarlar miqdori;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

2. Mahsulot bahosi va uning sotib olinadigan miqdori o'rtasidagi teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik qanday qonun?

- a) taklif qonuni;
- b) naflilikning kamayib borish qonuni;
- v) talab qonuni;
- g) unumdorlikning pasayib borish qonuni;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

3. Talab qonunidan qanday xulosa chiqarish mumkin?

- a) yuqori baholar iste'molchining xarid qilish istagini susaytiradi, past baholar esa kuchaytiradi;
- b) iste'molchi mahsulotning qo'shimcha birligini faqat uning bahosi pasaygan sharoitda sotib ola boshlaydi;
- v) baholarning pasayishi iste'molchi pul daromadining sotib olish layoqatini yoki real daromadini oshiradi;
- g) mahsulot bahosi o'sganda iste'molchi uning o'rnini bosuvchi arzonroq tovarlarni sotib olishga harakat qiladi;
- d) yuqoridagi barcha xulosalarni.

4. Biror mahsulotga baho va iste'molchi didi o'zgaray qolganda unga bo'lgan talab quyidagi holatlardan qaysi birida kamayadi?

- a) bozordagi iste'molchilar soni o'zgaray qolganda;
- b) iste'molchining pul daromadi ortganda;
- v) o'rnini bosuvchi tovarlar bahosi pasayganda;
- g) kelgusida baho va pul daromadining o'zgarishi kutilmaganda;
- d) yuqoridagi barcha hollarda.

5. Taklif tushunchasi nimani xarakterlaydi?

- a) ishlab chiqarish imkoniyatining kengayishini;
- b) iqtisodiy resurslarning to'liq band qilinganligini;
- v) bahoning har bir darajasida ishlab chiqarishga qodir bo'lgan va bozorga sotishga chiqaradigan tovarlar miqdorini;
- g) biror mahsulotning ishlab chiqaruvchilari sonini;

d) yuqoridagilarning barchasi.

6. Quyidagi holatlardan qaysi biri korxonaga qisqa vaqt ichida qo'shimcha resurslarni jalb qilib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish imkonini beradi?

a) resurslarga yuqori baholar;

b) korxonaga mahsulotiga yuqori baholar;

v) ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq band qilinganligi;

g) o'rnini bosuvchi tovarlar bahosining o'sishi;

d) yuqoridagi barcha holatlar.

7. Quyidagi omillardan qaysi biri alohida tovarlar taklifiga o'z ta'sirini ko'rsatmaydi?

a) baholar;

b) ishlab chiqarish;

v) texnologiya;

g) resurslar unumdorligi;

d) iste'molchilar soni.

8. Iste'molchi sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar miqdoriga quyidagilardan qaysi biri ta'sir ko'rsatmaydi?

a) baholar;

b) iste'molchi puli daromadlari;

v) iste'molchi didi;

g) bozordagi sotuvchilar soni;

d) daromadlar va baholar o'zgarishining kutilishi.

9. Bahoning 20% oshishib hisobiga talab qilinadigan mahsulot miqdori 15% ga kamaysa talabning baholi egiluvchanlik koeffitsienti qanday miqdorni tashkil qiladi?

a) 0,78;

b) 0,84;

v) 0,75;

g) 0,81;

d) 0,85.

10. Bahoning 25% oshishi hisobga bozorga chiqiladigan tovarlar miqdori 15% ga ko'paysa, taklifning baholi egiluvchanligi ko'effitsienti qanday miqdorni tashkil qiladi?

a) 0,75;

b) 0,65;

v) 0,60;

g) 0,70;

d) 0,80.

11. Daromad samarasi nimada namoyon bo'ladi?

- a) iste'molchi pul daromadining o'sishida;
- b) iste'mol tovarlari bahosining o'sishida;
- v) iste'molchi real daromadi ortishi oqibatida turli hil tovarlar sotib olish hajmining o'sishida;
- g) iste'molchi nominal daromadining o'sishida;
- d) iste'molchi pul daromadining baholarga qaraganda tezroq o'sishi.

12. Quyidagi formula nimani bildiradi: $Q_{Ti} = P \dots P_{Ti}; L; T; \dots?$

- a) taklif funksiyasini;
- b) taklifning baholi funksiyasini;
- v) talab funksiyasini;
- g) talabning baholi funksiyasini;
- d) yuqoridagilarning barchasini.

13. Quyidagi formula nimani bildiradi: $Q_{Ti} = R?$

- a) taklif funksiyasini;
- b) taklifning baholi funksiyasini;
- v) talab funksiyasini;
- g) talabning baholi funksiyasini;
- d) yuqoridagilarning barchasini.

14. Alohida tovarlarga talab deganda nimani tushunasiz?

- a) alohida tovarga bo'lgan ehtiyojni;
- b) alohida tovarning qandaydir miqdorini sotib olishga bo'lgan xohish-istakni;
- v) alohida tovarning ma'lum vaqt ichida baholarning har bir darajasida sotib olish mumkin bo'lgan miqdorini;
- g) iste'molchining sotib olish layoqatini;
- d) yuqoridagilarning barchasini.

15. Alohida tovarlar taklifi deganda nimani tushunasiz?

- a) ishlab chiqaruvchining alohida tovarni ishlab chiqarish imkoniyatini;
- b) ishlab chiqaruvchining alohida tovarni ishlab chiqarishga bo'lgan xohishini;
- v) ishlab chiqaruvchining ma'lum davrda baholarning har bir darajasida alohida tovarning sotishga chiqaradigan miqdorini;
- g) ishlab chiqarish texnologiyasini;
- d) yuqoridagilarning barchasini.

16. O'rnini bosish samarasi nimada namoyon bo'ladi?

- a) iste'molchi sotib olish layoqatining o'sishida;
- b) bir-birini to'ldiruvchi tovarlar bahosining tushishida;
- v) tovarlar bahosi tushishi oqibatida iste'molchi nisbatan qimmat

tovarlarni ancha arzon boshqa tovarlar bilan almashtirish imkoniga ega bo'lishida;

g) iste'molchi real daromadining o'sishida;

d) yuqoridagi barcha hollarda.

17. Tovar va xizmatlarning nafiligi nima?

a) foydaliligi;

b) bahoga ega bo'lishi;

v) ehtiyojni qondirish layoqati;

g) iste'mol xususiyatiga ega bo'lishi;

d) ayriboshlashga layoqatligi.

18. Nima uchun aynan bir tovarning navbatdagi xarid qilingan birligining nafiligi pasayib boradi?

a) iste'molchi didining o'zgarishi sababli;

b) tovar taklifining o'sishi sababli;

v) aynan shu tovarga ehtiyojning qondirib borilishi sababli;

g) aynan shu tovar bahosining o'sishi sababli;

d) o'rnini bosuvchi tovarlar mavjud bo'lishi sababli.

19. Aynan bir tovarning navbatdagi birligi kamayib boruvchi naf keltirib borsa, iste'molchi uning qo'shimcha birligini qachon sotib ola boshlaydi?

a) iste'molchi daromadlari ortganda;

b) shu tovarning bahosi o'sib borganda;

v) shu tovarning bahosi pasayib borganda;

g) shu tovar taklifi o'sganda;

d) o'rnini bosuvchi tovarlar mavjud bo'lmaganda.

20. Keyingi naflilikning pasayib borish qonuni ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)ning qanday qaror qabul qilishiga olib keladi?

a) ishlab chiqarish (sotish) hajmini qisqartiradi;

b) tovar taklifini cheklaydi;

v) tovar bahosini pasaytirishga majbur bo'ladi;

g) talabning o'sishini kutadi;

d) boshqa tovar ishlab chiqara boshlaydi.

21. Iste'molchida quyidagi tovarlardan qaysi birining navbatdagi qo'shimcha birligini sotib olishga intilish nisbatan past bo'ladi?

a) oziq-ovqatlar;

b) kiyim-kechaklar;

v) avtomashina;

g) madaniy-maishiy buyumlar;

d) xizmatlar.

22. Iste'molchi oylik daromadining 40000 so'mini oziq-ovqat va kiyim-kechakka sarflaydi deb faraz qilamiz. Oziq-ovqat birligining bahosi 500 so'm, kiyim-kechakniki 1000 so'm bo'lsa, u daromadining shu darajasida quyidagi muqobil variantlardan qaysi birini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi?

	Oziq-ovqat (dona)	Kiyim-kechak (dona)
A)	10	15
B)	15	10
B)	40	20
Г)	20	50
Д)	20	20

23. Iste'molni qondirishning bir hil darajasini ta'minlaydigan quyidagi tovarlar to'plamidan qaysisi farqsiz egri chizig'ida joylashmaydi?

	Oziq-ovqat (dona)	Kiyim-kechak (dona)
A)	15	50
B)	20	30
B)	10	20
Г)	40	25
Д)	30	25

24. Iste'molchi xulqi nazariyasiga ko'ra, u tovarlarning qanday to'plamini boshqasiga nisbatan afzal ko'radi?

- a) o'rnini bosuvchi tovarlar to'plamini;
- b) oziq-ovqat tovarlari to'plamini;
- v) har qanday tovarlarning ko'proq to'plamini (miqdorini);
- g) kiyim-kechak buyumlari to'plamini;
- d) xizmatlar to'plamini.

25. Iste'molchining shaxsiy tanloviga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omil nima?

- a) tovarlar kamyobligi;
- b) iste'molchi didi;
- v) daromadi (byudjeti)ning cheklanganligi;
- g) tovarlar taklifi;
- d) soliqlar darajasi.

26. Iste'molchi tanlovi nimaga qaratiladi?

- a) bahosi arzon tovarlarni sotib olishga;
- b) bahosi yuqori tovarlarni sotib olishga;
- v) cheklangan byudjeti (daromadi) doirasida o'zining ehtiyojini eng yuqori darajada qondirishga;

- g) nafilligi yuqori bo'lgan tovarlarni sotib olishga;**
- d) cheklangan byudjeti doirasida har qanday tovarlarni sotib olishga.**

27. Nafillikni maksimallashtirish qoidasining mazmuni nimadan iborat?

- a) har qanday tovarlarning eng ko'p miqdorini sotib olishdan;**
- b) turli hil tovarlarning eng ko'p miqdorini sotib olishdan;**
- v) pul daromadini tovarlarning har bir turini sotib olishga sarflangan oxirgi so'm bir xil qo'shimcha naf keltiradigan qilib taqsimlashdan;**
- g) kamyob tovarning eng ko'p miqdorini sotib olishdan;**
- d) pul daromadini barcha tovarlarga mutanosib taqsimlashdan.**

28. Nafillikni maksimallashtirish qoidasiga nima ta'sir ko'rsatadi?

- a) daromadlarning o'zgarishi;**
- b) iste'molchi didi;**
- v) har xil tovarlar bahosining o'zgarishi;**
- g) o'rnini bosuvchi tovarlar bahosi;**
- d) yuqoridagilarning barchasi.**

29. Taklif qonuni nimani ifodalaydi?

- a) bahoning o'sishi bilan sotishga chiqariladigan tovarlar miqdorining ortishini;**
- b) baho pasayishi bilan sotishga chiqariladigan tovarlar miqdorining ortishini;**
- v) baho bilan sotishga chiqariladigan tovarlar miqdori o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni;**
- g) baho bilan sotishga chiqariladigan tovarlar miqdori o'rtasidagi teskari bog'liqlikni;**
- d) yuqoridagilarning barchasini.**

30. Mahsulot bahosi o'zgarmay qolganda quyidagilardan qaysi biri taklifning qisqarishiga olib keladi?

- a) resurslar bahosining pasayishi;**
- b) texnologiyaning takomillashuvi;**
- v) soliqlarning kamayishi va davlat subsidiyalariniig o'sishi;**
- g) kelgusida mahsulot bahosi o'sishining kutilishi;**
- d) yuqoridagilarning barchasi.**

31. Quyidagi holatdardan qaysi birida muvozanatli baho o'zgarish tamoyiliga ega bo'lmaydi?

- a) talab > taklif;**
- b) talab < taklif**
- v) talab = taklif;**

g) ehtiyoj = ishlab chiqarish imkoniyati;

d) yuqoridagi barcha hollarda.

32. Vaqt omili hisobga olinganda qanday muvozanatliklar farqlanadi?

a) bir lahzalik;

b) qisqa davrli;

v) uzoq davrli;

g) barqaror;

d) yuqoridagilarning barchasi.

33. Ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, yangilash, qo'shimcha quvvatlar vujudga keltirish va tarmoqda yangi korxonalarning paydo bo'lishi muvozanatlikning qaysi turiga ta'sir ko'rsatadi?

a) bir lahzalik;

b) qisqa davrli;

v) uzoq davrli;

g) barqaror;

d) yuqoridagilarning barchasiga.

34. Vaqtning iqtisodiy qimmati quyidagilardan qaysi biri uchun nisbatan yuqori?

a) ishsizlar;

b) malakasiz ishchilar;

v) nafaqaxo'rlar;

g) korporatsiya boshqaruvchilari;

d) talabalar.

35. Quyidagi modellardan qaysi biri resurslar, mahsulotlar va daromadlar harakatini aks ettiradi?

a) doiraviy aylanishlar modeli;

b) yalpi talab va yalpi taklif modeli;

v) daromadlar va xarajatlar modeli;

g) tovar miqdori va pul massasi modeli;

d) yuqoridagilarning barchasi.

11-MAVZU. TADBIRKORLIK FAOLIYATI. TADBIRKORLIK KAPITALI VA UNING HARAKATI

1-§. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va asosiy belgilari

Tadbirkorlik faoliyati – mavjud qonunlar doirasida, mulkiy ma'suliyat ostida va foyda olish maqsadida tahlika bilan amalga oshirilgan iqtisodiy faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyatining vazifalari:

- • ishlab chiqarishning yagona jarayonida iqtisodiy resurslarni birlashtirish;
- • biznesni yuritish bo'yicha asosiy qarorlarni qabul qilish;
- • ishlab chiqarishning yangi texnologiyasini va biznesni tashkil qilishning yangi shakllarini joriy qilishda tashabbuskorlik ko'rsatish;
- • tahlikaga borish.

Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati to'g'risidagi asosiy nazariyalar

→ Tadbirkor, bu noaniq daromadga ega kishilar. Tavakkalchilik xatari uning bosh xususiyatidir (R.Kontilon. U bu atamani iqtisodiy fanga ham olib kirgan).

→ Tadbirkor, tijorat bilan shug'ullanib, foyda olish maqsadida tavakkalchilik qiluvchi mulk egasi (A.Smit).

→ Tadbirkor, iqtisodiy agent sifatida foyda olish uchun o'z tajribasi va bilimini tavakkalchilik xataridan qo'rqmay ishga soluvchi shaxs. (J.B.Sey)

→ Tadbirkor, foydaning o'sishini maqsad qilib qo'yadigan, xatarga tayyor turadigan va kishilarni birlashtira oladigan tashabbuskor shaxs. (V.Zamberg).

→ Tadbirkor, ishlab chiqarish omillari uyg'unlashuvining yangi nisbatini izlovchi, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi va novatorlik xususiyatlari yuqori darajada rivojlangan kishi. (I.Shumpeter)

Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish shart-sharoitlari:	
→	• tadbirkor faoliyati uchun ma'lum huquq va erkinliklar mavjud bo'lishi lozim;
→	• tadbirkor mulkchilik huquqiga ega bo'lishi (mol- mulkni va foydani tasarruf qilishda) zarur;
→	• erkin iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishni ta'minlaydigan iqtisodiy muhit va ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar yetarlicha bo'lishi kerak;
→	• mulkchilik va xo'jalik yuritishning xilma-xil shakllari va turlari taqozo qilinadi.

2-§. Tadbirkorlik faoliyatining asosiy turlari va korxonalarining tashkiliy shakllari

Tadbirkorlik faoliyati nihoyat darajada xilma-xil bo'lib, iqtisodiy fanda va xo'jalik amaliyotida uning quyidagi asosiy turlari e'tirof etiladi:

- ▶ • **Shaxsiy tadbirkorlik** shaxsiy mulkka asoslanadi, ishlab chiqarish uning o'zi yoki oila a'zolari mehnati asosida amalga oshiriladi. Odatda, tadbirkorlikning bu shakli savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sohalarida yuqori samarali bo'lib, tez rivojlanadi.
- ▶ • **Xususiy tadbirkorlik** mulk va ishlab chiqarish natijalari xususiy shaxslarga tegishli bo'ladi, ishlab chiqarish jarayoni yollanma mehnatga asoslanadi.
- ▶ • **Jamoa tadbirkorligi** jamoa mulkchiligiga asoslanadi va uning iqtisodiy faoliyatida, shu jumladan, boshqarishni amalga oshirishda jamoa a'zolari faol qatnashadi hamda shu orqali jamoa va shaxsiy manfaatlar uyg'unligi ta'minlanadi.
- ▶ • **Tadbirkorlikni aralash shakli** hissadorlik jamiyatlari va ma'suliyati cheklangan jamiyatlar yoki qo'shma korxonalar (milliy va chet el kapitali ishtirokidagi) ko'rinishda bo'ladi.
- ▶ • **Davlat tadbirkorligi** bu davlat mulkchiligiga asoslangan korxonalarni va mulkida davlat ulushi yuqori salmoqni tashkil qiladigan korporatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Korxonalar (firma) – iqtisodiy faoliyatni tashkil qilishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy shakli, milliy iqtisodiyotning birlamchi bo'g'ini va tovarlar ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) bo'yicha tadbirkorlik faoliyati subyekti.

Korxonalarning tashkiliy shakllari

Tashkiliy-huquqiy shakllari

- individual (yakka) xo'jalik;
- sherikchilik asosidagi korxonalar;
- korporatsiya (aksioner mulkdorligi asosida tashkil qilinadi).

Tashkiliy-iqtisodiy shakllari (korxonalar uyushmalari).

- kartellar;
- sindikat (mahsulot sotish birlashtiriladi);
- konsorsium (yirik moliyaviy loyihalarni amalga oshirish maqsadida birlashuvi);
- konsern (qatnashish tizimi orqali nazoratni amalga oshiruvchi ko'p tarmoqli uyushma).

Tashkiliy-iqtisodiy shakllari (korxonalar uyushmalari).



Korxonalar shakllari

Xo'jalik faoliyati turi va amalga oshiriladigan operatsiyalarining xarakteri bo'yicha

- Sanoat, savdo, transport, sug'urta, bank, moliya-investitsion, ilmiy-tadqiqot, innovatsion va boshqa turli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar.

Ishlab chiqarishning to'planuv darajasi bo'yicha

- mayda korxonalar;
- o'rta korxonalar;
- yirik korxonalar.

Mulkchilik shakllari bo'yicha

- xususiy korxonalar;
- davlat korxonalari (ishlab chiqarish va byudjet korxonalari hamda aralash kompaniyalar);
- jamoa korxonalari (kooperativlar, mulk paychiligidagi shirkatlar va h.k.);
- mulkchilikning aralash shakllariga asoslangan korxonalar.

Iqtisodiy faoliyatning natijasi bo'yicha

- ishlab chiqarish korxonalari;
- xizmat ko'rsatuvchi korxonalar.

3-§. Aksionerlik jamiyatlari va ular faoliyatlarining xususiyatlari

Aksionerlik jamiyatlari ancha katta hajmda investitsion mablag'lar va iqtisodiy resurslar taqozo qilinadigan loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda moliyaviy resurslarni alohida o'ziga xos shaklida, ya'ni xissadorlik tartibida birlashtirish asosida tashkil qilinadigan korxonalaridir.

Aksionerlik jamiyatiga qo'yilgan kapital miqdoriga qarab, qimmatli qog'oz-aksiya chiqarish va uni joylashtirish hissadorlik munosabatlaning eng asosiy xususiyatlaridan biridir.

Aksiya – bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shganligi va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'ozdir.

Aksiya o'z egasiga korxonani boshqarishda qatnashish va jamiyat tugatilganda uning mulkiga sheriklik huquqini ham beradi.

Aksiyaning nominal qiymati – aksiyada ifodalangan pul summasidir, aksiya kursi uning qimmatli qog'ozlar bozorida sotiladigan bahosidir.

Aksiya kursi – dividend miqdorining (Π) bank foizi stavkasiga (ch) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

$$\text{Aksiya kursi} = \frac{\Pi}{ch} \cdot 100$$

Obligatsiya – uning egasi aksionerlik jamiyatga doimiy foiz shaklida daromad olish sharti bilan pul qo'yganligidan guvohlik beruvchi qimmatli qog'ozdir.

Ta'sischiлик foydasi – aksionerlik jamiyatlarini ta'sis etuvchilar o'zlashtiradigan daromad shakli bo'lib, u sotilgan aksiyalar summasi va jamiyatga haqiqatda qo'yilgan mablag' miqdori o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi.

4-§. Menejment korxonalarni boshqariish tizimi. Marketing va uning tizimi

Menejment – ilmiy bilishning alohida sohasi bo'lib, boshqarish san'ati va mahorati haqidagi fandır.


Menejer – bu malakali ish boshqaruvchi.

Boshqarish
prinsiplari
(fr. Fayol)

- oldindan ko'rish (istiqbolni o'rganish va harakat dasturini belgilash);
- tashkil qilish (moddiy va ijtimoiy jihatdan);
- idora qilish (xodimlarni harakatga keltirish);
- muvofiqlashtirish (kuch va harakatni bog'lash);
- nazorat qilish (barcha harakat belgilangan buyurtmalar asosida borishni kuzatish).

Marketing –istiqbolni ko'zlab bozorni asosli o'rganish


Marketing vazifalari.



- Sotish bozorini o'rganish.
- Xaridor bilan o'zaro munosabatlarni ishlab chiqish.
- Raqobat kurashining shakil va usullarini belgilash.
- Korxonada faoliyatini tahlil qilish.
- Marketing siyosatini ishlab chiqish.
- Bozorni segmentlashtirish..
- Reklamani tashkil qilish.

Reklama – bu tovarlar, xizmatlar, korxonada haqidagi qisqacha va nafis rasmiylashtirilgan ma'lumotlarni potensial istemolchilarga yetkazishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimi.

Reklama vazifalari



- korxonada siyosatini yaratish;
- joriy sotish hajmini ko'paytirish;
- xaridorga nimani sotib olish zarurligini hal qilishda yordamlashish;
- mijozlarni to'plash va kengaytirish.

5-§. Tadbirkorlik kapitalining mohiyati, shakllari va doiraviy aylanishi xususiyatlari

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar, moddiy resurslar va tovarlar birgalikda **tadbirkorlik kapitali** deyiladi.

Tadbirkorlik kapitalining harakat bosqichlari:

➤ **1-bosqich**

$$\Pi \rightarrow T_p < \frac{ICHB}{I_k}$$

Bu bosqich pul (P) shaklidagi kapital tegishli resurslar bozorida (Tr) ishlab chiqarish vositalari (ICHV) va ishchi kuchi (Ik) sotib olishga sarflanishini bildiradi.

➤ **2-bosqich.. ...U(Ich)...T**

Bu bosqichda iqtisodiy resurslar unumli kapital sifatida (U) foydalanilib, ishlab chiqarish omillariga aylanadi. Ishlab chiqarish (Ich) natijasida unumli kapital tovar (T1) shaklini oladi.

➤ **3-bosqich. ...T - Π**

Bu bosqichda ishlab chiqarilgan tovarlarning sotilish natijasida, tadbirkorlik kapitali o'zining dastlabki pul shakliga qaytadi. Lekin u, dastlabki sarflangan (avanslangan) puldan qo'shilgan qiymat miqdoriga ko'p bo'ladi, ya'ni $\Pi = \Pi + n$.

Tadbirkorlik kapitali xarakatining 1 va 3-bosqichlari **muomalada** (bozorda), 2-bosqichi esa **ishlab chiqarish jarayonida** ro'y beradi.

Tadbirkorlik kapitali o'z harakatida uch bosqichni izchil bosib o'tib, muntazam bir shakldan boshqa shaklga aylanib, yana dastlabki shakliga qaytib kelishi uning doiraviy aylanishi deyiladi.

Tadbirkorlik kapitali doiraviy aylanishini yaxlit holda quyidagicha tasvirlash mumkin.

$$\Pi \rightarrow T \begin{cases} \text{ICHB} \\ \text{IK} \end{cases} \dots U \text{ (ICH) } \dots T' - \Pi'$$

Doiraviy aylanish jarayonida tadbirkorlik kapitalining har bir shakli alohida vazifalarni bajaradi:

- ▪ Kapital pul shaklining harakati iqtisodiy faoliyat uchun zarur shart-sharoit yaratishga yo'naltiriladi.
- ▪ Kapital umumli shaklining harakati tovarlar ishlab chiqarish va bu jarayonda qiymatning o'sishiga erishishni ta'minlashga qaratiladi.
- ▪ Kapital tovar shaklining harakati orqali tovar qiymatining baho shaklida ro'yobga chiqishi va o'sgan qiymatning pulga aylanishi hamda tadbirkorning foyda olish maqsadi ta'minlanadi.

Tadbirkorlik kapitalining har uchala shakli ham bir vaqtda o'z doiraviy aylanishiga ega bo'ladi.



Pul shaklining doiraviy aylanishi

$$\Pi \dots \Pi^I \text{ yoki } \Pi \rightarrow T_p \begin{cases} \text{ICHB} \dots U \text{ (ICH)} \dots T^I - \Pi^I \\ \text{IK} \end{cases}$$



Umumli kapitalning doiraviy aylanishi

$$U \text{ (Ich)} \dots U \text{ (Ich)} \text{ yoki } U \text{ (Ich)} \dots T^I - \Pi^I \rightarrow T_p \begin{cases} \text{ICHB} \dots U \text{ (Ich)} \\ \text{IK} \end{cases}$$



Tovar shaklining doiraviy aylanishi

$$T \dots T^I \text{ yoki } T - \Pi \begin{cases} \text{ICHB} \dots U \text{ (ICH)} \dots T^I \\ \text{IK} \end{cases}$$

6-§. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital

Doiraviy aylanishlarning uzluksiz takrorlanib, qaytadan yangilanib turishi tadbirkorlik kapitalining **aylanishini** tashkil qiladi.

Aylanish xususiyatiga ko'ra umumli iste'moldagi kapital asosiy va **aylanma** kapitalga bo'linadi.

- **Asosiy kapital** ishlab chiqarish jarayonida bir nechta doiraviy aylanishlar davomida qatnashadi, qiymatini yaratilayotgan mahsulotga bo'lib-bo'lib o'tkazadi va ashyoviy buyum shaklini o'zgartirmaydi.
- **Aylanma kapital** bir doiraviy aylanish davomida to'liq iste'mol qilinadi, qiymatini ishlab chiqarish natijalariga to'liq o'tkazadi va ashyoviy buyum shaklini ham yo'qotadi.

Asosiy va aylanma kapitalni **farqlantiruvchi belgilar**.

1. Ishlab chiqarish jarayonida harakat qilish xususiyatlari.
2. Qiymatini ishlab chiqarish natijalariga o'tkazish xususiyatlari.
3. Kapital qiymatining aylanish usuli.
4. Qayta tiklanish usuli.

Tadbirkorlik kapitalining **aylanish vaqti** (A_v) ishlab chiqarish vaqti (V_{ich}) va muomala vaqti (V_m) yig'indisidan iborat:

$$A_B = B_{ich} + B_m.$$

Tadbirkorlik kapitalining tovarlar tayyor bo'lgan davrgacha joylashgan vaqti **ishlab chiqarish vaqtini**, ishlab chiqarish vositalari sotib olish va tayyor tovarlarni sotish uchun ketgan vaqt **muomala vaqtini** tashkil etadi.

Ishlab chiqarish vaqti (B_{ich} .)

Ish davri (I_d) yoki mehnat jarayoni (M_j)	Tanaffuslar davri (T_d). Tabiiy jarayonlar va tashkiliy sabablarga ko'ra	Ishlab chiqarish zaxiralarida (Z_d) bo'lish vaqti
--	---	---

$$B_{i.ch.} = I_d (M_j) + T_d + Z_d;$$

Ish davri mehnat predmetlari (xom ashyo, materiallar, tabiat ne'matlari va h.k.) bevosita mehnatning ta'siri ostida bo'ladigan vaqtdir.

Ish davrining davomiyligini belgilab beruvchi omillar:

- ishlab chiqariladigan mahsulot turi va iste'mol qilinish xususiyatlari;
- ishlab chiqarish texnologiyasi va uning texnikaviy qurollanish darajasi;
- qo'llaniladigan mehnatning miqdori va uning unumdorligi;
- ishlab chiqarishning tabiiy va iqlim sharoitlari.

Ishlab chiqarish vaqtida tanaffuslarning mavjud bo'lishini taqozo etuvchi omillar:

1. Tabiiy jarayonlarning (kimyoviy, biologik) mehnat buyumlariga ta'sir ko'rsatish zarurligi.
2. Tashkiliy sabablar. Bunda tanaffuslarni korxonalarning ish rejimi va ishlab chiqarishni tashkil qilish xususiyatlari zarur qilib qo'yadi.

Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash zarurligi ishlab chiqarish vositalarining zaxira va ehtiyotlar sifatida bo'lish vaqtini taqozo etadi.

Muomala vaqtining davomiyligini belgilab beruvchi omillar:

- transport, aloqa va kommunikatsiya tizimining rivojlanish holati;
- tovarlar va resurslar bozorining rivojlanish darajasi;
- bozor infratuzilmasining holati;
- xo'jalik aloqalarining mavjud tizimi.

7-§. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish xususiyatlari va undan foydalanish ko'rsatkichlari

Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish jarayonlari:

- asosiy kapitalni moliyaviy ta'minlash uchun investitsion resurslarni vujudga keltirish;
- asosiy kapitalni samarali taqsimlash va ulardan iqtisodiy faoliyatda foydalanish.
- asosiy kapital eskirishi va amortizatsiya jarayonini hisobga olish;
- asosiy kapitalni jismoniy shaklda qayta tiklash (kapital ta'mirlash yoki yangilash).

O'zbekistonda asosiy kapital uchun investitsiya manbalari va ularning o'zgarishi.

(mird. so'm/%)


	Jami investitsiyalar	Shu jumladan				
		Byudjet mablag'lari	Aholi va korxonalar mablag'lari	Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	chetel investitsiya va kreditlari	Boshqa manbalar
2000	696,3	210,9	272,3	52,2	151,1	9,7
	100,0	30,3	39,1	7,5	21,7	1,4
2002	1442,4	360,6	750,0	31,7	294,2	5,8
	100,0	25,0	52,0	2,2	20,4	0,4

Asosiy kapitalning tarkibi va tuzilishi

- **Tarmoq tarkibi** – asosiy kapitalning umumiy hajmida alohida tarmoqlarning ulushini ko'rsatadi.
- **Turlari bo'yicha tarkibi** – asosiy kapitalning umumiy qiymatida alohida turlarning (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar va h.k) nisbati bilan tavsiflanadi.
- **Mulkiy tarkibi** – asosiy kapitalning umumiy qiymatida har bir mulk shaklining hissasini ko'rsatadi.

Respublikada asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalarning mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi (% hisobida)

Mulkchilik shakllari	Yillar			
	1997	1998	2000	2002
1. Davlat mulki	67,7	59,4	65,4	40,9
2. Nodavlat mulki undan	32,3	40,6	34,6	59,1
· xususiy	10,1	19,1	15,4	15,0
· hissadorlik	8,1	8,0	11,1	13,2
· qo'shma (aralash)	9,9	9,9	6,8	11,4
· boshqa shakllari	4,2	3,6	1,3	16,5



Amortizatsiya – asosiy kapital eskirib borishiga qarab, uning qiymatining ishlab chiqarilayotgan mahsulot (xizmat)ga o'tkazilishi va asosiy kapitalni qayta tiklash maqsadida jang'arilib borish jarayonini anglatadi.

Amortizatsiya ajratmalari mablag'laridan ikki maqsadda foydalaniladi:
 - asosiy kapitalni to'liq qoplash, ya'ni qayta tiklash maqsadida;
 - asosiy kapitalni qisman tiklash, ya'ni kapital ta'mirlash maqsadida.

Amortizatsiya noramsi (A_n) – amortizatsiya ajratmalari yillik summasining (A_{aj}) asosiy kapital qiymatiga (Kas) nisbatining foizdagi ifodasidir, ya'ni

$$A_n = \frac{A_{aj}}{Kas} \cdot 100$$

Amortizatsiya ajratmasining yillik summasini aniqlashda asosiy kapital qiymati (K_{as}) asosiy kapital xizmat davrida unga kapital ta'mirlash uchun qilingan sarflar (R_x) va eskirgan mehnat vositalarini tugatishdan olingan mablag'lar (M_t) miqdori hamda mehnat vositalarining xizmat qilish muddati (X_m) hisobga olinadi..

$$A_{aj} = \frac{K_{as} + P_x - M_t}{X_m} \cdot 100$$

Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi «natija» va «xarajat»ni taqqoslash qoidasidan kelib chiqib, ishlab chiqarishning umumiy hajmi va foydalanishdagi asosiy kapital miqdori o'rtasidagi nisbatni aks ettiradi.

Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari

I. Qiymat ko'rsatkichlari:

• asosiy kapitaldan olinadigan samara (K_s)

- milliy iqtisodiyot darajasida

$$K_s = \frac{YAMM (CMM, MD)}{K_{as}}$$

bu yerda,

YAMM(CMM,MD) – yalpi milliy mahsulot (sof milliy mahsulot, milliy daromad);

K_{as} – asosiy kapital qiymati.

- korxonada darajasida

$$K_s = \frac{YaM (YAD, F)}{K_{as}}$$

bu yerda,

YAM(YAD, F) – korxonaning yalpi mahsuloti (yalpi daromadi, foydasi).

K_{as} – asosiy kapital qiymati.

• mahsulotning kapital sig'imi (K_{sig})

- milliy iqtisodiyot darajasida

$$K_{sig} = \frac{K_{as}}{YAMM (SMM, MD)}$$

- korxonada darajasida

$$K_{sig} = \frac{K_{as}}{YaM (YaD, F)}$$

II. Natural ko'rsatkichlar:

asosiy kapitalning alohida turlaridan foydalanish samaradorligini xarakterlaydi.

Masalan, bir avtomodil hisobiga tashilgan yuk, bir kombayn hisobiga o'rilgan g'alla yoki terilgan paxta, bir dastgoh hisobiga to'qilgan mato va h.k.

Aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi.

• Mahsulotning material sig'imi (M_{sig})

– milliy iqtisodiyot darajasida

$$M_{sig} = \frac{K_{ay}}{YAMM (SMM, MD)}$$

– korxonada darajasida.

$$M_{sig} = \frac{K_{ay}}{YAM (YAD, F)}$$

• **Aylanma kapital birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.** Bu ko'rsatkich har ikki darajada mahsulotning material sig'imi ko'rsatkichiga teskari miqdor sifatida aniqlanadi.

• **Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti (A_k)** – bir yilda sotilgan mahsulot qiymatining (M_{sum}) aylanma mablag'lar o'rtacha yillik summasi (K_{ay})ga nisbati bilan aniqlanadi.

$$A_k = \frac{M_{sum}}{K_{ay}}$$

• **Aylanma mablag'larning aylanish davri (A_d)** – yildagi kunlar sonining aylanishlar soniga (n) nisbati bilan aniqlanadi.

$$A_d = \frac{360}{n}$$

11-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Biznesning mohiyati uning qaysi vazifasida to'liq namoyon bo'ladi?
 - a) biznesga tegishli asosiy qarorlar qabul qilish;
 - b) iqtisodiy resurslarni birlashtirish;
 - v) iqtisodiy faoliyatda tashabbus ko'rsatish;
 - g) tahlikaga borish;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
2. Biznes faoliyat turi sifatida quyidagilardan qaysi birini o'z ichiga oladi?
 - a) ishlab chiqarish va uni tashkil qilishni (rejalashtirish va ta'minotni ham o'z ichiga olgan);
 - b) marketing faoliyatini (rekalama va baho siyosati bilan birga);
 - v) boshqarishni;
 - g) moliyaviy ta'minlashni;
 - d) yuqoridagilarning barchasini.
3. Quyidagilardan qaysi biri korxonalar (firma)larning tashkiliy-huquqiy shakllarini ifodalaydi?
 - a) korporatsiya;
 - b) xususiy korxonalar (firma)lar;
 - v) davlat korxonalar (firma)lari;
 - g) jamoa korxonalarini;
 - d) kooperativ korxonalar.
4. Quyidagidardan qaysi biri korxonalar uyushmalari (tashkiliy-iqtisodiy shakllar) sifatida chiqadi?
 - a) karterlar;
 - b) sindikatlar;
 - v) konsern;
 - g) konsorsium;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
5. Quyidagilardan qaysi biri mehnat jamoasi tomonidan boshqarilmaydigan korxonalar hisoblanadi?
 - a) ishlab chiqarish kooperativlari;
 - b) shirkatlar;
 - v) artellar;
 - g) kartellar;
 - d) mulk paychiligidagi korxonalar.
6. Biznesni tashkil qilishning quyidagi asosiy shakllaridan qaysi biri o'z mehnati bilan qatnashishni taqozo qilmaydi?
 - a) sherikchilik;
 - b) shaxsiy biznes;
 - v) mas'uliyati cheklangan jamiyat;
 - g) korporatsiya;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
7. Biznes-rejaning mohiyati quyidagi tasdiqlardan qaysi birida to'laroq namoyon bo'ladi?

- a) rejalashtirishning aniq ifodalanishi;
- b) firmani boshqarish vositasi;
- v) yangi g'oya maqsadining asoslanishi;
- g) maqsadga erishish yo'llarining taklif qilinishi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

8. Mablag'larni olish manbalari va miqdori, ularni to'liq qaytarish va qoplash muddati moliyaviy rejaning qaysi bo'limida aks etadi?

- a) ishlab chiqarish rejasi;
- b) tashkiliy reja;
- v) moliyaviy reja;
- g) moliyalashtirish strategiyasi;
- d) marketing strategiyasi.

9. Quyidagilardan qaysi biri marketing tushunchasi mohiyatini to'laroq tavsiflaydi?

- a) mahsulotni sotish bo'yicha vazifalarni belgilash;
- b) istiqbolni ko'zlab bozorni o'rganish;
- v) xarid bilan o'zaro munosabatlarni ishlab chiqish;
- g) raqobat kurashining shakl va usullarini belgilash;
- d) reklamani tashkil qilish.

10. Reklamaning asosiy maqsadi nima?

- a) korxonani siymosini yaratish;
- b) joriy sotish hajmini ko'paytirish;
- v) xaridorga nimani sotib olish zarurligini hal qilishda yordamlashish;
- g) mijozlarni to'plash va kengaytirish;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

11. Firmani boshqarish prinsiplaridan qaysi biri mavjud kuch va harakatni bog'lashni taqozo qiladi?

- a) oldindan ko'rish;
- b) tashkil qilish;
- v) idora qilish;
- g) muvofiqlashtirish;
- d) nazorat qilish.

12. Boshqarishning qaysi tipida boshqaruvchilarning ixtisoslashuvi to'laroq namoyon bo'ladi?

- a) liniyali;
- b) funksional;
- v) liniyali-funksional;
- g) korporatsiyalarni boshqarish tizimi (to'rt bosqichli);
- d) yuqoridagilarning barchasi.

13. Tadbirkor foyda olishga qaratilgan maqsadini qanday vazifalarni bajarish orqali ro'yobga chiqaradi?

- a) biznesga tegishli asosiy qarorlar qabul qilish;
- b) iqtisodiy resurslarni birlashtirish;
- v) ishlab chiqarish va tijorat faoliyatida tashabbus ko'rsatish;

g) tahlikaga borish;

d) yuqoridagi barcha vazifalar orqali.

14. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish shart-sharoitlari nimadan iborat?

a) xo'jalik yuritish subyekti sifatida iqtisodiy erkinlikka ega bo'lishi;

b) mulkchilik huquqiga ega bo'lish;

v) iqtisodiy muhit va ijtimoiy siyosiy shart-sharoit;

g) mulkchilik va xo'jalik yuritishning turli-tuman shakllari;

d) yuqoridagilarning barchasi.

15. Quyidagilardan qaysi biri «tadbirkorlik faoliyati» tushunchasining mazmunini nisbatan to'laroq ifodalaydi?

a) foyda olish maqsadini ko'zlab qandaydir tijorat g'oyasini tavakkalchilik bilan amalga oshiruvchi mulkdor (A.Smit);

b) eng ko'p foyda olish maqsadida ishlab chiqarish omillarini bir-biriga uyg'unlashtirish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy gumashta (D.B.Sey);

v) iqtisodiy faoliyatning tarkibiy qismi;

g) xo'jalik yurituvchi subyektlarning foyda olish maqsadida, mulkiy mas'uliyat ostida va amaldagi qonunlar doirasida tahlika bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishi;

d) yuqoridagilarning barchasi.

16. Tadbirkorlik kapitali qanday shakllarda mavjud bo'ladi?

a) pul va unga tenglashtirilgan qimmatli qog'ozlar shaklida;

b) unumli kapital yoki ishlab chiqarish vositalari shaklida,

v) tovar va mahsulot zaxiralari shaklida;

g) tugallanmagan ishlab chiqarish va ehtiyot fondlari shaklida;

d) yuqoridagi barcha shakllarda.

17. Asosiy va aylanma kapital o'rtasidagi farqlar nimadan kelib chiqadi?

a) xizmat qilish davridagi farqlardan;

b) qiymatini mahsulotga ko'chirish usulidagi farqlardan;

v) ma'lum vaqt ichida aylanish qilish sonidagi farqlardan;

g) qayta tiklanishidagi farqlardan;

d) yuqoridagilarning barchasidan.

18. Asosiy kapitalning jismoniy eskirishi qachon ro'y beradi:

a) foydalanish jarayonida;

b) harakatsiz turish natijasida;

v) tabiiy kuchlarning ta'sirida;

g) maqsadli foydalanilmaganda;

d) yuqoridagilarning barchasida.

19. Amortizatsiya qanday jarayonni aks ettiradi?

a) asosiy kapitalning jismoniy eskirishini;

b) asosiy kapitalning ma'naviy eskirishini;

v) asosiy kapitalning eskirishiga muvofiq ularning mahsulotga ko'chgan qiymatini pul shaklida hisoblab borishini va o'rmini qoplash maqsadida pul fondlari jamg'arish jarayonini;

g) asosiy kapitalning jismoniy va ma'naviy eskirish jarayonini;

d) yuqoridagilarning barchasini.

20. Amortizatsiya normasi qanday omilga bog'liq?

a) asosiy kapital pul bahosiga;

b) aylanma kapital qiymatiga;

v) asosiy kapital foydalanish davri davomida qilinadigan kapital remont sarflar darajasiga;

g) ishdan chiqqan asosiy kapitalni tugatishdan olinadigan mablag'lar darajasiga;

d) yuqoridagi barcha omillarga.

21. Amortizatsiya ajratmalarini hisoblash uchun asosiy kapital qanday usullarda baholanadi?

a) dastlabki qiymati bo'yicha;

b) qoldiq qiymati bo'yicha;

v) qayta tiklash qiymati bo'yicha;

g) takror ishlab chiqarish qiymati bo'yicha;

d) yuqoridagi barcha usullar bo'yicha.

22. Aksiyadan olinadigan dividend 900 so'm, ssuda foizi 30% bo'lganda aksiya kursi qanday summani tashkil qiladi?

a) 30000 so'm;

b) 300000 so'm;

v) 3000 so'm;

g) 300 so'm;

d) 30 so'm.

23. Asosiy kapital (fond)ning dastlabki qiymati 15 mln. so'm, amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi 600 ming so'm bo'lsa, amortizatsiya normasi qanday miqdorni tashkil qiladi?

a) 4,0%;

b) 6,0%;

v) 2,5%;

g) 5,04%;

d) 3,0%.

24. Asosiy kapitalning amortizatsiya normasi 4,0% bo'lsa, aylanish davri qancha vaqtni tashkil qiladi?

a) 20 yil;

b) 25 yil;

v) 50 yil;

g) 30 yil;

d) 40 yil.

12-MAVZU. SARF-XARAJATLAR VA FOYDA NAZARIYALARI

1-§. Ishlab chiqarish xarajatlari mazmuni, tarkibi va turlari

Iqtisodiy faoliyatning har qanday turini amalga oshirish uchun muayyan iqtisodiy resurs sarf-xarajatlari taqozo qilinadi. Ular **iqtisodiy xarajatlar** deyiladi.


Iqtisodiy xarajatlar turlari*	
Ishlab chiqarish jarayoniga iqtisodiy resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanish natijasida vujudga keladigan sarf-xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi.	
Ishlab chiqarish xarajatlari (W) tarkibi.	Resurslar uchun to'lovlar (RT) <ul style="list-style-type: none">· Ish haqi (Ih)· Foiz to'lovlari(ch)· Renta to'lovlari (R)· Me'yoridagi foyda (Rm)
$W = P_T(I_h + CH + R + P_m) + A_m + A_y + B_x$	Asosiy kapital amortizatsiyasi, (Am)
	Aylanma kapital qiymati, (Ay) <ul style="list-style-type: none">· Xom ashyo va materiallar.· Yoqilg'i, energiya va h.k.
	Boshqa xarajatlar: <ul style="list-style-type: none">· Ijtimoiy sug'urta ajratmalari.· To'g'ri soliqlar va boshqa to'lovlar.

* Iqtisodiy faoliyatning barcha turlarida iqtisodiy xarajatlar bir hil mazmunni kasb etishi sababli, ishlab chiqarish xarajatlarini batafsil qarab chiqamiz.



2-§. O'rtacha xarajatlar va ularning turlari. Qo'shilgan xarajatlar

Mahsulot (yoki xizmat) birligini ishlab chiqarishga qilingan sarf-xarajatlar o'rtacha xarajatlar deyiladi




Qo'shilgan xarajatlar – bu tovarlarning qo'shimcha to'plami (yoki partiyasi) ni ishlab chiqarishga qilingan sarf-xarajatlar.

O'rtacha qo'shimcha xarajatlar.

Qo'shimcha xarajatlarni (M) keyingi qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (Q)ga nisbatiga teng, ya'ni

$$\bar{X}_m = \frac{M}{Q}$$


3-§. Foyda va uning miqdorini belgilovchi omillar




Foyda miqdorini belgilab beruvchi asosiy omillar:

- ishlab chiqarish xarajatlari darajasi;
- bozor baholari darajasi.

Yalpi foyda hosil bo'lishi va taqsimlanish





12-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLARI

1. Quyidagilardan qaysi biri qisqa davrda o'zgaruvchi xarajatlar hisoblanadi?

- a) amortizatsiya ajratmalari;
- b) ijara haqi;
- v) boshqaruv xodimlari maoshi;
- g) xom ashyo va material xarajatlari;
- d) soliqlar.

2. Quyidagi sarf-xarajatlardan qaysi biri mahsulotning moddiy-buyum shaklini belgilab beradi.

- a) ish haqi;
- b) xom ashyo va materiallar;
- v) yonilg'i va moylash materiallari;
- g) amortizatsiya ajratmasi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

3. Quyidagilardan qaysi biri qisqa davrdagi doimiy xarajat hisoblanadi?

- a) xom ashyo xarajatlari;
- b) material xarajatlari;
- v) yonilg'i xarajatlari;
- g) amortizatsiya ajratmasi;
- d) ishlovchilar ish haqi.

4. Quyidagilardan qaysi biri korxonaga uchun ichki xarajat hisoblanadi?

- a) bino va inshootlar amortizatsiyasi;
- b) yollanib ishlovchilar ish haqi;
- v) xom ashyo xarajatlari;
- g) energiya uchun to'lovlar;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

5. Qisqa muddatli davrda korxonaga ishlab chiqarish hajmini nima hisobiga oshirib borishi mumkin?

- a) ishlab chiqarish quvvatlaridan intensiv foydalanish;
- b) ko'p smenalikni joriy qilish;
- v) qo'shimcha ishchi kuchini yollash;
- g) ko'proq xom ashyo va boshqa resurslarni jalb qilish;
- d) yuqoridagilarning barchasi hisobiga.

6. Ishlab chiqarish resurslari tarkibidagi quyidagi o'zgarishlardan qaysi biri uzoq muddatli davrga tegishli?

- a) uchinchi ish smenasini joriy qilish;
- b) qo'shimcha ishchilarni yollash;
- v) yangi quvvatlarni ishga tushirish;

g) qo'shimcha xom ashyo va materiallarni sotib olish;

d) yuqoridagilarning barchasi.

7. Doimiy xarajatlar 72 ming so'm, o'zgaruvchi xarajatlar 188 ming so'm bo'lganda, 520 dona mahsulot ishlab chiqarilsa, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan umumiy xarajatlar necha so'mni tashkil qiladi?

a) 50 so'm;

b) 5000 so'm;

v) 500 so'm;

g) 5 so'm;

d) 550 so'm.

8. Korxonada oyiga 1500 dona mahsulot ishlab chiqariladi. Mahsulot birligining bahosi 500 so'm, ishlab chiqarish xarajatlari 350 so'm bo'lsa, korxonaning yalpi foydasi necha so'mni tashkil qiladi?

a) 245 000;

b) 275 000;

v) 225 000;

g) 235 000;

d) 215 000.

9. Korxonaning sof foydasi 200 ming so'm, ishlab chiqarish xarajatlari 800 ming so'm bo'lganda, foyda normasi qanday miqdorni tashkil qiladi?

a) 35%;

b) 50%;

v) 25%;

g) 40%;

d) 30%.

10. Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot umumiy hajmi o'zgarmay qolganda foydani qanday o'stirish mumkin?

a) ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga;

b) mahsulot bahosini oshirish hisobiga;

v) qo'shimcha resurslarni jalb qilish hisobiga;

g) a) va b) to'g'ri;

d) b) va v) to'g'ri.

11. Korxonaning foyda olishi yoki zarar ko'rganligi qanday aniqlanadi?

a) mahsulot sotishdan olingan yalpi pul tushumlari yalpi xarajatlar bilan taqqoslanadi;

b) mahsulot birligining bahosi unga qilingan xarajatlar bilan taqqoslanadi;

v) korxonaning tashqi xarajatlari yalpi pul tushumlari bilan taqqoslanadi;

g) a) va b) to'g'ri;

d) b) va v) to'g'ri.

12. Korxonada foydasi qachon o'zining eng yuqori darajasiga yetadi?

a) ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanganda;

b) mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib borganda;

v) eng oxirgi mahsulot bahosi unga qilingan xarajatlarga teng bo'lganda;

g) resurlar to'liq band qilinganda;

d) iqtisodiy xarajatlar tejaliganda.

13. Korxonada ishlab chiqarish hajmi kengayib borishi bilan qaysi omil mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'rtacha xarajatlar pasayishi tomonga ta'sir ko'rsatadi?

a) mehnatning ixtisoslashuvi;

b) boshqarishning ixtisoslashuvi;

v) resurslardan samarali foydalanish;

g) qo'shimcha mahsulot turlarini ishlab chiqarish;

d) yuqoridagilarning barchasi.

14. Quyidagilardan qaysi biri korxonada uchun tashqi xarajatlar hisoblanadi?

a) ishchi kuchini yollash xarajatlari, renta, foiz to'lovlari;

b) bino va inshootlar amortizatsiyasi;

v) boshqaruvchilar maoshi;

g) me'yoridagi foyda;

d) mashina va uskunalarni joriy remont qilish xarajatlari.

13-MAVZU. ISH HAQI VA MEHNAT NAZARIYALARI

1-§. Taqsimot munosabatlarida ish haqining mohiyati. Nominal va real ish haqi

Yaratilgan mahsulot (daromad)lar taqsimlanishi to'g'risidagi nazariya ar

«Ishlab chiqarishning uch omili» nazariyasi (J.B.Sey). Bu g'oyaga ko'ra tovarlarni ishlab chiqarishda mehnat, yer va kapital bir xil darajada qatnashadi, shu sababli daromadlar shu omillar o'rtasida taqsimlanishi zarur.


Qo'shilgan omil (keyingi qo'shimcha jalb qilingan kapital yoki ishchi) unumdorligi nazariyasi (J.B.Klark). Bu nazariyada yaratilgan bo'yluk har uchala omil o'rtasida ularning har bir jalb qilinganlarining unumdorligiga qarab taqsimlanishi lozimligi ta'kidlanadi.

Ish haqining mohiyatini aniqlashga turli xil yondashuvlar

«Yashash uchun vosita minimumi» (D.Rikardo, T.Maltus) konsepsiyasida ish haqi yashash uchun zarur vositalarning eng kam miqdori bilan bir xil deb hisoblanadi.

Qiyamatning mehnat nazariyasida (klassik siyosiy iqtisod maktabi vakllari) ish haqiga alohida, o'ziga xos tovar hisoblangan ishchi kuchi qiymatining o'zgargan shakli ya'ni ishchi kuchini takror hosil qilish uchun zarur bo'lgan tirikchilik vositalarining qiymati sifatida qaraladi.

Ish haqining hozirgi zamon nazariyalarida ish haqiga mehnat (ishchi kuchi)ning aniq bozorida uning bahosi sifatida qaraladi.



Real ish haqi boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda nominal ish haqi miqdoriga to'g'ri mutanosiblikda, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi darajasiga teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Boshqacha aytganda,

$$V_p = \frac{V_n}{P}$$

V_p – real ish haqi;

V_n – nominal ish haqi;

P – iste'mol tovarlari va xizmatlarga narx darajasi.

Mamlakatda ish haqining umumiy darajasini belgilab beruvchi omillar:

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi.

Mehnatning asosiy kapital bilan qurollanish darajasi.

Mehnatning tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi.

Mavjud ishlab chiqarish texnologiyasi.

Mehnatning umumiy malakaviy darajasi

Taqsimotning tarkib topgan tizimi va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy omillar.

2-§. Ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari

Ish haqi shakllari:

Vaqtbay ish haqi

Bunda ish haqi ishning davomiyligiga, ya'ni ishlangan vaqtga qarab to'lanadi.

Ishbay ish haqi

Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ishning hajmiga qarab belgilanadi.

Vaqtbay ish haqi qo'llaniladi

- mehnatning natijalarini aniq hisoblab bo'lmaydigan sohalarda;
- mahsulot ishlab chiqarish hajmi bevosita xodimlar mehnatiga bog'liq bo'lmagan, ya'ni texnologik jarayonlarning borishi bilan belgilanadigan sohalarda. Masalan, konveyrli va avtomat liniyalik ishlab chiqarishda;
- lavozimdagi yoki aniq xizmat vazifasini bajaruvchilar uchun. Masalan, muhandis-texnik xodimlar, turli darajadagi boshqaruvchilar, xizmatchilar va boshqa shu kabilarga ish haqi to'lashda.

Ishbay ish haqi to'lashda ish haqi miqdori (V) ayrim kasb (mehnat turlari)lar uchun ta'rif stavkasida belgilangan haqini (Vts) ishlab chiqarishning me'yorlashtirilgan hajmiga (Qm) bo'lish orqali mahsulot birligi ratsenkasi ($Mrats$) aniqlab olinib, keyin u ishlab chiqarishning umumiy hajmi (Q) ga ko'paytiriladi:

$$Mrats = \frac{Vts}{Qm}$$

$$V = Mrats \cdot Q$$

Ish haqi to'lashning aniq mehnat sharoitlarini hisobga olib, qo'llaniladigan turlari ish haqi tizimini tashkil qiladi.

Ishbay ish haqi tizimi

Oddiy ishbay

Bunda ish haqi mahsulot birligi uchun belgilangan yagona ratsenka bo'yicha to'lab boriladi.

Ishbay mukofoti

Bunda ishlab chiqarishning natijalari va boshqa ko'rsatkichlar uchun mukofot berish nazarda tutiladi.



Ishbay progressiv

Bunda ishlab chiqarishning me'yorlashtirilgan hajmi uchun belgilangan va undan ortiqchasiga oshirilgan ratsenka bo'yicha ish haqi to'lanadi.

Tarmoqlar, mamlakat hududlari, ishlab chiqarish va kasb turlari, turli toifadagi xodimlar hamda xizmat vazifalari bo'yicha ish haqi darajasini tabaqalashtirish **tarif** tizimi orqali amalga oshiriladi.

Tarif tizimi	→	Tarif – malaka ma'lumotnomalari. Unda ayrim kasb va ish turlarining ta'rifi, aniq bir ishni bajaruvchilarning malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar hamda ularning razryadlari ko'rsatiladi.
	→	Tarif – setkasi. Unda birinchi va unday keyingi razryadli xodimlar mehnatiga haq to'lashning o'zaro nisbatini aks ettiruvchi tarif koeffitsientlari ko'rsatiladi.
	→	Ish haqiga turli koeffitsientlar. Unda mehnat qilish sharoiti og'ir bo'lgan hududlar va zararli ishlarda ishlovchilar tarif stavkasiga qo'shimcha koeffitsientlar belgilanadi.

3-§. Ishchi kuchi bozorining alohida modellarida ish haqi darajasining aniqlanishi. Inson kapitaliga investitsiyalar



Ishchi kuchi umumiy taklifini belgilab beruvchi omillar:

- mamlakat aholisining soni;
- aholining umumiy sonida mehnatga yaroqli bo'lganlar salmog'i;
- aholining jinsiy va yosh tarkibi.

Mehnatning sof raqobatli bozorda ish haqi darajasining aniqlanishi:

- ish haqi darajasi alohida mehnat turiga yalpi talab va uning yalpi taklifi ta'sirida shakllanadi;
- alohida ishga yollanuvchilar va ishga yollovchilar ish haqi darajasiga ta'sir ko'rsata olmaydi;
- mehnatga umumiy talab yoki uning umumiy taklifidagi ancha katta o'zgarishlar ish haqi darajasida o'zgarish bo'lishiga olib keladi.

Monopsoniya sharoitida ish haqi darajasining aniqlanishi:

- ishga yollovchilar ish haqi darajasini belgilashda nisbiy hukmronlikka ega bo'ladi;
- alohida mehnat turi taklifining cheklanishi ish haqi o'rtacha darajasining ko'tarilishiga olib keladi;
- mehnat turiga talab kamayganda ish haqi darajasi pasayadi.

Inson kapitaliga investitsiyalar:

- ta'limga va malakaviy tayyorgarlikka investitsiyalar;
- sog'liqni saqlashga investitsiyalar;
- ishchi kuchi qo'nimligini ta'minlashga investitsiyalar.

4-§. Mehnat munosabatlarining iqtisodiy mazmuni va uni tartibga solishda kasaba uyushmalari roli

Mehnat munosabatlari – bu bir tomondan ish beruvchilar boshqa tomondan ishga yollanuvchilar hamda davlat va kasaba uyushmalari o'rtasida ishchi kuchini yollash yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Ishga yollash bo'yicha ma'muriyat va ishchilar o'rtasidagi mehnat munosabatlari mehnat shartnomalari yordamida tartibga solinadi.

Mehnat shartnomalarining tarkibiy tuzilishi:

- ish haqi stavkasi;
- me'yordan ortiqcha bajarilgan ishlar uchun ish haqi to'lash tartibi;
- dam olish kunlari, tanaffuslar va mehnat ta'tilining belgilanish tartibi;
- pensiya fondlari va sog'liqni saqlashga ajratmalar miqdori;
- narxlar o'zgarishini hisobga olib, iste'molchilik savatini tartibga solish sharoitlari;
- mehnatning boshqa umumiy va tashkiliy shart-sharoitlari.

Davlatning mehnat munosabatlariga ta'sir ko'rsatish usullari va yo'llari:

- mehnat munosabatlarining barcha tomonlarini qamrab oluvchi qonunchilik faoliyati;
- maqsadli ijtimoiy dasturlarni (kam ta'minlangan oilalarga yordam, ishsizlik bo'yicha nafaqa, turli ijtimoiy to'lovlar, pensiya ta'minoti va boshq.) ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ish haqining eng kam darajasi (minimal ish haqi)ni aniqlash va o'zgartirish;
- ishga yollashning umumiy shart-sharoitlarini belgilash;
- bandlik xizmati (Mehnat birjalari) faoliyatini amalga oshirish;
- davlat ta'lim tizimi orqali ishchilarni o'qitish va qayta tayyorlashni tashkil qilish.

Kasaba uyushmalarining mehnat munosabatlariga aralashishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar:

- Ishsizlikni ijtimoiy kafolatlash.
- Mehnat sharoitlarini yaxshilash.
- Ish haqini oshirish.

Kasaba uyushmalarining ish haqini oshirishga erishishga qaratilgan chora-tadbirlari:

I. Ishchi kuchiga talabni ko'paytirish:

- ishlab chiqariladigan mahsulot yoki xizmatga talabni rag'ballantirish;
- mehnatni unumdorligini oshirish;
- ishchi kuchi bilan birgalikda foydalaniladigan boshqa resurslar narxini o'zgartirish.

II. Ishchi kuchi taklifini qisqartirish:

- immigratsiyani cheklash;
- bolalar mehnatini qisqartirish;
- pensiyaga o'z vaqtida chiqishni qo'llab-quvvatlash;
- ish haftasini qisqartirishga erishish.

III. Kasbni malakali litsenziyalash:

- ta'lim darajasi, mutaxassislik bo'yicha ish staji, attestatsiya natijalari va shaxsiy fazilatleri bo'yicha

- IV. Monopol mavqega ega bo'lgan tadbirkorlarga turli xil yo'llar bilan, xususan ish tashlashni tashkil qilish orqali ta'sir ko'rsatish.**

13-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Mamlakatda ish haqining umumiy darajasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

- a) foydalanilgan umumiy kapital miqdori;
- b) foydalanilgan tabiiy resurslar miqdori;
- v) texnologiya;
- g) mehnat unumdorligi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

2. Qaysi nazariya ish haqini yashash uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarning eng kam jismoniy miqdori bilan bir xil deb hisoblaydi?

- a) ish haqini tovar bo'lgan ishchi kuchi qiymatining o'zgargan shakli deb hisoblovchi nazariya;
- b) ish haqini «yashash uchun vosita minimumi» deb hisoblovchi klassik nazariya;
- v) ish haqini mehnat bahosi deb hisoblovchi hozirgi zamon G'arb iqtisodiy nazariya;
- g) a) va b) to'g'ri;
- d) yuqoridagilarning barchasi to'g'ri.

3. Ish haqining mohiyatini quyidagi tasdiqlardan qaysi biri to'laroq ochib beradi?

- a) ish haqi belgilangan vaqt davomida ma'lum bir topshiriqni, ish hajmini yoki xizmat vazifasini bajarganlik uchun ishchi kuchi egasiga to'lanadigan, ular sarflagan mehnatning pul ekvivalenti;
- b) ish haqi iqtisodiy resurs hisoblangan mehnatning bahosi;
- v) ish haqi ishchi kuchi egasining hayot va mehnat faoliyatini ta'minlash vositasi;
- g) yuqoridagilarning barchasi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

4. Ish haqining vazifasi nimadan iborat?

- a) ishchi va uning oilasining hayot faoliyati uchun sharoitni ta'minlash;
- b) ishlovchining mehnat faoliyati uchun sharoit ta'minlash;
- v) sarflangan mehnatning miqdori va sifatini hisobga olish;
- g) iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

5. Ish haqining qaysi tizimida normadan ortiqcha bajarilgan ish yoki ishlab chiqarilgan mahsulotga o'sib boruvchi ratsenka bo'yicha haq to'lanadi?

- a) oddiy ishbay;

b) ishbay - mukofat;

v) ishbay - progressiv;

g) a) va b) to'g'ri;

d) yuqoridagilarning barchasi.

6. Nominal ish haqining to'g'ri ta'rifini toping:

a) ma'lum vaqt oralig'ida pul shaklida olingan ish haqi;

b) ish haqining sotib olish layoqati;

v) barcha pul daromadlari (foyda, renta, foiz) summasi;

g) a) va b) to'g'ri;

d) yuqoridagilarning barchasi.

7. Real ish haqining to'g'ri ta'rifini toping:

a) nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori;

b) pul shaklida olingan ish haqi;

v) ish haqining pul shaklida qat'iy belgilangan stavkasi;

g) yuqoridagilarning barchasi;

d) to'g'ri javob yo'q.

8. Real ish haqining darajasiga qanday omil ta'sir ko'rsatadi?

a) nominal ish haqi;

b) xarid qilinadigan tovar va xizmatlar bahosi;

v) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;

g) natural shaklda olingan daromad;

d) yuqoridagilarning barchasi.

9. Real ish haqi darajasi quyidagilarning qaysi birining o'zgarishiga to'g'ri mutanosib bog'liqlikda o'zgaradi?

a) tovar (xizmat)lar bahosi;

b) nominal ish haqi miqdori;

v) soliqlar darajasi;

g) majburiy to'lovlar;

d) yuqoridagilarning barchasi.

10. Iste'mol tovar (xizmat)lari bahosi 150% ga tushib, nominal ish haqi 150% ga oshsa, real ish haqi darajasida qanday o'zgarish bo'ladi?

a) real ish haqi 2,5 marta ortadi;

b) real ish haqi 1,5 marta ortadi;

v) real ish haqi 2,0 marta ortadi;

g) real ish haqi 3,0 marta ortadi;

d) yuqoridagilarning barchasi.

11. Mehnatning aniq turiga ish haqining darajasi nima ta'sirida shakllanadi?

a) shu mehnat turi taklifi ta'sirida;

b) shu mehnat turiga talab ta'sirida;

- v) shu mehnat turiga talab va taklif ta'sirida;
- g) boshqa iqtisodiy resurslarga talab va taklif ta'sirida;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

12. Ishchi kuchi (mehnat)ning aniq bozorida qachon ish haqining o'sishi ro'y beradi?

- a) ishchi kuchiga talab cheklanganda;
- b) ishchi kuchi taklifi cheklanganda;
- v) taklif o'sib, talab cheklanganda;
- g) boshqa iqtisodiy resurslarga talab cheklanganda;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

13. Mamlakatda ish kuchining umumiy taklifini belgilab beruvchi asosiy omilni toping:

- a) aholi soni;
- b) aholi sonida mehnatga layoqatlilar ulushi;
- v) tabiiy ishsizlar darajasi;
- g) umumiy ishsizlar darajasi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

14. Ishchi kuchining raqobatli bozori qanday belgi bilan ifodalanadi?

- a) ishga yollashda ko'p sonli firmalar bir-biri bilan raqobatlashadi;
- b) bir hil malakali, ko'p sonli ishchilar o'zlarining ishchi kuchini taklif qiladi;
- v) alohida firmalar va alohida ishchilar ish haqining darajasi ustidan nazorat qila olmaydi;
- g) bozorga kirish uchun to'siqlar mavjud bo'lmaydi;
- d) yuqoridagilarning barchasi bilan.

15. Firmalar qachon ish haqining darajasini oshirishga majbur bo'ladi?

- a) ishsizlar ko'payganda;
- b) ishsizlik mavjud bo'lmaganda;
- v) ishga yollovchi boshqa raqobatchi firma bo'lmaganda;
- g) kasaba uyshmalar mehnat munosabatlariga aralashmaganda;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

16. Ishga yollovchi monopoli mavqega ega bo'lgan ishchi kuchi bozori qanday belgi bilan ifodalanadi?

- a) yagona firma aniq mehnat turining asosiy qismiga taklif bildiradi;
- b) mehnatning mazkur turi nisbatan barqaror (geografik omil yoki kasbini o'zgartirish qiyinligi tufayli);
- v) firma ish haqi darajasi ustidan nazorat qila oladi;
- g) boshqa firmalar mazkur mehnat turiga talab bildirmaydi;
- d) yuqoridagilarning barchasi bilan.

17. Mehnat shartnomasida nimalar aks etadi?

- a) ish haqi darajasi, ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavka;
- b) dam olish kunlari, tanaffuslar;
- v) pensiya fondi, sog'liqni saqlashga ajratma;
- g) baholar o'zgarganda ish haqini tartibga solish tizimi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

18. Kasaba uyushmalari ish haqi darajasini oshirishga qanday yo'llar bilan erishishi mumkin?

- a) ishchi kuchiga talabni oshirish orqali;
- b) ishchi kuchi taklifini qisqartirish orqali;
- v) aniq kasbni malakali litsenziyalash orqali;
- g) mehnat unumdorligini oshirish orqali;
- d) yuqoridagi barcha yo'llar bilan.

19. Kasaba uyushmalari ishchi kuchiga talabni qanday qilib oshiradi?

- a) ishlab chiqariladigan mahsulot (xizmat)ga talabni oshiradi;
- b) mehnat unumdorligini oshiradi;
- v) qo'llaniladigan boshqa omillar baholarini o'zgartiradi;
- g) b) va v) to'g'ri;
- d) yuqoridagilarning barchasi orqali.

20. Kasaba uyushmalari ishchi kuchi taklifini qisqartirishga qanday erishadi?

- a) immigratsiyani cheklaydi;
- b) bolalar mehnatini cheklaydi;
- v) pensiyaga o'z vaqtida chiqishni quvvatlaydi;
- g) ish haftasini qisqartiradi;
- d) yuqoridagi barcha yo'llar bilan.

21. Ish haqi darajasida farqlar bo'lishini keltirib chiqaruvchi sabab nima?

- a) ishchilarning layoqati darajasidagi farqlar;
- b) ish turlarining turli-tuman bo'lishi;
- v) ishchi kuchi raqobatining cheklanganligi;
- g) ishchilarning malakasidagi farqlar;
- d) yuqoridagi barcha sabablarga ko'ra.


22. Ish haqi darajasini tabaqalashtirishga qanday erishiladi?

- a) tarif - malakali spravochniklari yordamida;
- b) tarif - setkalari yordamida;
- v) tarif - stavkalari yordamida;
- g) ish haqiga qo'shimcha koeffitsienlar yordamida;
- d) yuqoridagilar yordamida.

23. Inson kapitaliga investitsiyalar qanday sarflarni o'z ichiga oladi?
- a) umumiy va maxsus ta'limga hamda malaka oshirishga sarflarni;
 - b) sog'liqni saqlashga va tibbiy yordam ko'rsatishga sarflarni;
 - v) ishchilarning migratsiyasi (harakatchanligi)ni cheklash uchun sarflarni;
 - g) malaka oshirishga sarflarni;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
24. Turli xil kasblar va bir kasbdagi turli ishchilar ish haqi darajasidagi katta farqlar mavjud bo'lishini nima belgilab beradi?
- a) aniq ishchi kuchi (mehnat) taklifi va unga bo'lgan talab o'rtasidagi katta farqlar;
 - b) ishchilarning qobiliyati va tayyorgarlik darajasi bo'yicha farqlanishi;
 - v) ish turlari o'zlarining jozibadorligi bilan farqlanishi;
 - g) ishchi kuchi bozorining aksariyat hollarda cheklangan raqobat bilan ifodalanishi;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
25. Inson kapitaliga investitsiyalardan qaysi biri bir vaqtda ish haqi darajasida ko'proq farqlar bo'lishiga olib keladi?
- a) ta'lim va kasbiy tayyorgarlikka investitsiyalar;
 - b) sog'liqni saqlashga investitsiyalar;
 - v) harakatchanlikni geografik cheklashga investitsiyalar;
 - g) harakatchanlikni muassasaviy cheklashga investitsiyalar;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
26. Qaysi iqtisodiy resursning taklifi mutlaq cheklangan (doimiy)?
- a) kapital;
 - b) yer va boshqa tabiiy resurslar;
 - v) ishchi kuchi;
 - g) tadbirkorlik layoqati;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.

14-MAVZU. RAQOBAT NAZARIYASI

1-§. Raqobatning mohiyati, iqtisodiy asoslari va rivojlanish bosqichlari



Raqobatning iqtisodiy asosi—bu ishlab chiqaruvchilar, resurs egalari va iste'molchilarning tadbirkor, mulk va daromad egasi sifatida erkin hamda mustaqil bo'lishidir.

Raqobatning rivojlanish bosqichlari:


- I. Oddiy tovar xo'jaligiga xos bo'lgan raqobatchilik, bosqichi.
- II. Sof yoki erkin raqobatga asoslangan bosqich.
- III. Monopolistik raqobat bosqichi.
- IV. Hozirgi zamon madaniy jihatdan rivojlangan raqobatchilik bosqichi.

«Iqtisodiyotni erkinlashtirish haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi.

Raqobat bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir» .

1. A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqa. T., «O'zbekiston», 1999, 34-bet.

2-§. Raqobat shakllari. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat



Raqobat shakllari / asosiy belgilari	Sof raqobat	Sof monopoliya	Monopolistik raqobat	Oligopoliya
1. Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)lar) soni	Juda ko'p	Yagona	Nisbatan ko'proq	Kam sonli
2. to'siqlarning mavjudlik darajasi	Mavjud emas	Katta. taqiqlash bilan barobar	Unchalik katta emas	Katta

Tarmoq ichidagi raqobat—mahsulot ishlab chiqarish va sotishda qulay sharoitga ega bo'lish uchun bir tarmoq korxonalar o'rtasida boradi. Tarmoq ichidagi raqobat natijasida turli ishlab chiqaruvchilar tovarlarning individual (alohida) narxi bozor narxiga aylanadi.

Tarmoqlar o'rtasidagi raqobat—turli tarmoq korxonalari o'rtasida yuqori foydaga ega bo'lish uchun boradi. Bu raqobat natijasida korxonalarda hosil bo'lgan turli foyda normalari o'rtacha foydaga aylanib boradi.

Milliy xo'jalik doirasidagi raqobat—natijasida o'rtacha narxlar va bozor subyektlarining yalpi milliy (ichki) mahsulotdagi ulushi aniqlanadi.

Jahon xo'jaligidagi raqobat – turli davlatlar milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozorida mavqeini mustahkamlash uchun boradi va uning natijasida alohida tovarlarning jahon narxlarini shakllanadi.


Tartibsiz (stixiyali) raqobat – bozor kuchlarining ta'sirida, tabiiy ravishda ro'y beradi.

Tartibga solinadigan raqobat – madaniylashgan tarzda va ma'lum me'yorlar doirasida sodir bo'ladi.

Narxning raqobat vositasi sifatida qo'llanilish darajasiga qarab narx yordamidagi va narxsiz raqobat ajratiladi.

Raqobatlashishda g'ayrioddiy usullar (josuslik, qotillik, zo'ravonlik va h.k.)ning qo'llanilish darajasiga ko'ra, halol va g'irrom raqobat farqlanadi.

3-§. Raqobat usullari: narx yordamida va narxsiz raqobat



Narxsiz raqobatlashish

Tovar sifatini tabaqalashtirish – bir xildagi ehtiyojni qondiradigan va bir turgaga mansub bo'lgan tovarlar turlicha iste'mol xossalari ega bo'ladi.

Tovarlarni kreditga sotish – tovarlar nisbatan ortiqcha bo'lgan sharoitda ishlab chiqaruvchi o'z tovarlarini narxini kechiktirib to'lash sharti bilan sotib, raqiblaridan ustun kelishi mumkin.

Sotish vaqtida va kafolatlangan muddatda tekin servis xizmati ko'rsatish.

Marketing – uning vositasida mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtirishga harakat qilinadi.

Reklama, tovar belgilari, firma muhirlari hamda qadoqlash usullari tovarlar jozibadorligini oshirish va sotish hajmining ko'payishini rag'batlantirishning muhim yo'llari hisoblanadi.

4-§. Iqtisodiy monopoliya: mohiyati va turlari. Antimonopol qonunchilik

Monopoliya* – iqtisodiy faoliyatining biror sohasida (ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tijorat va h.k.) korxonaga yoki davlatning tanho hukmronligini ifodalaydi.

Monopoliyalarning kelib chiqish sabablari:

- Kaptalning to'planishi va markazlashishi.
- Fan-texnika taraqqiyoti.
- Davlatning ayrim faoliyat sohaslarini qo'llab-quvvatlashi.
- O'zaro kelishish.

*belgilang' inon'am nsg'eb- ,nemstob-«siloq» ,stid-«nom» ,di'od's'oe srbrnonuy-«ayiloqnom» *

Monopoliyaning turlari

Tabiiy monopoliyalar – iqtisodiy faoliyatning texnikaviy va texnologik xususiyatlari taqozo qilib, ular raqobatni qo'llash mumkin bo'lmagan yoki qiyin bo'lgan sohalarni o'z ichiga oladi.

- Suv, energiya, gaz ta'minoti korxonalari.
- Temir yul transporti.
- Harbiy - mudofaa majmuasi korxonalari.

Iqtisodiy (sun'iy) monopoliyalar – ishlab chiqarish va kapitalning to'planishi hamda korxonalarning turli yillar bilan birlashishi natijasida vujudga keladi.

- Kartel – bir tarmoq korxonalarning ittifoqi bo'lib, uning ishtirokchilari to'liq iqtisodiy mustaqilligini saqlab qoladi, faqat ishlab chiqarish hajmi, sotish bozorlari va baholari to'g'risida kelishib oladi.
- Sindikat – bir turdagi maxsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar birlashmasi bo'lib, uning a'zolari ishlab chiqarish sohasida mustaqilligini saqlab qoladi, mahsulot esa sindikat mulki sifatida sotiladi.
- Trest – ishlab chiqarish vositalari va mahsulotga birgalikda egalik qiluvchi korxonalar guruhi bo'lib, foyda qo'shilgan kapital hajmiga qarab taqsimlandi.
- Kontsern – bosh kompaniya moliyaviy nazoratida bo'lgan, turli sohalardagi rasmiy mustaqil korxonalar uyushmasidir.

Davlatning antimonopol siyosati – monopoliyalar faoliyatini cheklash, tartibga solish va raqobatchilik muhitini vujudga keltirishga qaratiladi. Bu siyosat o'z ifodasini antimonopol qonunlarda topadi.

AQShning antimonopol qonunchiligi

• Sherman qonuni (1890 y) – unda ishlab chiqarish va savdoni cheklash maqsadida tuzilgan bitimlar noqonuniy deb hisoblanadi.

• Kleyton qonuni (1914 y) – iste'molchilarni narx orqali kamsitish, majburiy shartnomalar tuzish, raqobatchi korxonalarining zaiflashuviga olib keluvchi aksiyalarni sotib olish taqiqlanadi.

• Seller-Kefover qonuni (1950 y) – bu qonunda Kleyton qonuniga o'zgartirish kiritilgan bo'lib, unda nafaqat raqobatchi korxonalarining zaiflashuviga olib keluvchi aksiyalarni balki ishlab chiqarish vositalarini sotib olish ham taqiqlanadi.

Antimonopol faoliyatni tartibga solishning asosiy yo'nalishlari.

- bozorning monopoliashuvini cheklash;
- raqobatchi kompaniyalar qo'shilishini taqiqlash;
- monopol narxlar belgilanishini taqiqlash;
- raqobatni madaniylashgan tarzda olib borishni qo'llab-quvvatlash.

O'zbekiston Respublikasining antimonopol qonunchiligi

- «Monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida» gi qonun (1992 y). Unda bozorda ataylab taqchillik hosil qilish, narxlarni monopollashtirish, raqobatga to'sqinlik qilish va uning g'irrom usullarini qo'llash taqiqlanadi.
- «Obyektlarning xo'jalik yurituvchi jamiyatlari va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to'g'risida» gi Nizom (1994 y)» Unda o'z monopol mavqeini suiiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash yoki maydalashtirish ko'zda tutiladi.
- «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» gi qonun (1996 y). Qonunda g'irrom raqobat va bozorlarga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarish taqiqlanadi.

O'zbekistonda monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshiruvchi muassalar

- Moliya vazirligi huzuridagi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi (1996 y).
- O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi.

14-MAVZU BUYICHA TEST SAVOLLARI

1. Raqobatga bir maqsad sari intiluvchi bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishi, deb ta'rif berilsa, u kimlar o'rtasidagi raqobatni ifodalaydi?

a) tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi;

6) xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasidagi;

v) resurslarni yetkazib beruvchilar.

g) iste'molchilar o'rtasidagi;

d) yuqoridagilarning barchasi o'rtasidagi

2. Tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobatdan qanday maqsad ko'zda tutiladi?

a) iqtisodiy resurslarni arzon baholarda sotib olish;

b) tovarlarni qulay sharoitlarda ishlab chiqarish;

v) tovarlarni foyda keltiradigan yuqori narxlarda sotish;

g) bozorda o'z mavqeini mustahkamlash va iste'molchilarni og'dirib olish;

d) yuqoridagilarning barchasi.

3. Raqobatchilik munosabatlari rivojining qaysi bosqichida u iqtisodiyotni bozor yo'li bilan tartibga solishning asosiy unsuri sifatida to'liq namoyon bo'ladi?

a) mayda tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat bosqichi;

b) erkin kapitalistik yoki sof raqobat bosqichi;

v) monopolistik raqobat bosqichi;

g) aralash iqtisodiyotga xos raqobat bosqichi;

d) yuqoridagi barcha bosqichlarda.

4. Raqobatning qaysi shaklida ishlab chiqaruvchilar bozor baholarini to'liq nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi?

a) sof raqobat;

b) monopolistik raqobat;

v) sof monopoliya;

g) oligopoliya;

d) yuqoridagilarning barchasida.

5. Raqobatning qaysi shaklida yangi korxonalarining tarmoqqa kirishiga to'siqlar taqiqlash bilan barobar bo'ladi?

a) sof raqobat;

b) monopolistik raqobat;

v) sof monopoliya;



g) oligopoliya;

d) yuqoridagilarning barchasi.

6. Sof monopoliya sharoitida tarmoqqa kirish uchun to'siqlar qanday ko'rinishda namoyon bo'ladi?
- a) ishlab chiqarish miqyosi taqozo qiladigan moliyaviy to'siqlar;
 - b) tabiiy monopoliyalar tabiati taqozo qiladigan to'siqlar;
 - v) patent va litsenziyalar;
 - g) xom ashyoning asosiy turlariga egalik qilish;
 - d) yuqoridagi barcha ko'rinishlarda.
6. Quyidagilardan qaysi biri sof raqobatga xos xususiyat hisoblanad?
- a) ishlab chiqaruvchilar ko'p;
 - b) iste'molchilar ko'p;
 - v) ishlab chiqariladigan mahsulot bir hil;
 - g) tarmoqqa kirish oson;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
8. Monopolistik raqobat sharoitida tovarlar qanday yo'llar bilan tabaqalashtiriladi?
- a) jismoniy yoki sifat o'lchamlari bo'yicha;
 - b) mahsulot sotish bilan bogliq sharoitlar va ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha;
 - v) joylashgan joyi va borishning qulayligi bo'yicha;
 - g) reklama, savdo belgilari va markalaridan foydalanish bo'yicha;
 - d) yuqoridagi barcha yo'llar bilan.
9. Quyidagilardan qaysi biri baho vositasida raqobatlashish ususliga kiradi?
- a) «narxlar jangi» yoki narxlarni pasaytirib borish;
 - b) demping narxlarining qo'llash, ya'ni tovarlarni boshqa mamlakatlarga ichki bozordagidan ancha past baholar bo'yicha chiqarish;
 - v) narxlardan chegirma qilish;
 - g) imtiyozli narxlarni belgilash va boshqa tovarlarni qo'shib berish;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
10. Bahosiz raqobat usuli qanday yo'llar bilan olib boriladi?
- a) tovar sifatini tabaqalashtirish orqali iste'mol xossalarini oshirish;
 - b) tovarlarni kreditga sotish;
 - v) kafolatlangan muddatda va undan keyingi davrda turli xil xizmatlar ko'rsatish;
 - g) marketing strategiyasidan foydalanish;
 - d) yuqoridagi barcha yo'llar bilan.

15-MAVZU. NARX NAZARIYASI

1-§. Narxning iqtisodiy mazmuni, omillari va vazifalari



Narxning vazifalari

Qiymatni hisobga olish

Tovarni ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar, olingan natijalar va uning nafilligi narx yordamida hisobga olinadi.

Hisob-kitobni amalga oshirish

Turli xil majburiyatlarni (ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi hamda bank va soliq muassasalari o'rtasida) amalga oshirishda hisob-kitob qilish vazifasini bajaradi.

Muvozanatlikni ta'minlash

Bunda narx talab va taklifga ta'sir ko'rsatish orqali ularni muvozanat holatga keltiradi.

Tartibga solish

Bozor narxlarini va davlatning narx siyosati iqtisodiy faollikka ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiyotni tartibga solishda muhim vosita vazifasini bajaradi.

Taqsimlash

Narx vositasida daromadlar, mahsulotlar va iqtisodiy resurslar mulkdorlar, tarmoqlar, sohalar hamda hududlar o'rtasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.


Raqobat vositasi

Ishlab chiqaruvchilar, resurs egalari va iste'molchilar narx vositasida raqobatlashganda u raqobat vositasi vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy himoyalash

Narx bu vazifani tovarlar datatsion (byudjet mablag'lari hisobidan arzonlashtirilgan) narxlarda sotilsa bajaradi.

2-§. Narx turlari va ularning mazmuni



II. Tartibga solinishi darajasiga ko'ra

Qat'iy belgilangan narxlar

Ma'muriy tarzda belgilanib, bozor kuchlari ta'sir ko'rsatmaydi va muayyan davr davomida doimiy bo'lib qoladi.

Erkin narxlar

Talab va taklif ta'siri ostida vujudga keladigan bozor narxlaridir.

Tartibga solinadigan narxlar

Ayrim tovarlarga davlat narxlarning yuqori (iste'molchi manfaatini ko'zlab) va quyi (ishlab chiqaruvchi manfaatini ko'zlab) chegarasini belgilaganda hamda moliyaviy va kreditli dastaklardan foydalanib, narxga ta'sir ko'rsatganda o'z o'rniga ega bo'ladi.

Shartnoma narxlari

Ishlab chiqaruvchi va iste'molchi tomonidan shartnomada qayd qilingan narxlardir.

III. Amal qilish doirasi (bozor ko'lami)ga ko'ra

Hududiy (mintaqaviy) narxlar

Muayyan hududiy bozorlarda uning doirasida amal qiluvchi omillar ta'sirida shakllanadi.

Milliy narxlar

Alohida mamlakatlar doirasida o'rtacha ijtimoiy sarf-xarajatlar, milliy bozordagi talab va taklif ta'sirida shakllanadi.

Jahon narxlari

Muayyan tovarlarni ishlab chiqarishga ketgan baynalminal xarajatlarni, tovarlarning jahon andozasi talablariga mos kelishi darajasini hamda xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini o'zida aks ettiradi.

Bir tovarning turli davrda narxlaridagi o'zgarishlarni joriy va qiyosiy narxlar aks ettiradi.

Monopol narxlar – monopol mavqeiga ega bo'lgan tovarlarga belgilanib, ishlab chiqarish bahosidan yuqori yoki past bo'lishi mumkin.

Tartibga solinadigan narxlar – bu yuqori va quyi chegarasi belgilangan narxlardir.

Irratsional narxlar–yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiiy resurslarga belgilanadigan narxlarni bildiradi.

Yashirin narxlar–xufiyona bozorlarda shakllanadigan narxlarni anglatadi.

Narx dipozoni

Turi narxlar oralig'ining puldagi ifodasi


Narx pariteti

Narx nisbati ham deb atalib, u o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini yuzaga chiqaradigan narxlarni bildiradi.

Narx diskriminatsiyasi

Narxni kamayishi deb ham atalib, u narxlardagi farq ishlab chiqarish xarajatlaridagi farqlardan kelib chiqmaganda ro'y beradi.

3-§. Raqobatning turli shakllari sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari



Raqobatning turli shakllarga asoslangan tarmoqlarida
narx tashkil topishining umumiy shart-sharoitlari

- Narx asosida ishlab chiqarish sarf-xarajatlari yoki tovar (xizmat) qiymati yotadi.
- Narx tovarlar nafillik darajasini ifodalaydi.
- Narx o'zida tovarlarga bo'lgan talab va taklif nisbatini mujassamlashtiradi.
- Raqobatlashish usullari ham narx tashkil topishida o'z o'rniga ega bo'ladi.
- Narx tashkil topishiga davlat iqtisodiy siyosati ta'sir ko'rsatadi.
- Narx shakllanishida xufiyona iqtisodiyotning rivojlanishi darajasi ham ma'lum o'ringa ega.

Sof raqobatli tarmoq (bozor) da narxning tashkil topish
xususiyatlari:

- Narx yalpi talab va yalpi taklif ta'siri ostida shakllanadi.
- Alohida ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)lar bozor narxlariga va sotish hajmiga ta'sir ko'rsata olmaydi.
- Yalpi talab yoki yalpi taklifda ro'y berib turadigan nisbatan katta o'zgarishlar bozor narxleri va sotish hajmini o'zgartiradi.
- Tarmoqqa kirish uchun to'siqlar mavjud bo'lmasligi sababli narxlar nisbatan beqaror hisoblanadi.

**Sof monopolistik tarmoqda ishlab chiqarish hajmi
va narxning tashkil topishi.**

- Sof monopolist mahsulotning yagona ishlab chiqaruvchisi bo'lganligi sababli, u tarmoq mahsulotiga narx belgilashda nisbiy hukmronlikka ega.
- Sof monopol mavqeidagi ishlab chiqaruvchilarning narx belgilashda mutlaq hukmronlikni ta'minlay olmasligi sabablari.
 - davlatning antimonopol qonunchiligi mavjud bo'ladiki, uning talabiga ko'ra monopol ishlab chiqaruvchi mahsulotiga narxlarning yuqori chegarasi belgilab qo'yiladi;
 - monopol ishlab chiqaruvchining narxlarni oshirib borishga qaratilgan xatti-harakati iste'molchi pul daromadining cheklanganligi bilan to'qnash keladi.
 - monopol mavqeidagi tovarlarga narxlar oshganda iste'molchilar uning o'rnini bosadigan boshqa tovarlarni qidirib topishga harakat qiladi.

**Sof monopoliya sharoitida tarmoqqa kirish uchun
to'siqlarning asosiy turlari.**

- • Ishlab chiqarish miqyosi keltirib chiqaradigan to'siqlar (iqtisodiy, moliyaviy, texnologik va boshqa).
- • Qonuniy to'siqlar (patent va litsenziyalar kabi).
- • Tabiiy monopoliyalar tabiati taqozo qiladigan to'siqlar
- • G'irrom raqobat usullaridan foydalanish.
- • Xom ashyoning muhim turlariga xususiy mulkchilik.

**Monopolistik raqobatli tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmi
va narxning aniqlanishi.**

Raqobatning bu shaklida har bir ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini turi xil usullar bilan tabaqalashtirish orqali bozordagi mavqeini mustahkamlash va mahsulotiga narx belgilashga harakat qiladi.

Monopolistik raqobat sharoitida bir turdagi mahsulot har xil yo'llar bilan tabaqlashtiriladi:

- Jismoniy o'lchamlari bo'yicha.
- Joylashgan (ishlab chiqarish yoki sotishning) joyi bo'yicha.
- Xaridorlarga servis xizmatini ko'rsatish bo'yicha.
- Sotishdan keyingi davrda bepul kafolatli ta'mirlash xizmatini ko'rsatish bo'yicha.
- Narxsiz raqobatlashish usullari (reklama, savdo belgilari, savdo markalari va h. k.) asosida.
- Narx yordamida raqobatlashish usullaridan (narxdan chegirma qilish asosiy tovar narxiga to'ldiruvchi boshqa tovarlarni kiritish va h. k.) foydalanish asosida.

- Ishlab chiqarish hajmi va narxlar nisbatan beqaror hisoblanadi. Tarmoqqa yangi ishlab chiqaruvchilarning kirishi taklifning umumiy hajmi o'sishi va narxlarning pasayishi bilan, chiqib ketishi esa taklifning qisqarishi va narxlar ortishi bilan birga boradi.

Oligopoliya sharoitida ishlab chiqarish hajmi va narxning aniqlanishi

- Tarmoqdagi ishlab chiqaruvchilar bir-biri bilan texnologik jihatdan yoki bitimlar asosida bog'langanligi sababli o'zaro kelishib narx belgilashning potensial imkoniyati mavjud bo'ladi.
- Tarmoqdagi yetakchi firma narx belgilashda rahnamolik qiladi. Uning narx belgilash siyosatiga boshqa firmalar ham qo'shiladi.
- Tarmoqqa kirish taqiqlanishi sababli ishlab chiqarish hajmi va narxlar nisbatan barqaror hisoblanadi.

Iqtisodiy resurslarga narx tashkil topishining xususiyatlari

Iqtisodiy resurslarga narx darajasini belgilab beruvchi omillar:

- resurslarning unumdorligi;
- mazkur resurs yordamida ishlab chiqariladigan tovarlarning bozor narxlari;
- birgalikda foydalaniladigan resurslarning unumdorligi va bozor narxlari.

Resurslarga talab hosila talab hisoblanadi. Shu sababli biror resurs turiga talab miqdori uning yordamida ishlab chiqariladigan tovarlarga bo'lgan talabga bog'liq bo'ladi.

Alohida olingan resurslar (yer, ishchi kuchi, kapital) narxiga aynan shu resurs turining xususiyatlari ham ta'sir ko'rsatadi.

4-§. O'zbekistonda narxlarni erkinlashtirish va uning bosqichlari

Davlatning narx siyosati – bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida narxlarni erkinlashtirish va milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirishga qaratiladi.

Narxlarni erkinlashtirishdan ko'zlangan maqsad:

- xom ashyo bilan mahsulot ayrim turlari narxlari o'rtasidagi nomutanosiblikni yumshatish;
- narx bilan aholi daromadlari va korxonalar foydasi o'rtasidagi mutanosiblikka erishish;
- investitsion tovarlar, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxlarining oqilona nisbatini ta'minlash;
- ishlab chiqarish vositalari, xalq iste'mol tovarlari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning erkin narxlari hamda ta'riflariga o'tish;
- milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish.

Narxlarni erkinlashtirish yo'llari:

- narxlarni birdaniga yoki «esankiratadigan» tarzda qo'yib yuborish;
- narxlar o'sishini sun'iy ravishda to'xtatib qo'yish;
- narxlarni davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishni ma'lum darajada saqlab qolish;
- narxlarni asta-sekinlik bilan va bosqichma-bosqich erkinlashtirish.

O'zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilishning o'ziga xos tamoyillari, mamlaktdagi iqtisodiy vaziyat va aholining turmush darajasi hisobga olinib, narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish yo'li tanlab olindi.

O'zbekistonda narxlarni erkinlashtirish bosqichlari:

- **1-bosqich (1992 yil boshidan)** – bu davrda ancha keng turdagi investitsion tovarlar, ayrim iste'mol tovarlari va xizmatlarning erkin narxlari va ta'riflariga o'tildi. Cheklangan doiradagi xalq iste'mol tovarlari narxlari ayrim turdagi xizmatlar ta'riflarining yuqori chegarasi belgilab qo'yildi.
- **2-bosqich (1993 yil) da** ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'xtatildi. Davlat tomonidan qat'iy belgilanadigan va tartibga solib turiladigan tovar (xizmat) lar soni ancha qisqardi.
- **3-bosqich (1994 yil oktyabr-noyabr)da** xalq iste'mol tovarlari asosiy turlari narxlari erkin qo'yib yuborildi, transport va kommunal xizmatlarning ta'riflari oshirildi.

15-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Narxning qaysi vazifasi talab va taklifning mos kelishi orqali amalga oshadi?

- a) qiymatni yoki iqtisodiy xarajatlarni hisobga olish;
- b) tartibga solish va raqobat vositasi;
- v) muvozanatlikni ta'minlash;
- g) ijtimoiy himoyalash;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

2. Narx tizimi o'z ichiga qanday narxlarni oladi?

- a) bozor narxlarini;
- b) davlat tomonidan belgilanadigan va tartibga solib turiladigan narxlarni;
- v) iqtisodiyotda amal qilib turgan barcha narxlarni;
- g) jahon narxlarini;
- d) yuqoridagilarning barchasini.

3. Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxlar qanday nom bilan ataladi?

- a) ulgurji narx;
- b) demping narx;
- v) dotatsiyalangan narx;
- g) nufuzli narx;
- d) yuqoridagi barcha nom bilan.

4. Narxlar oralig'idagi farqlarning puldagi miqdoriy ifodasi qanday nom bilan ataladi?

- a) narx pariteti (nisbati);
- b) narx ko'rsatkichi;
- v) narx diapozoni;
- g) narx chegarasi;
- d) yuqoridagi barcha nom bilan.

5. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda narxlarni erkinlashtirishning qaysi yo'lidan foydalanildi?

- a) narxlarni birdaniga qo'yib yuborish;
- b) narxlar darajasini sun'iy to'xtatib qo'yish;
- v) narxlarni davlat tomonidan boshqarish va nazorat qilish;
- g) narxlarni asta-sekin va bosqichma-bosqich erkinlashtirish;
- d) yuqoridagi barcha yo'llardan.

6. O'zbekistonda narxlarni erkinlashtirishning qaysi bosqichida aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlarining chegaralangan narxleri belgilab qo'yildi?

- a) birinchi bosqichda (1992 y.);
- b) ikkinchi bosqichda (1993 y.);
- v) uchinchi bosqichida (1994 y.);
- g) iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichidan (1995 y.) boshlab;
- d) barcha bosqichlarda.

7. Narx shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

- a) iqtisodiy xarajatlar;
- b) talab va taklif;
- v) tovarning nafililigi;
- g) raqobat va davlat siyosati;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

8. Raqobatning barcha shakllari sharoitida narx tashkil topishining umumiy xususiyatlari nimadan iborat?

- a) talab va taklif nisbati asosida shakllanadi;
- b) ma'lum darajada iqtisodiy xarajatlarni ifodalaydi;
- v) tovar (xizmat va resurs)lar nafililigini hisobga oladi;
- g) muvozanatni ta'minlaydi, tartibga solish va raqobat vositasi hisoblanadi;
- d) yuqoridagi barcha xususiyatlar.

9. Raqobatning turli shakllari bir-biridan qanday belgilar bo'yicha farq qiladi?

- a) tarmoqdagi korxonalar soni bo'yicha;
- b) tarmoqqa kirish va uni tashlab chiqib ketishning oson yoki qiyinligi bo'yicha;
- v) bir tipdagi yoki tabaqalashgan mahsulotlar ishlab chiqarilishi bo'yicha;
- g) a) va b) to'g'ri;
- d) b) va v) to'g'ri.

10. Tarmoqda bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi juda ko'p korxonalar mavjud. Alohida korxonalar bozor narxini o'rnata olmaydi. Yangi korxonalar tarmoqqa erkin kiradi va amal qilib turganlari erkin chiqib ketadi. Bu belgilar raqobatning qaysi turi uchun xos?

- a) monopoliya;
- b) monopolistik raqobat;
- v) sof raqobat;
- g) oligopoliya;
- d) monopsoniya.

11. Quyidagi belgilardan qaysi biri sof monopoliyaga xos emas?

- a) bitta firma mahsulotning yagona ishlab chiqaruvchisi;
- b) mahsulotning yaqin o'rnini bosuvchilari mavjud emas;

v) firma mahsulot narxi ustidan sezilarli nazorat o'rnatadi;
g) tarmoqqa kirish uchun to'siqlar juda katta bo'lib, taqiqlash bilan barobar;

d) firma bozor narxlari bilan kelishishga majbur.

12. Quyidagilardan qaysi biri monopolistik raqobatga xos belgi emas?

a) ko'p bo'lmagan ishlab chiqaruvchilar mavjud;

b) ayrim mahsulotning tabaqalashgan turlari ishlab chiqariladi;

v) narxsiz raqobat o'z o'rniga ega;

g) tarmoqqa kirish unchalik qiyin emas;

d) raqobat narx yordamida amalga oshiriladi.

13. Quyidagi belgilardan qaysi biri oligopoliyaga xos emas?

a) tarmoqda ko'p bo'lmagan, lekin soni aniq belgilanmagan korxonalar mavjud;

b) bir tipdagi yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqariladi;

v) firmalar o'rtasidagi raqobat o'zaro bog'liq bo'lishi sababli yashirincha kelishishga qulaylik tug'diradi;

g) firmalarning bozordagi ulushi narxsiz raqobat asosida aniqlanadi;

d) narx yordamidagi raqobat katta o'ringa ega.

14. Sof raqobatli tarmoqlarda narx nimaning ta'sirida shakllanadi?

a) alohida ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) bozor narxini belgilaydi;

b) alohida iste'molchilar bozor narxlarini belgilaydi;

v) alohida tovarlar taklifi ta'sirida;

g) alohida tovarlarga talab ta'sirida;

d) tovarlarning yalpi taklifi va ularga bo'lgan yalpi talab ta'sirida.

15. Sof raqobat sharoitida tovarlarning bozor narxlari bilan ularning sotib olinadigan miqdori o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud bo'ladi?

a) narx qanchalik yuqori bo'lsa, sotib olinadigan tovarlar miqdori shuncha kam bo'ladi;

b) narx qanchalik past bo'lsa, sotib olinadigan tovarlar miqdori shunchalik ko'p bo'ladi;

v) narx bilan sotib olinadigan tovarlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'ladi;

g) a) va b) to'g'ri;

d) b) va v) to'g'ri.

16. Sof raqobatli tarmoqda mahsulot sotish hajmini qanday ko'paytirib borish mumkin?

a) ancha yuqori narxlarni o'rnatib borish bilan;

b) ancha past narxlarni o'rnatib borish bilan;

v) mahsulot sifatini yaxshilash orqali;

g) reklama orqali;

d) mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish orqali.

17. Narx oshib borishi bilan talabning asta-sekin pasayib borishi nima asosda izohlanadi?

a) iste'molchi didining o'zgarishi bilan;

b) ehtiyojning to'laroq qondirilganligi bilan;

v) iste'molchi pul daromadining cheklanganligi bilan;

g) talabda ro'y bergan o'zgarishlar bilan;

d) o'rnini bosuvchi tovarlar mavjudligi bilan.

18. Qanday narxlarda alohida tovarlar talab va taklifi o'zgarish tamoyillariga ega bo'ladi?

a) yuqori narxlarda;

b) past narxlarda;

v) doimiy narxlarda;

g) muvozanatli narxlarda;

d) o'zgarib turuvchi narxlarda.

19. Sof raqobatli vaziyatni taklif tomonidan qarab chiqsak, quyidagilardan qaysi biri bu vaziyatni to'liq ifodalaydi?

a) narx qanchalik yuqori bo'lsa, tovar taklif ham shunchalik ko'p bo'ladi;

b) yuqori narxlar tarmoqqa yangi ishlab chiqaruvchilarni jalb qiladi;

v) narx yuqori bo'lganda tarmoqdagi mavjud korxonalar qo'shimcha foyda olib, ishlab chiqishni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

g) yuqori narxlar tarmoqqa qo'shimcha resurslarni jalb qiladi;

d) yuqoridagilarning barchasi.

20. Sof raqobatli tarmoqdagi muvozanatli narx va mahsulotning muvozanatli hajmini aniqlang.

	Mahsulotning birligi narxi, ming so'm	Talabning umumiy miqdori, dona	Taklifning umumiy miqdori, dona
a)	5,0	2500	15000
b)	4,0	5000	12500
v)	3,0	8500	8500
g)	2,0	1400	5000
d)	1,0	2000	1000

21. Iqtisodiy resurslarga narx darajasini qanday omil belgilab beradi?

a) iqtisodiy resurslar unumdorligi;

b) shu resurslar yordamida ishlab chiqariladigan tovarlar narxi;

v) bir-biriga bog'liq resurslar narxi;

g) bir-birini to'ldiruvchi resurslar narxi;

d) yuqoridagi barcha omillar.

22. Salqin ichimlik sotuvchi firma sport anjumanida mahsulot sotishning monopol mavqeiga ega bo'lsa, u qanday narxni o'rnatgan bo'lur edi?

	Mahsulot narxi, ming so'm	Sotib oluvchilar soni	Umumiy daromad, so'm	Umumiy xarajat, so'm	Foyda, zarar
a)	10,0	1000	10000	3300	6700
b)	12,5	800	10000	2900	7100
v)	15,0	500	7500	2300	5200
г)	20,0	100	2000	1350	650
д)	100,0	3	300	1160	(860)

23. Sof monopolistik tarmoq mahsulotiga talabning pasayib borishi nimani bildiradi?

a) mahsulot sotish hajmini ancha past narx belgilab, ko'paytirib borishni;

b) yuqori narxlar ishlab chiqarish (sotish)ning kam hajmi bilan, past narxlar ko'p hajmi bilan bog'liqligini;

v) ishlab chiqaruvchi sotish hajmiga zarar yetkazmasdan narxni oshira olmasligini;

g) narxning tushishi ishlab chiqaruvchi yalpi pul daromadini kamaytirishini;

d) yuqoridagilarning barchasini.

24. Sof monopolistik tarmoqlarda qachon narxli kamsitish (bahodagi farq xarajatlardagi farq bilan oqlanmasligi) ro'y beradi?

a) ishlab chiqarish va sotishni nazorat qilishda monopol mavqega ega bo'lganda;

b) narx belgilashda monopol mavqega ega bo'lganda;

v) iste'molchilarni daromadlari bo'yicha alohida guruhlarga ajratishga layoqatli bo'lganda;

g) mahsulotlarni qayta sotish imkoniyati mavjud bo'lmaganda;

d) yuqoridagi barcha hollarda.

25. Raqobatning qaysi shaklida narx belgilashda kelishib olish imkoniyati ko'proq mavjud bo'ladi?

a) sof raqobat;

b) monopoliya;

v) monopolistik raqobat;

g) oligopoliya

d) monopsoniya.

26. Monopolistik raqobatli tarmoqdagi firmalar uzoq muddatli davrda me'yorida foyda olish tamoyiliga ega bo'ladi, qisqa muddatli davrda esa:

a) iqtisodiy foyda yangi firmalarni tarmoqqa kirishga undaydi, natijada o'rtacha foyda normasi pasayib boradi;

b) zarar ko'rish natijasida tarmoqdan firmalar ommaviy chiqib keta boshlaydi va bu me'yoridagi foyda qayta tiklanguncha davom etadi;

v) barqaror yuqori foyda oladi;

g) a) va b) to'g'ri;

d) b) va v) to'g'ri.

27. Quyidagi tasdiqlardan qaysi biri mantiqan to'g'ri?

a) resurslar narxi uy xo'jaliklari asosiy daromadlari darajasini belgilab beradi;

b) resurslar narxi cheklangan resurslarni turli tarmoqlar va korxonalar o'rtasida taqsimlashga yordam beradi;

v) korxonalar uchun resurslar narxi ishlab chiqarish xarajatlari hisoblanadi;

g) resurslarga narx belgilashda monopol mavqega ega bo'lish daromadlar taqsimlanishidagi tengsizlikni kuchaytiradi;

d) yuqoridagi barcha tasdiqlar mantiqan to'g'ri.

28. Resurslarga talabning barqarorligini nima belgilaydi?

a) resurslarning unumdorligi;

b) shu resurs yordamida ishlab chiqariladigan tovarlarning narxi;

v) boshqa tovarlarning narxi;

g) a) va b) to'g'ri;

d) b) va v) to'g'ri.

29. Resurslarga talab qachon o'zgarishga uchraydi?

a) mahsulotga talab o'zgarganda;

b) resurslar unumdorligi o'zgarganda;

v) o'rnini bosuvchi resurslar narxi o'zgarganda;

g) bir-birini to'ldiruvchi resurslar narxi o'zgarganda;

d) yuqoridagi barcha hollarda.

30. Resurslarga talab nima uchun egiluvchan hisoblanadi?

a) mehnat unumdorligi o'zgarib turadi;

b) bir resurs o'rniga boshqasini qo'llash mumkinligi sababli;

v) mahsulotlarga talab egiluvchan hisoblanadi;

g) umumiy xarajatlarda ayrim resurs turlarining salmog'i o'zgarib turadi;

d) yuqoridagi barcha sabablarga ko'ra.

31. Resurslarning optimal nisbatini tanlashda nima hisobga olinadi?

a) eng kam xarajat qilish;

b) har xil mahsulotlar ishlab chiqarish;

v) eng yuqori foyda olish;

g) a) va b) to'g'ri;

d) a) va v) to'g'ri.

32. Ishlab chiqarishda faqat ikkita resurs – ishchi kuchi (mehnat) va kapitaldan foydalanilganda harajatni eng kam darajaga keltirish qaysi holda yuz beradi?

a) mehnat bahosi = kapital bahosi;

b) mehnatning oxirgi mahsuloti = kapitalning oxirgi mahsuloti;

v) $\frac{\text{mehnatning oxirgi mahsuloti}}{\text{kapital bahosi}} = \frac{\text{kapitalning oxirgi mahsuloti}}{\text{mehnat bahosi}}$

g) resurslarga talab = resurslar taklifi;

d) mahsulotga talab = mahsulot taklifi.

33. Ishlab chiqarishda faqat ikkita resurs – ishchi kuchi (mehnat) va kapitaldan foydalanilganda eng yuqori foyda bilan mahsulot ishlab chiqarish qachon ro'y beradi?

a) resurslar taklifi > resurslarga talabdan;

b) mahsulotga talab < mahsulot taklifidan;

v) oxirgi daromad = oxirgi xarajatga;

g) mehnat bahosi < mahsulot bahosidan;

d) kapital bahosi < mahsulot bahosidan.

34. Qaysi resurs bahosi tegishli resurs taklifining oshishiga rag'bat bermaydi?

a) ish haqi - ishchi kuchining;

b) me'yoridagi foyda - tadbirkorlik layoqatining;

v) foiz - investitsion tovarlarning;

g) renta - yer va boshqa tabiiy resurslarning;

d) yuqoridagilarning barchasi.

35. Grafikdagi tik chiziq (S) qaysi iqtisodiy resursning taklifini ifodalaydi?


a) kapitalning;

b) ishchi kuchining;

v) yer va boshqa tabiiy resurslarning;

g) tadbirkorlik layoqatining;

d) barcha resurslarning.



16-MAVZU. AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES

1-§. Agrar munosabatlar va qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning xususiyatlari

«Respublika sanoatining ko'pgina tarmoqlarini, jumladan, paxta tozalash, to'qimachilik, kimyo sanoatini, qishloq xo'jaligi mashinasozligini va boshqalarni... rivojlantirish istiqbollari, ularning murakkab o'tish davridagi iqtisodiy ahvoli bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liqdir»¹

Agrar munosabatlar –bu yerga egalik qilish, uni tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir. Agrar munosabatlar qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

Yerga egalik qilish–tarixan tarkib topgan an'analar yoki qonuniy asosda belgilangan tartibda yerga egalik huquqining tan olinishini bildiradi.

Yerdan foydalanish huquqi–bu o'rnatilgan urf-odatlar, udumlar yoki qonuniy tartibda ularning doimiy va muddatli foydalanish uchun berilishini bildiradi.

Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning xususiyatlari.

- ➔ Qishloq xo'jaligida yer foydalanish jarayonida asosiy ishlab chiqarish vositasi (ham mehnat vositasi va ham mehnat predmeti) sifatida chiqadi.
- ➔ Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning natijalari yerning hosil berish qobiliyatiga, ya'ni tuproq unumdorligiga bog'liq.

¹I. A. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston», 1998, 225-226-betlar.

→ Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni tirik organizmlar (o'simlik va hayvonot dunyosi)ning o'sishi va rivojlanishi bilan bevosita bog'liq.

→ Agrar munosabatlar va qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiy qonunlar bilan birga tabiat qonunlari ta'siri ostida ro'y beradi.

→ Agrar sohada ko'pchilik ishlab chiqarish vositalari (chorva mollari, ko'p yillik mevali daraxtlar, urug'lik va h.k.) tarmoqning o'zida vujudga keltirilib, yana ishlab chiqarish jarayoniga kiritiladi


→ Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish mavsumiy xarakterga ega. Bu tarmoqdagi mehnat vositalaridan foydalanish davrini ham cheklaydi. Masalan, selyakalar ekish davrida, g'alla o'rish va paxta terish kombayinlari faqat yig'im-terim paytida qisqa davr (1-2 oy) ishlatiladi.

→ Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish mavsumiyligi sababli aylanma kapital va mablag'lar sarfi hamda maxsulot sotishdan olinadigan pul tushumlari yil davomida bir me'yorda bormaydi.

→ Qishloq xo'jalik ekinlari o'sishining vegetatsiya davri va tabiiy omillari ta'sirida ishlab chiqarish vaqti va ish davri o'rtasida katta farq mavjud bo'ladi.

2-§. Renta munosabatlari. Yer rentasi va uning turlari

Renta munosabatlari – agrar munosabatlarning negizini tashkil qilib, u qishloq xo'jaligida vujudga keltirilgan qo'shimcha sof daromadning yer egalari va undan foydalanuvchilar o'rtasida taqsimlanishi va o'zlashtirilishi jarayonida vujudga keladi.




Yer rentasi – bu yerga egalik huquqining iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarilish shakli.


Yer rentasining tarixiy shakllari

- Barshchina – ishlab berish orqali ro'yobga chiqarilgan.
- Obrok – yer egalariга mahsulot ko'rinishida to'langan.
- Pul rentasi - mahsulot sotilgandan keyin pul shaklida berilgan.

Differensial renta



Differensial renta turlari



Differensial renta-I ning hosil bo'lishi (shartli misol)


Yer uchastkalarari	Ishlab chiqarish xarajatlari, (ming so'm)	O'rtacha foyda, (ming so'm)	Umumiy qiymat (ming so'm)	Yalpi hosil (tonna)	Alohida ishlab chiqaruvchilar mahsuloti qiymati (so'm)	Bozor bahosi, (so'm)	Yalpi sotilgan boshum	Differensial renta-I, (ming so'm)
A yuqori unumli	8000	2000	10000	30	333	500	15000	5000
B o'rtacha unumli	8000	2000	10000	25	400	500	12500	2500
V past unumli	8000	2000	10000	20	500	500	10000	x

Differensial renta-I yer uchastkalarining shaharlarga, bozorlarga, yo'llarga va suv manbalariga joylashgan joyidagi farqlar natijasida ham vujudga keladi.

Differensial renta-II ning hosil bo'lishi (shartli misol)

Yer uchastkasi (V past unumli)	Umumiy qiymat, (ming so'm)	Yalpi hosil, (tonna)	Mahsulot birligi bahosi, (so'm)	Bozor bahosi, (so'm)	Yalpi sotilgan mahsulot, (ming so'm)	Differensial renta-II, (ming so'm)
1-yil	10000	20	500	500	10000	x
2-yil	12000	40	300	500	20000	8000

Differensial renta-I qishloq xo'jaligini ekstensiv, differensial renta-II esa intensiv rivojlantirish natijasida hosil bo'ladi.



Monopol renta

Tabiiy sharoiti noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari (masalan, sitrus ekinlar) yetishtirish imkoniyatini beradigan yerlarda hosil bo'ladi.

Qazib oluvchi (undirma) sanoatda renta

Qazilma boyliklarining joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladi va shu sababli differensial renta shaklini oladi.

Ijara haqi-tarkiban o'z ichiga yer rentasi (R), yer uchastkasida mavjud bo'lgan asosiy kapitalar amortizatsiyasi (A) va yerga sarflangan kapital uchun foiz to'lovlarini (r) oladi.

$$\text{Ijara haqi} = R + A + r$$


Yer va boshqa tabiiy resurslarning narxi irratsional narx deyiladi.

Yer oldi-soldi obyektiga aylanganda uning narxi (R) shu yer keltirishi mumkin bo'lgan renta miqdorini (R) bankka qo'yilgan pul uchun olinishi kutiladigan foiz stavkasiga (r) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi, ya'ni

$$P_{\text{ep}} = \frac{R}{r} \cdot 100$$

3-§. Yer rentasining hosil bo'lishi va uning darajasini belgilovchi omillar

Yer resurslari bozorida renta ijaraga berilayotgan yerning narxi sifatida chiqadi.



Yer taklifi (S) mutlaq cheklanganligi sababli rentaning hosil bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsata olmaydi. * O'z navbatida renta miqdorining har qanday ortishi (yoki kamayishi) yer taklifini ko'paytira (yoki kamaytira) olmaydi.

Yerga bo'lgan talab va renta miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar

- Yerlarning unumdorligi. Bir turdagi ekinlar ekilganda unumdorligi yuqori bo'lgan yerlarga talab katta bo'ladi va bu rentaning ham yuqori bo'lishiga olib keladi.
- Foydalanishda bo'lgan yerlarda yetishtiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining bozor narxi qaysi mahsulotning bozor narxlari yuqori bo'lsa, shu ekin ekiladigan yerlarda renta ham yuqori bo'ladi.
- Birgalikda foydalaniladigan boshqa resurslarning narxlari va unumdorligi. Masalan, qishloq xo'jalik mashina va uskunalarining narxi hamda unumdorligi renta miqdoriga ta'sir ko'rsatadi.
- Yer maydonlarining shahar markazlari, bozorlar, yo'llar va suv manbalariga joylashishining uzoq-yaqinligi.
- Yerlardan sanoat usulida, qurilish va boshqa maqsadlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi.
- Yerlarda ekin turlarini joylashtirish imkoniyatlari darajasi.

4-§. Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi. Agrobiznes

Agrosanoat integratsiyasi – qishloq xo'jaligi uning mahsulotini qayta ishlovchi, iste'molchiga yetkazib beruvchi va tarmoqqa xizmat ko'rsatuvchi tutash tarmoqlar o'rtasidagi ishlab chiqarish hamda xo'jalik aloqalarining o'zaro yaqinlashib, bir-biriga qo'shilib borish jarayonidir.

*Yangi yerlarning o'zlashtirilib foydalanishiga jalb qilinishi yoki ishlatilib turgan yerlarning turli sabablariga ko'ra qishloq xo'jalik aylanmasidan chiqib ketishi bundan mustasno.

Agrosanoat integratsiyasi ko'lamini

- Korxonalar (firma) va birlashmalar darajasida.
- Hududlar va mintaqalar doirasida.
- Alohida mamlakatlar doirasida.
- Xalqaro darajada.

Agrosanoat majmuasi (ASM)—bu iqtisodiyotning qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va tarmoqqa ishlab chiqarish vositalarini yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlardir.

ASM sohalari

I. Qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beruvchi sanoat tarmoqlari.

II. Qishloq xo'jaligi.

III. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini iste'molchiga yetkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish).

IV. Qishloq infratuzilmasi:

- Ishlab chiqarish infratuzilmasi. Bevosita ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi sohalar
- Ijtimoiy infratuzilma. Odamlar yashash va turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalar.

«Qishloqni yangilash va qayta qurish chora-tadbirlari tizimida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega»*

*I.A.Karimov.O'zbekiston buyuk kelajak sari T., «O'zbekiston», 1998 239-bet.

Agrobiznes—bu tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo'jaligi sohasidagi shakli.

Agrobiznes turlari:

- ➔ • Fermer va dehqon xo'jaliklari.
- ➔ • Agrofimlar.
- ➔ • Agrosanoat birlashmalari.
- ➔ • Agrosanoat kombinatlari.
- ➔ • Shirkatlar va boshqa jamoa xo'jaliklari.
- ➔ • Qo'shma korxonalar (agrar sohadagi).

O'zbekistonda fermer xo'jaliklarining rivojlanishi


(yil boshiga)

Yillar	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003
Ko'rsatkichlar							
Fermer xo'jaliklari soni, (ming)	7,5	14,2	18,1	21,4	23,0	43,8	72,4
Biriktirilgan yer maydonlari, (minga)	71	193	265	413	447	889	1591
Bir xo'jalik ixtiyoridagi yer maydoni, (ga)	1,7	4,6	6,6	9,7	11,3	23,6	22
Fermer xo'jaliklarining yalpi qishloq xo'jalik mahsulotidagi ulushi, %	31,0	...	35,0	...

16-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Agrar munosabatlarning xususiyatlarini nima belgilab beradi?
 - a) yerning asosiy mehnat vositasi va predmeti hisoblanishi;
 - b) iqtisodiy qonunlarning tabiat qonunlari bilan bog'lanib ketishi;
 - v) ishlab chiqarish vaqti bilan ish davri o'rtasidagi farqning nisbatan kattaligi;
 - g) ishlab chiqarishning mavsumiy xarakterida bo'lishi;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
2. Yer rentasi darajasini belgilab beruvchi asosiy omilni aniqlang:
 - a) yerga bo'lgan talab;
 - b) shu yerda yetishtiriladigan mahsulot bahosi;
 - v) yerning unumdorligi;
 - g) qo'llaniladigan boshqa resurslar bahosi;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
3. Yerlarning iqtisodiy unumdorligi qanday yo'llar bilan oshiriladi?
 - a) yerlarga mineral va organik o'g'itlar solish;
 - b) ishlab chiqarish jarayonlarni mexanizatsiyalash;
 - v) irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish;
 - g) sug'orish;
 - d) yuqoridagi barcha yo'llar bilan.
4. Quyidagilardan qaysi biri yerga bo'lgan mulkchilik huquqini to'liq ta'minlaydi?
 - a) yerga egalik qilish;
 - b) yerdan foydalanish;
 - v) ishlab chiqarish natijalarini tasarruf qilish;
 - g) o'z mulkidagi yerni tasarruf qilish;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
5. Yerni iqtisodiy resurslarning boshqa turlari (kapital, ishchi kuchi, tadbirkorlik layoqati)dan farqlovchi asosiy omil nima?
 - a) miqdorining nisbatan cheklanganligi;
 - b) tabiat mahsuli ekanligi;
 - v) miqdori doimiyligi (qayd qilinganligi);
 - g) bahoga ega emasligi;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.

6. Barcha yerlar unumdorligi jihatdan bir xil, ularda bir xil mahsulot yetishtiriladi va foydalaniladigan yerlar raqobatli bozorda ijaraga olinadi deb faraz qilinganda, talabning qaysi darajasida (D1, D2, A3, D4, D5) yer rentasi miqdori «0»ga teng bo'ladi?



7. Yer taklifi doimiy bo'lganda quyidagi omillardan qaysi biri uning miqdorining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatmaydi?

- a) yer rentasi miqdorining o'zgarishi;
- b) yerga bo'lgan talabning o'zgarishi;
- v) ijara haqining o'zgarishi;
- g) yer bahosining o'zgarishi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

8. Yerga talab o'zgarmay qolganda quyidagilardan qaysi biri yer rentasi miqdorida farqlar bo'lishiga olib keladi?

- a) yerning unumdorligi;
- b) yerning joylashgan o'rni (bozorlarga, transport shaxobchalariga, suv manbalariga va shu kabilarga uzoq yoki yaqinligi);
- v) yerdan foydalanishining muqobil variantlarining mavjud bo'lishi;
- g) tabiiy iqlim va ob-havo sharoiti;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

9. Yer uchastkalarining tabiiy unumdorligi va joylashgan joyidagi farqlardan kelib chiqadigan renta qanday nom bilan ataladi?

- a) absolyut renta;
- b) differensial renta-I;
- v) differensial renta-II;
- g) monopol renta;
- d) yuqoridagi barcha nom bilan.

10. Quyidagi yer uchastkalarining qaysi birida differensial renta hosil bo'lmaydi?
- a) unumdorligi juda yuqori;
 - b) unumdorligi yuqori;
 - v) unumdorligi o'rtacha;
 - g) unumdorligi past;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
11. Yerlardan intensiv foydalanish, ya'ni ularning iqtisodiy unumdorligini oshirish natijasida vujudga keladigan renta qanday nom bilan atadadi?
- a) absolyut renta;
 - b) differensial renta-I;
 - v) differensial renta-II;
 - g) monopol renta;
 - d) yuqoridagi barcha nom bilan.
12. Yerga bo'lgan xususiy mulkchilik, ularning unumdorligidagi farqlardan qat'i nazar yer egalari qanday rentani olish imkonini beradi?
- a) monopol renta;
 - b) differensial renta-I;
 - v) differensial renta-II;
 - g) absolyut renta;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
13. Yerning tabiiy sharoiti noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari (sitrus ekinlar, choy va h.k.) yetishtirish imkonini berganda qanday renta hosil bo'ladi?
- a) absolyut renta;
 - b) differensial renta I;
 - v) differensial renta II;
 - g) monopol renta;
 - d) yuqoridagilarning barchasi.
14. Differensial renta qaysi sohalarda hosil bo'ladi?
- a) qishloq xo'jaligida;
 - b) qurilishda;
 - v) undurma sanoatda;
 - g) qazib oluvchi sanoatda;
 - d) yuqoridagilarning barchasida.
15. Quyidagilardan qaysi biri ijara haqi tarkibiga kirmaydi?
- a) yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan renta;
 - b) yerga ilgari sarflangan kapital uchun foiz;
 - b) ishlab chiqarishning to'planishi va kapitalning markazlashishi;
 - v) qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotini

iste'molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarning kuchayishi hamda ularning uzviy birikib borish jarayoni;

g) ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashishi;

d) yuqoridagilarning barchasi.

16. Agrosanoat integratsiyasi qanday darajada sodir bo'ladi?

a) mamlakat darajasida;

b) xududlar ko'lamida;

v) viloyat va tumanlar darajasida;

g) korxonalar darajasida;

d) yuqoridagi barcha darajada.

22. Oziq-ovqat bo'yicha agrosanoat kichik majmualari, qishloq xo'jaligining qaysi sohalariga bog'liq ravishda tashkil topadi?

a) sabzavotchilik;

b) donchilik;

v) paxtachilik;

g) meva va uzumchilik;

d) yuqoridagilarning barchasi.

23. Agrobiznes tushunchasini tadbirkorlikning quyidagi turlaridan qaysi biri to'laroq ifodalaydi?

a) qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik;

b) qishloq xo'jalik mahsulotini qayta ishlash va iste'molchiga yetkazib berish bilan bog'liq tadbirkorlik;

v) qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlardagi tadbirkorlik;

g) agrosanoat majmuasining barcha soha va bo'g'inlaridagi tadbirkorlik;

d) yuqoridagilarning barchasi.

24. Quyidagilardan qaysi biri agrobiznesning asosiy shakli hisoblanadi?

a) fermer xo'jaligi;

b) dehqon xo'jaligi;

v) agrofirma;

g) agrosanoat kombinatlar;

d) yuqoridagilarning barchasi.

MUNDARIJA

I BO'LIM. IQTISODIY TARAQQIYOTNING UMUMIY ASOSLARI.

1-MAVZU. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA BILISH USLUBI.	
1-§ Iqtisodiyot va uning bosh masalasi	3
2-§ Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi	5
3-§ Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari	9
4-§ Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunchalar).....	10
5-§ Iqtisodiy tahlil uslubi va usullari	11
1-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLARI.....	13
2-MAVZU. IJTIMOY-IQTISODIY EHTIYOJLAR VA UNING QONDIRILISHI.	
1-§. Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning mazmuni va shakllari.....	16
2-§. Ehtiyojlarning turlari va tarkibi, ularning qondirilish darajasi.....	18
2-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI.....	20
3-MAVZU. IQTISODIY FAOLIYAT VA ISHLAB CHIQARISH.	
1-§. Iqtisodiy faoliyat va uning turlari.....	21
2-§. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi.....	24
3-§. Ishlab chiqarish natijalari ishlab chiqarish funksiyasi.....	24
4-§. Ishlab chiqarish samaradorligi, uning ko'rsatkichlari va omillari.....	25
3-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI.....	27
4-MAVZU. TOVAR – PUL MUNOSABATLARI.	
1-§. Ijtimoiy xo'jalik shakllari va ularning belgilari.....	29
2-§. Tovar va uning xususiyatlari.....	30
3-§. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari.....	31
4-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI.....	33
5-MAVZU. MULKCHILIK MUNOSABATLARI.	
1-§. Mulkchilik munosabatlarining mohiyati.....	35
Mulk obyektlari va subyektlari.....	36
2-§. Mulk shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni.....	
3-§. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish hamda uning O'zbekistondagi xususiyatlari.....	39
5-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI.....	41

6-MAVZU. SOTSIAL-IQTISODIY TIZIMLAR VA ULARNI O'ZGARISHI.

1-§. Sotsial-iqtisodiy tizim va uning tuzilishi.....	43
2-§. Jamiyat taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli hil yondashuvlar.....	44
3-§. Iqtisodiy tizim modellari.....	49
6-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI.....	51

II-BO'LIM. BOZOR IQTISODIYOTI.

7-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTINI MOO'YATI VA BELGILARI.

1-§ Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari.....	52
2-§ Bozor iqtisodiyotining asosiy muammolari.....	54
3-§ Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari.....	55
7-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI.....	56

8-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH DAVRI VA UNING O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIYATLARI.

1-§. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari va uning O'zbekistondagi xususiyatlari.....	60
2-§. Respublikada bozor islohatlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari.....	64
3-§. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish vazifalari.....	70
4-§. O'zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohatlarni chuqurlashtirish vazifalari.....	72
8-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI.....	74

9-MAVZU. BOZOR VA UNING TUZILISHI.

1-§. Bozor va uning vazifalari.....	77
2-§. Bozorning turlari va tarkibi.....	78
3-§. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.....	80
9-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI.....	82

10-MAVZU TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI. BOZOR MUVOZANATI.

1-§. Talab tushunchasi. Talab qonuni. Talabga ta'sir qiluvchi omillar.....	88
2-§. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklifga ta'sir etuvchi omillar.....	90
3-§. Talab va taklif egiluvchanligi. Talab funksiyasi.....	91
4-§. Talab va taklif nisbati. Bozor muvozanati.....	92
10-MAVZU. BO'YICHA TEST SAVOLLARI.....	94

11-MAVZU. TADBIRKORLIK FAOLIYATI.

TADBIRKORLIK KAPITALI VA UNING HARAKATI.

1-§. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va asosiy belgilari.....	101
2-§. Tadbirkorlik faoliyatining asosiy turlari va korxonalarining tashkiliy shakllari.....	102
3-§. Aksionerlik jamiyatlari va ular faoliyatlarining xususiyatlari.....	105
4-§. Menejment korxonalarini boshqariish tizimi. Marketing va uning tizimi.....	106
5-§. Tadbirkorlik kapitalining mohiyati, shakllari va doiraviy aylanishi xususiyatlari.....	108
6-§. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital.....	109
7-§. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish xususiyatlari va undan foydalanish ko'rsatkichlari.....	111
11-MAVZU BO'YICHATEST SAVOLLARI.....	116

12-MAVZU. SARF XARAJATLAR VA FOYDA NAZARIYALARI.

1-§. Ishlab chiqarish xarajatlari mazmuni, tarkibi va turlari.....	120
2-§. O'rtacha xarajatlar va ularning turlari. Qo'shilgan xarajatlar.....	122
3-§. Foyda va uning miqdorini belgilovchi omillar.....	123
12-MAVZU BO'YICHATEST SAVOLLARI.....	125

13-MAVZU. ISH HAQI VA MEHNAT NAZARIYALARI.

1-§. Taqsimot munosabatlarida ish haqining mohiyati. Nominal va real ish haqi.....	128
2-§. Ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari.....	130
3-§. Ishchi kuchi bozorining alohida modellarida ish haqi darajasining aniqlanishi. Inson kapitaliga investitsiyalar.....	132
4-§. Mehnat munosabatlarining iqtisodiy mazmuni va uni tartibga solishda kasaba uyushmalari roli.....	133
13-MAVZU BO'YICHATEST SAVOLLARI.....	136

14-MAVZU. RAQOBAT NAZARIYASI.

1-§. Raqobatning mohiyati, iqtisodiy asoslari va rivojlanish bosqichlari.....	141
2-§. Raqobat shakllari. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat.....	142
3-§. Raqobat usullari: narx yordamida va narxsiz raqobat.....	144

4-§. Iqtisodiy monopoliya: mohiyati va turlari	
Antimonopol qonunchilik.....	145
14-MAVZU BUYICHA TEST SAVOLLARI.....	148
15-MAVZU. NARX NAZARIYASI	
1-§. Narxning iqtisodiy mazmuni, omillari va vazifalari.....	150
2-§. Narx turlari va ularning mazmuni.....	152
3-§. Raqobatning turli shakllari sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari.....	155
4-§. O'zbekistonda narxlarni erkinlashtirish va uning bosqichlari.....	159
15-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI.....	161
16-MAVZU. AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES.	
1-§. Agrar munosabatlar va qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning xususiyatlari.....	168
2-§. Renta munosabatlari. Yer rentasi va uning turlari.....	169
3-§. Yer rentasining hosil bo'lishi va uning darajasini belgilovchi omillar.....	172
4-§. Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi. Agrobiznes.....	173
16-MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI.....	176

TOSHPO'LAT JO'RAYEV

IQTISODYOT NAZARIYASI

Toshkent—"Fan va texnologiya"—2005

Muharrir: M. Tojiboyeva

Tex. muharrir: A. Moydinov

Musahhih: M. Hayitova

Bosishga ruxsat etildi 17.11.2005.
Bichimi 60x84^{1/16}. Nashr tabog'i 11,5.
Adadi 1000. Buyrtma 2.

"Fan va texnologiya" nashriyoti,
Toshkent, 700003. Olmazor ko'chasi, 171-yu.

Shartnoma 51-05.

"Fan va texnologiya Markazining bosmaxonasi"da chop etildi.
Toshkent sh., Olmazor, 171.